

ISBN: 978-93-32757-47-8

YAPON VA O'ZBEK IMPERATIV MAQOLLARINING PRAGMA - DISKURSIV XUSUSIYATLARI



Authors:



ACHILOVA OZODA FARXODOVNA

Published by

Novateur Publication

466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030
novateurpublication.org

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTIRUTI**

ACHILOVA OZODA FARXODOVNA

**YAPON VA O'ZBEK IMPERATIV MAQOLLARINING
PRAGMA – DISKURSIV XUSUSIYATLARI**

Monografiya

Samarqand – 2024

Mazkur monografiya yapon va o'zbek xalqlarining hayotiy tajribalari asosida yaratilgan turli mavzularni qamrab olgan imperativ mazmundagi maqollar talqiniga oid ilmiy qarashlardan tashkil topgan. Shuningdek, o'zbek va yapon imperativ maqollarining tarixiy tadriji, shakllanish asoslari, leksik - stilistik, grammatic va diskursiv tahliliga bag'ishlangan turli jihatlar ilmiy asoslangan va fikrlar ishonchli manbalar asosida oydinlashdirilgan.

Albatta, ushbu manba kishi vujudini to'laligicha qamrab, unga zavq hadiya etadigan ulkan asarlardan farqli holda, barcha yoshdagi kitobxonlarning maqollarga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi vosita vazifasini bajaradi, deb umid qilamiz.

KIRISH

Turli tillar egalari tafakkuridagi milliy va madaniy hamda falsafiy manzaraning o'sha xalqqa xos bo'lgan maqollar vositasida voqelanishi hamda maqollar vositasida harakatga undash mazmunidagi nutqiy aktlarning o'rni va pragma - diskursiv tasvir vositasi, shuningdek, dunyo xalqlarining milliy - madaniy o'ziga xosliklarining asosiy in'ikosi bo'lgan til birliklarining semantik - struktur hamda kognitiv - pragmatik tadqiqiniga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar jahonning ilg'or oliy ta'lim muassasalarida tadbiq etilmoqda. Jumladan, 東北大学(Toxoku universiteti, Yaponiya), 明治大学 (Meiji universiteti, Yaponiya), 札幌市立大学 (Sapporo shahar universiteti), Kabardino-Balkarskogo nauchnogo sentra Rossiyskoy akademii nauk, Der Technischen Universität Berlin (Berlin Texnik Universiteti), Sankt-Peterburgskiy gosudarstvennyiy universitet (Rossiya), shuningdek, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida olib borilmoqda.

Bugungi kunda maqollar tadqiqiga bag'ishlangan quyidagi ilmiy ishlar qo'lga kiritilgan: 日英諺の比較研究(Yapon va ingliz maqollarini qiyosiy o'rghanish), 命令形式を持つ「ことわざ」についての考察 (Imperativ shaklga ega bo'lgan "maqollar"ni ko'rib chiqish, Yaponiya), ことわざから見る日本人の国民性 (Maqollardan yapon milliy xarakteri, Yaponiya), Educational and Social Values expressed by Proverbs in two Cultures: Knowledge and Use of Proverbs in Sudan and England (Berlin), (Rossiya Fanlar akademiyasining Kabardino-Balkar

ilmiy markazi), shuningdek, o‘zbek tilshunoslari tomonidan o‘zbek xalq maqollarining tarixiy tadriji, grammatik – struktur hamda semantik tadqiqiga oid qator ilmiy tadqiqotlarni misol keltirish mumkin.

Bugungi kunga kelib, jahon tilshunosligida maqollar bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: ma’lum bir xalqqa xos bo‘lgan lingvokulturologik, psixolingvistik va milliy - madaniy xususiyatlarni va tushunchalarini anglash uchun maqollarning maqbil variantini qabul qilish bo‘yicha ilmiy - nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish, taklif qilingan variantlarning muloqot matnida faollahishi va ularni amalda sermahsul qo‘llash usullari, harakatga undash mazmunidagi nutqiy akt sifatida maqollarning xalq nutqida faollilik darajasi, shuningdek, o‘zbek tilining paremiologik tizimini boshqa qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar leksikologiyasi va frazeologiyasi bilan qiyosiy yoxud chog‘ishtirib o‘rganish, ularning lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari, semantikasi va stilistikasi antropottsentrlik maqollarning aksiologik tadqiqi, lingvo - funktsional va jamiyatning xulqiy qiymati hamda munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari.

Maqollarning tillararo qiyosiy xususiyatlari, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, nazariy ahamiyati va amaliy xulosalari, maqolshunoslikning lingvistik talqini hamda taraqqiyot bosqichi kabi masalalarning tadqiqi G. L. Permyakov, B. N. Putilov, A. M. Gutov, L. A. Gutova, V. P. Anikin, N. Barli, 穴田義孝 (Yoshiyuki Anada), 粕山洋介 (Yosuke Momiyama), 宮地裕 (Xiroshi Miyaji), o‘zbek olimlaridan N. Abdullaeva, O. Uralova, B. Jo‘rayeva, I. Mirzaaliyev, R. Majidova, I. Begmurodov, R. A. Latipova, hamda Sh. Qalandarov¹ kabilarning ishlarini e’tirof etishimiz mumkin.

¹ Пермяков. Г. Л. От поговорки до сказки. - М.: Наука, 1970. – С 215-120; Б.Н.Путилов. Методология сравнительно-исторического изучения фольклора. - Л.: Наука, 1976. - 244 с; Гутова Л. А. «Пословица и нарративный контекст» // Вестник Дагестанского НЦ РАН. - Махачкала, 2006; А.М.Гутов. Этюды о кавказском эгикеге. - Ншльчик: Эльбрус, 1998.-124 с; Аникин. В. П. Мудрость народов. // Пословицы и поговорки народов Востока. - М.: Издательство восточной литературы, 1961. -С.10; Барли. Н. Структурный подход к пословице и максиме. // Паремиологический сборник.-М.: Наука, 1984.-С. 120-128.; 穴田義孝 (Yoshiyuki Anada) “ことわざ社会心理学” 明治大学社会科学研究所、特別研究（2006年度）47 p; Ёсуке Момияма (粕山洋介)「慣用句の体系的分類：隠喻・換喻・提喻に基づく慣用的意味の成立を中心に」

Ushbu olimlarning tadqiqotlarida, asosan maqollarning kognitiv va madaniy xususiyatlari, maqollarning lisoniy, kontseptual va funksional manzaralari metafora va frazeologizmlar kabi til birliklari orqali batafsil oydinlashtirilgan.

O‘zbek tilshunosligida maqollarning tarkibiy va semantik tahlili, muloqot matnida maqollarning lingvistik, semantik va pragmatik xususiyatlari hamda ularga murojaat qilish usullarining samarasi kabi masalalar turli tadqiqotlar obyekti bo‘lgan.

Yapon tilshunosligida fe’lli idiomalarning semantik turg‘unligini izohlash, maqollar orqali madaniyatlarni qiyosiy tadbiq etish, yapon tilidagi turgun iboralarini tizimli tasniflash hamda maqollarning izohli lug‘atlarni tavsiflash, idiomatik iboralarni maqollar asosida tahlil qilish va maqollar tarkibida qo‘shma gaplar yoki juftalashgan ierogliflarning ishtiroki, idiomatik iboralarning tizimli tasniflab, metafora, metonimiya va sinekdoxa asosidagi idiomatik ma’noni tahlil qilish bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O‘zbek ilmiy manbalarida esa o‘zbekcha maqollarning tarixiy tadriji, shakllanish asoslari, leksik - stilistik, grammatik va diskursiv tahliliga bag‘ishlangan turli jihatlar turli tadqiqotlar obyekti bo‘lganligidan darak beradi.

Ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilshunosligida paremiyalarning lisoniy, lug‘aviy va kontseptual jihatlari lingvokulturologik nuqtai nazardan samarali tadbiq qilingan. Biroq, imperativ maqollari va ularning pragma - diskursiv talqiniga oid

『名古屋大学国語国文』80、名古屋大学国語国文学会、1997, -P.29-43; Xiroshi Miyaji (宮地裕) 「慣用句の周辺—連語・ことわざ・複合語—」『日本語学』4 (1) 、1985, 明治書院、 -P.62–75; Абдуллаева Н. Ўзбек ва инглиз халқ мақолларида макрографионимия// An international scientific and practical online conference on the topic tsul minternational conference on teaching foreign languages. Foreign languages department. – Tashkent, 2021. -Б.257 -259; Uralova O. P. Ingliz va o‘zbek tillarida “Oila” bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi. Filol. fan... falsafa doktori (PhD) dis. – Samarqand. 2021; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шакланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док... (ДСс) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 79 б; Мирзаалиев И. М. Қадимги туркӣ мақоллар семантикаси ва стилистикаси (“Девону лугати-т-турк” материали мисолида). Филол. фан. фалс. Док (PhD)...дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 48 б; Маджидова. Р. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқики (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида). Филол. фан. доктори (ДСс)... дисс. автореф. – Фарғона, 2020. - 65 б; Бегмурадов И. Узбекско-казахские фольклорные связи: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 18 с; Латыпова Р.А. Нормы речевого поведения в зеркале английской и башкирской паремии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.– Уфа, 2003. -24 с ; Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси. Фил. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019;

qarashlar yapon va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy - chog‘ishtirma aspektida tadqiq qilinganicha yo‘q.

Boshqacha aytganda, yapon va o‘zbek maqollarida imperativlikning pragma - diskursiv printsiplarining ikkala til standartiga muvofiqlik darajasi, paremiyalar tarkibida imperativlikning voqelanish xususiyatlari, imperativlikning tutgan o‘rnini va nutq samaradorligi, ikkala xalq ijtimoiy hayotida maqollarga bo‘lgan ehtiyojning paydo bo‘lishi va unda sotsipragmatik omillarning ta’siri masalasi kabi jihatlarni chog‘ishtirma aspektida tizimli tadqiq qilish bugungi kunda dolzarblikni talab etadi.

I BOB. IMPERATIV MAQOLLARNING NAZARIY ASOSLARI

§ 1.1. Imperativ mazmundagi maqollarning umumiyligi xususiyatlari

Teran mazmunga ega bo‘lgan maqol va matallar, umuman olganda, paremiyalar ma’lum bir xalq tilining o‘ziga xos nafosati hamda milliy mentalitetini ajib bir tuyg‘u bilan namoyish etadi. Bu badiiy ko‘zguda kishilarning hayotga, tabiatga va jamiyatga munosabati, ijtimoiy - siyosiy, ma’naviy - ma’rifiy, axloqiy - estetik va falsafiy qarashlari namoyon bo‘ladi. Tilshunos olim X. Hamidov ta’biri bilan aytganda, maqol va matallarimiz ming yillardan buyon eskirmasdan, “ohori to‘kilmasdan” bizgacha etib kelgan². Bir so‘z bilan aytganda, maqollar xalqning o‘tmishini aks ettiruvchi ko‘zgudir.

Ma’lumki, maqollar harakatga undash xususiyati nisbatan kuchliligi bilan xarakterlanadi. Odatda, maqollar buyruq ohangida nutqimizda voqelanib, nutq intensiyasi suhbatdoshni ma’lum bir harkatga undashga, da’vat etishga qaratilgan bo‘ladi. Shuningdek, kundalik muloqot jarayonida imperativ mazmunga ega bo‘lgan jumlalar so‘zlovchi tomonidan ma’lum bir vaqtida tinglovchini ma’lum bir harakatni amalga oshirishga undash uchun ifoda topadi.

Mazkur tadqiqot ishimizda asosiy e’tibor maqollarda imperativlikning leksik, semantik, funktsional va diskursiv xususiyatlariga qaratilgan bo‘lib, birinchi navbatda, maqollarning umumiyligi xususiyatlari haqida qisqacha to‘xtalishga jazm

² X. Hamidov “Devoni lug‘atit – turk”dagi maqollar va hozirgi turk tili paremiologiyasi. Turkologiya xalqaro ilmiy jurnal. Toshkent davlat sarkshunoslik universiteti, 2021. – 89 b.

etdik. Ma'lumki, maqollar vositasida jamiyat ogohlikka chaqiriladi, insoniyat tomonidan bajarilgan xato va kamchiliklar qoralanadi va tanqid qilinadi. Shuningdek, maqollar orqali inson maqtaladi va ulug'lanadi yoki qadrlanadi. Umuman olganda, paremiyalar xalq orasida insonni jamiyatda har tomonlama komil shaxs sifatida shakillatirish uchun yaratilgan tarbiya vositasi sifatida qiymatlanadi.

Sharqona donolik va falsafiy yondoshuvlar davrlar osha insoniyatni borliq haqida fikr yuritishga, xulosa qilishga hamda hayotning baland - pastliklari - yu, oq va qora tomonlari haqida mantiqiy yondashishga da'vat etib kelgan. Xalqning ko'p asrlik tajribalari hosilasi bo'lgan paremiyalarni asrlar davomida avloddan - avlodga o'tib kelayotgan durdona ijod asari deyishimiz mumkin.

Paremiyalarga oid ilmiy yondashuvlar va betakror izlanishlar ko'plab folklorshunos va tilshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, o'zbek olimlaridan B. Jo'rayeva "O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari" mavzusida, I. Mirzaaliyev "Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi" mavzusida, R. Majidova "Antropotsentrik maqollarning aksiologik tadqiqi" mavzusida, D. Muhammadiyeva "Boburnoma" turkcha tarjimasida paremiyalarning qiyosiy tadqiqi" mavzusida, O. Uralova "Ingliz va o'zbek tillarida "oila" bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi" mavzusida, A. Axrorov "Nutq madaniyatini ifodalovchi o'zbek xalq maqollarining lingvo - fuktsional va xulqiy qiymati" mavzusida hamda Sh. Qalandarov "O'zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollari evfemizatsiyasi" mavzusida, N. Abdullayeva "Ingliz va o'zbek xalq maqollaridagi graduonimik munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari" mavzusida izlanishlar olib borgan bo'lsa, xorijlik olimlaridan G.Ya. Permyakov, A. M. Gutov, L. A. Gutova, N. Barlin, shuningdek, yapon olimlaridan 穴 田 義 孝 (Yoshiyuki Anada), Ёсуке Момияма (糀山洋介), Xiroshi Miyaji (宮地裕)³ kabilarning ishlarini

³ Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шакланишининг лингвистик асослари ва pragmatik xususiyatlari: Филол. фан. док... (ДС) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 79 б; Мирзаалиев И. М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси ("Девону лугати-т-турк" материалы

e'tirof etishimiz mumkin. Ushbu olimlar g'oyalari asosida tilshunoslik va folklorshunoslik olamida bugungi ilmiy izlanishlar orasida maqollar bilan bog'liq ilmiy asarlar soni salmoqli darajada ortib borayotganligi quvonarli holatdir. Biroq, paremiyalar va ularga berilayotga ta'rif va ilmiy yondoshuvlar haligacha payoniga yetganicha yo'q. Bu borada kun chiqar yurt tadqiqotchilar tomonidan ham bir qancha izlanishlar olib borilgan.

Maqol va matallar xalqning ta'lif va tarbiya bilan bog'liq pedagogik faoliyati va tajribalari namunalari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bu borada pyatigorsklik olim S. M. Shakaryan paremiyalarning ta'limgagini rolini tavsiflab, shunday deydi: "Maqollar o'ziga xos til uslubi bilan ajralib turadi. Ularda asosiy maqsad saboq olish istagi, pand - nasihat berish va tilak bildirishga qaratiladi. Shu munosabat bilan fe'l shakllari, xususan, fe'lning buyruq shakllariga ega bo'lgan gaplar eng keng tarqalgan usullardan hisoblanadi"⁴.

Ravshanki, yuqoridagi iqtibos muallifi paremiyalarda fe'lning buyruq shakllari asosida yaratilgan jumlalarning nisbatan ustun qo'llanilishi haqidagi hukmni ilgari surmoqda. Ammo grammatik shakl jihatidan tinglovchini harakatga undash tendentsiyasini ifodalovchi maqol va matallarning tarbiyaviy ahamiyati katta deb to'liq e'tirof etib bo'lmaydi.

мисолида). Филол. фан. фалс. Док (PhD)...дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 48 б; Маджидова. Р. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқики (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида). Филол. фан. доктори (ДС... дисс. автореф. – Фарғона, 2020. - 65 б; Muhammadiyeva D. "Boburnoma" turkcha tarjimasida paremiyalarning qiyosiy tadqiqi. РН...дисс. –Toshkent, 2021. 65-b; Uralova O. P. Ingliz va o'zbek tillarida "Oila" bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi. Filol. fan... falsafa doktori (PhD) dis. – Samarqand. 2021; Axrorov A. Nutq madaniyatini ifodalovchi o'zbek xalq maqollarining lingvo-funksional va xulqiy qiymati. Filol. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD)...diss. avtoref. – Guliston, 2021; Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий мухитида ҳалқ мақоллари эвфемизацияси. Фил. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019; Пермяков. Г. Л. От поговорки до сказки. - М.: Наука, 1970. – С 215-120; Гутова Л. А. «Пословица и нарративный контекст» // Вестник Дагестанского НЦ РАН. - Махачкала, 2006; А.М.Гутов. Этюды о кавказском эгикеге. - Ншльчик: Эльбрус, 1998.-124 с; Барли. Н. Структурный подход к пословице и максиме. // Паремиологический сборник.-М.: Наука, 1984.-С. 120-128; 穴田 義孝 (Yoshiyuki Anada) “ことわざ社会心理学” 明治大学社会科学研究所、特別研究（2006年度）47 p; Ёсуке Момияма (糀山洋介)「慣用句の体系的分類：隠喻・換喻・提喻に基づく慣用的意味の成立を中心に」『名古屋大学国語国文』80、名古屋大学国語国文学会、1997, -P.29-43; Xiroshi Miyaji (宮地裕) 「慣用句の周辺—連語・ことわざ・複合語—」『日本語学』4 (1) 、1985, 明治書院 -P.62-75;

⁴ Шакарян. С. М. Русская народная педагогика о нравственном воспитании. - Пятигорск: 1999. – С.188.

Ma'lumki, tarbiyalash va axloqiy lashtirish g'oyalari, umuman olganda, pedagogika va etika bilan aloqador jarayonlar haqidagi ko'rsatmalar, odatda, buyruq konstruktsiyalari asosida shakllangan maqollar vositasida yuzaga chiqadi. Ammo, muloqot jarayonida bevosita ko'rsatma berishdan chetlashish jarayonida paremiyalar inson ongida voqelikni estetik jihatdan o'zlashtirish natijasi sifatida gavdalanadi va muloqotning samarali kechish ehtimolini oshirish uchun xizmat qiladi.

Boshqacha aytganda, xalq aforistik iboralari shakl va mazmun jihatdan mustaqil san'at asari deyish mumkin va ular badiiy ijod qonuniyatları asosida qurilganligi sababli, eksplitsit tarzda da'vat etuvchi xarakterdagi birlklardan tubdan farq qiladi. Shu bilan birga, majoziy va ixcham shaklda tuzilgan iboralar ham xulosa shakliga ega bo'lishi mumkin va ushbu holatga imperativ maqollarni kiritish o'rinnlidir. Boshqacha qilib aytganda, bu turdag'i maqollar u yoki bu harakatni taqiqlashga yoki uni bajarishga undashga qaratilgan muayyan mazmunni ifodalaydi. Shu o'rinda, quyidagi iboralarni tahlilga tortib, ularning xususiyatlariga oydinlik kiritishni ma'qul ko'rdik:

I. Tur (Imperativ shakl mavjud emas):

O'zbek tilida: *Vaqt hamma narsani davolaydi.*

Yapon tilida: 時は薬なり。 (Toki wa kane nari). (暮らしの中のことわざ辞典, 175).

Vaqt - bu malham.

O'zbek tilidagi ibora variantning strukturaviy diagrammasida "A Bni amalga oshiradi" tarzida izohlansa, yapon tilidagi variantlarida "A = B", ya'ni "Ada B mujassam" ekanligini kuzatish mumkin.

II. Tur (Imperativ shaklga ega):

O'zbek tilida: *Bir ko 'zlilar eliga borsang, bir ko 'zingni qisib yur.*

Yapon tilida: 郷に入つては郷に従え。 (Gōnitewa gōni shitagae).

(暮らしの中のことわざ辞典, 175).

Qavmga qo 'shilsang, ularga bo 'ysin.

Yuqorida tahlilga tortilgan har ikkala mqol eng sodda tuzilishga ega bo‘lgan imperativlik tipiga mansub bo‘lgan maqollar sirasiga kiradi. Biroq quyidagi maqol imperativlik xususiyatiga ega bo‘lmasa - da, nutq intentsiyasi tinglovchini harakat ijrosini amalga oshirishiga ishora etmoqda :

Yapon tilida: 石の上にも三年。 (Ishi no ueni mo san nen).

(暮らしの中のことわざ辞典, 47).

Tosh ustida ham uch yil.

Izoh: Sovuq tosh ustida uzoq vaqt o‘tirsa, tana harorati unga o‘tadi va u iliq bo‘ladi. Tinmsiz qilingan mehnat mukofotga loyiqligiga ishora.

O‘zbek tilida: *Ko ‘pdan ayrligan ozar, ko ‘pga qo ‘shilgan o ‘zar.*

(O‘zbek xalq maqollari, 18).

Ravshanki, ushbu maqollar tarkibida ishtirok etayotgan fe’llar imperativlik ko‘rinishiga ega emas. Biroq, ushbu maqollardan maqsad, muloqotdoshni harakatga undashdir. Xulosa qilishimiz mumkinki, har ikkala tilda bir xil fikr imperativ shaklda va aksincha bo‘lgan holatlarda ham nutq jarayonida voqelanish xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, xoh u oshkora imperativlik ko‘rinishiga ega bo‘lsin, xoh yashirin har ikkala holatda ham paremiyalar inson hayotiy tajribasining samarasini aks ettiruvchi ishonchli manbbadir. Ya’ni maqollar - bu insoniyatning uzoq kuzatmalari hamda takroriy voqeа - hodisalardan chiqarilgan umumlashtiruvchi xulosalari deyish mumkin.

Darhaqiqat, insoniyat ongida salbiy yoki ijobiy voqea – hodisalardan oqilona va saboqli xulosa chiqaharish uchun bir martalik kuzatuv tajribasining o‘zi kifoya qilmaydi. Demak, ezgulik sari eltuvchi to‘xtamga kelish va jamiyatda atrofdagilar bilan til topishish qobiliyatini hayotiy tamoyil sifatida ko‘rish uchun hayot haqida yetarli bilimga ega bo‘lish talab etiladi. Biroq oqilona fikrni bayon etish uchun qo‘llangan dono fikrlar va buyruq mazmuniga ega bo‘lgan paremiyalarning o‘zaro tafovuti ularning garammatik yoki struktur jihatи bilangina cheklanib qolmaydi. Paremiyalarda dunyo hikmatlariga oid chuqur tafakkur, teran fikr va qisqa izohga

ehtiyoj tug‘iladi. Muloqot jarayonida ba’zan, vaziyatga bog‘liq holda, indikativlik o‘rniga imperativlikka murojaat qilish ehtiyoji ham paydo bo‘lb turadi.

Umuman olganda, maqollar har qanday holatda ham tarbiyaviy xususiyatga egadir, chunki ular chindan ham xalq ijodining o‘ziga xos turi, yaxlit fikr ko‘rinishiga ega bo‘lib, ibrat va hikmat bilan purmanodir. Biroq imperativlik xususiyatiga ega bo‘lmagan maqollar hamda imperativ maqollar o‘rtasida funktsional jihatdan tafovutlar mavjud. Birida to‘la - to‘kis bir xulosani o‘z ichiga olgan holda nutq intentsiyasi implitsit tarzda voqelangan bo‘lsa, ikkinchisida esa eksplitsit tarzda biron bir harakat ijrosi bajarilishiga ishora qilinadi yoki aksincha, proxibitivlik yuzaga kelishi kuzatiladi, boshqacha qilib aytganda, ma’lum bir faoliyat ijrosi taqiqlanadi.

Quyidagi misollarni tahlil qilib ko‘ramiz:

Yapon tilida:

1. 今日考へて明日語れ。 (Kyou kangaete asu katare).

<https://imidas.jp/proverb/detail>

Bugun fikrlab, ertaga bayon et.

2. 熱は熱いうちに打て。 (Tetsu wa atsui uchuni ute).

(暮らしの中のことわざ辞典, 311).

Temirni qizigan vaqtida ur.

O‘zbek tilida:

1. Avval o‘yla, keyin so‘yla.
2. Nonni tandir qiziganda yop.

(O‘zbek xalq maqollari, 133, 406).

Ravshanki, yuqorida qayd etilgan maqollarda har ikkala tilda ham imperativlik muqobil holatda voqelangan bo‘lib, gap tarkibida 「語れ (katare)」, 「打て (ute)」, “so‘yla” va “ur” fe’llarining buyruq maylida qo‘llanishi tinglovchida harakatga nisabatan tezroq ta’sir ko‘rsatish kuchini paydo qilishga xizmat qiladi. Binobarin, imperativ shaklga ega bo‘lgan maqollarning mavjudligi va ularning

amalda qo‘llanish xususiyatlari o‘zbek va yapon xalqlari madaniyti hamda tabiatiga xos ekanligi ko‘rinib turibdi.

Yapon xalqi haqida fikr yuritar ekanmiz, darhol “dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri”, “har qanday istagan narsani yengillik bilan qo‘lga kiritish mumkin bo‘lgan imkoniyatlar mamlakati” yoki “ulkan binolardan tortib, o‘ta kichik jismga qadar hayratomuz mehr va mahorat bilan yaratilgan g‘aroyib makon” singari tushunchalar ongimizda gavdalanishi tabiiy.

Darhaqiqat, yuqorida qayd etilgan barch ta’riflar mehnatkash yapon xalqiga berilgan xolisona bahodir. Ammo shu o‘rinda aytmoqchimizki, Yaponiya oddiy, sodda va kamtarin insonlar yurtidir. Boshqacha qilib aytganda, oddiylik va inson va tabiatga bo‘lgan cheksiz ehtirom uyg‘unligidan xotirjam yashash mumkin bo‘lgan jamiyat deyish mumkin.

Chindan ham, yaponlar bilan muloqatga kirishar ekanmiz, birinchi navbatda, suhbatdoshga bo‘lgan hurmt va ikromni nafosat bilan ifodalashda so‘zlovchidan katta mahorat talab etiladi. Ushbu mahorat ko‘nikmalari yaponiyada boshlang‘ich ta’lim davridayoq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, atrofdagilarga ehtiromni ifodalash uchun hurmat kategoriyasiga oid lisoniy vositalardan foydalanish muloqot jarayonini yanada siliqlashtiradi va insoniy munosabatlarni yaxshilashga imkon beradi. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabat qanchalik yaqin bo‘lmisin yoki aksincha, qaltis bo‘lgan holatda ham bu har qanday jumlanı bevosita ifodalash imkonini bermaydi⁵.

Oddiy bir so‘z yoki kichik bir jumla muloqotdoshlar munisabatini ijobiy yoki salbiy tomonga hal qilishi mumkinligi bois, so‘zlarni diqqat bilan tanlash talab etiladi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim va tarbiya jarayoni bilan aloqadordir.

Shu o‘rinda, imperativ maqollar ta’lim va tarbiya jarayonida ayni muddao ekanligini kuzatish mumkin. Ma’lumki, ta’lim jarayoni murakkab jarayonlardan bo‘lib, so‘zlovchidan inson ruhiyatiga salbi ta’sir o‘tkazadigan nutqiy aktlardan chetlanish va muloqot samaradorligini ta’minalashga xizmat qiluvchi muloqot matnidan foydalanish kabi omillar talab etiladi. Muloqot etikasi bilan bog‘liq

⁵ <https://kinarino.jp/cat6/36204>

nozik munosabatlar jarayonida har qanday jumlalarni ifodalashdagi eksplitsitlik, tabiiyki, tinglovchining ongida tushkunlik kayfiyatini uyg‘otadi. Ushbu holatda imperativ maqollar va implitsit nutqiy aktlar vositasida muloqot estetikasini sayqallashtirish o‘rinlidir. Fikrimizni dalillash maqsadida quyidagi misollarga tayanishni joiz topdik:

Yapon tilida:

1. 可愛い子には旅をさせよ。 (Kawaii ko ni wa tabi o sa seyo) .

(暮らしの中のことわざ辞典, 130).

Yoqimtoy bolaga sayohat qildir.

Izoh: Yoqimtoy farzad bo‘lsa, uni ota - ona bag‘rida erkatalgandan ko‘ra, sayohat qildirib, dunyoning g‘ami va azobini boshdan kechirishga imkon ber.

2. 親の甘茶が毒となる。 (Oya no amacha ga doku to naru).

(暮らしの中のことわざ辞典, 103).

Ota - onaning shirin choyi og‘uga aylanadi.

Izoh: Farzandni faqat shirin so‘z va erkatalash bilan tarbiyalama, bu kelajakda bolaga foyda keltirmaydi, aksincha, uni zaharlaydi va tuban qiladi.

3. 獅子の子落とし。 (Shishi no kootoshi).

(暮らしの中のことわざ辞典, 213).

Sher bolasini uloqtiradi.

Izoh: Sher tug‘ilgan bolasini chuqur vodiya uloqtirib yuborishi va faqat yuqoriga ko‘tarilib chiqa olgan kuchli sher bolasini tarbiyaga olishi haqidagi fikrga tayanib, inson farzandini mashaqqat yo‘lidan o‘tishga undashi va sabr – qanoatini sinab ko‘rishiga da’vatdir. Ya’ni farzandga og‘ir sinov ber va uning imkoniyatlariga asoslanib, komil inson qilib tarbiyala.

4. 孝行のしたい時分に親はなし。 (Koukou no shitai jibun ni oyawa nashi).

(暮らしの中のことわざ辞典, 174).

Izoh: Ota – onangni qadriga yet. Qidirganingda ularni topa olmaysan. Ular omonligida chin farzad bo‘l.

O‘zbek tilida:

1. *Daraxtdan meva olaman desang, niholligidan parvarish qil.*
2. *Egri butoqni niholida tobini ol.*
3. *Bir qilgan - madad, ikki qilgan - odat.*
4. *Bolani so ‘ksang, beti qotar, ursang, eti qotar.*

Ravshanki, yuqorida tahlilga tortilgan yapon tilidagi birinchi misol va o‘zbek tilida keltirilgan birinchi va ikkinchi misollarda imperativ shaklning bevosita qo‘llanilishi va qolgan misollarda esa hech qanday harakatga undovchi shakl mavjud emasligini kuzatish mumkin. Vaholangki, bu turdagи maqollarning har birida funktsional xususiyat faqat harakatga undashga qaratilgan bo‘ladi.

Imperativ maqollar funktsional jihatdan nafaqat o‘git berish, tavsiya, yoki maslahat kabilarni ifodalaydi, balki bevosita buyruq, ijozat va taqiq mazmunini ham o‘z ichiga olishi holatlari ham kuzatilishi mumkin. Shu boisdan ham ushbu turdagи maqollar xalq ongida saboq va tarbiya jarayonidagi muhim vosita sifatida gavdalanadi.

Shuningdek, buyruq mazmuniga ega bo‘lgan qurilmalar va iboralar bevosita harakat ijrosini ta’minalashga undashdan iborat bo‘libgina qolmasdan, balki hissiy ta’sir va tuyg‘ular bo‘yoqdorligini oshirish vazifasini ham bajarishi mumkin.

Yapon tilida:

1. ああ言えばこう言う。 (Aaa ieба kou iu).

(暮らしの中のことわざ辞典, 16).

Unday desam, bunday deydi.

2. 山と言えば//⁶。 (Yama to ieба kawa).

Tog‘ desam, daryo deydi.

Izoh: Pand - nasihatga qulоq solmaydigan, hidoyatga ergashishdan bosh tortish maqsadida bema’ni dalillar keltirish harakatidagi kishilarga nisbatan kinoya.

3. 相手見てからの喧嘩声。 (Aite mitekarano kenkagoe).

⁶ <https://proverb-encyclopedia.com>

Raqibni ko 'rgandan keyin, jang boshla.

Izoh: Raqibning ojizligini va kuchsiz ekanini ko'rgandan so'ng, baland ovozda imkon qadar tezroq janjal qilish istagidaigi kishilarga kinoyali munosabat.

4. 青田ほめられ馬鹿ほめられ⁷。 (Aota homerare, baka homerare).

Hali yetilmagan sholi maysazorini maqtash - axmoqni maqtash.

Izoh: Sholi maysalari ko'r kam ko'rinsa - da, hosili noma'lum. Garchi bola daho ko'rinsa ham, kelajakda aksincha bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida:

1. *Kalning temirdan tarog 'i bor.*
2. *Ko 'rmaganning ko 'rgani qursin.*
3. *Ko 'r ko 'rni qorong 'id topadi.*
4. *Bukrini go 'r tuzatar.*

(O'zbek xalq maqollari, 185, 292, 155).

Ush bu tahlilga tortilgan maqollarda urg'u ma'lum bir ish - harakat ijrosini amalga oshirishga qaratilmagan, aksincha bu turdag'i jumlalarda kinoya va istehzo kabi hissiy tuyg'ular ustunlikka egadir.

Shuningdek, muayyan vaziyatda harakat yo'nalishini belgilab beruvchi maslahat yoki ko'rsatmalarni qamrab olgan bir qator paremiyalar ham mavjud:

Yapon tilida:

1. 悪人の友を捨てて善人の敵を招け。 (Akunin no tomo o sutete zennin no teki o maneke). (暮らしのことわざ辞典, 16)

Yomon do 'stni tark qil, yaxshi dushmanni taklif qil.

Izoh: Do'sting yovuz inson bo'lsa, uni tark et va dushmaning yovuzlikdan yiroq bo'lsa, uni do'st tut.

2. 朱に交われば赤くなる。 (Shu ni majiwareba akakunaru).

(暮らしのことわざ辞典, 229).

Qizilga aralashgan qizil bo 'ladi.

⁷ <https://proverb-encyclopedia.com/>

Izoh: Yomonga yaqin yursang, uning ta'sirida yovuzlikka intilasan.

3. 三人寄れば文殊の知恵。 (Sannin yoreba monjuno chie).

(暮らしの中のことわざ辞典, 208).

Uch kishi birlashsa, Monju (donolik xudosi)ning donoligi.

Izoh: Hatto oddiy odamlar ham uch kishi yig'ilib gaplashsa, Monjudek yaxshi hikmat topa oladi.

4. ちりも積もれば山となる。 (Chiri mo tsumoreba yama to naru).

(暮らしの中のことわざ辞典, 298).

Chang ham to‘planib tog‘ bo‘lar.

Izoha: Chang kabi kichik zarralar ham vaqt o‘tishi bilan to‘planib tog‘ kabi ulkan jismga aylanadi. Insonning arzimas harakatlari ham davom etsa, vaqt o‘tishi bilan oxir - oqibat kutilmagan darajada katta natijalarga olib keladi. Umuman olganda, arzimas bo‘lsa ham, yaxshi amallar va harakatlarni barqaror ravishda to‘plashga ishora.

O‘zbek tilida muqobil variantlar:

1. *Do ‘sti nodondan dushmani dono yaxshi.*
2. *Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang, balosi.*
3. *Bir kalla kalla,*
Ikki kalla tilla.
4. *Toma - toma kul bo ‘lur.* (O‘zbek xalq maqollari, 101, 60, 365).

Ravshanki, har ikkala til misollari tarkibida harakat yo‘nalishini belgilab beruvchi preskriptivlik xususiyatini buyruqqa aylantirish imkonini bildiruvchi imperativlik mazmuni mavjud. Ushbu xususiyat, asosan, kundalik muloqot jarayonida kommunikativ vaziyatga bog‘liq holda voqelanishi kuzatiladi. Demak, paremiyalar semantik invariantlikka ega bo‘lib, ushbu holat asosan og‘zaki nutqqa xosdir. Biroq, aksariyat hollarda paremiyalarda shakl va mazmun chambarchas bog‘liqligi kuzatilsa - da, biz urg‘u brayotgan imperativ maqol va matallar o‘ziga xos funktsional va semantik xususiyatlarga ega va ular maqollarning strukturasi hamda ularidan anglashiladigan majoziy mazmunni belgilashga imkon yaratadi.

Yuqorida tahlil qilingan misollarda har ikkala tilda ham adekvat, ya’ni maqollarda mutanosiblik holatini kuzatish imkonи mavjud bo‘lib, ular har ikkala holatda ham funksional jihatdan preskriptivlik xususiyatiga egadir.

E. I. Belyayevaning ta’kidicha, preskriptivlining asosiy belgisi so‘zlovchining ustunligi va buyurilayotgan harakatning bajarilishi majburiyligida namoyon bo‘ladi [Беляева, 1992: 15].

. Vaholangki, ushbu guruhdan, buyurtma berish, taqiqlash, ruxsat berish kabilardan tashqari imperativlik va ko‘rsatma berish mazmunidagi nutqiy aktlar ham o‘rin oladi. Shu o‘rinda, tilshunos olim Sh. Safarovning “muloqotdoshlarning mavqeи nisbiy harakterga egaligi va kommunikatsiya vaziyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib turishi mumkinligi” haqidagi fikrini ta’kidlash joizdir [Сафаров, 1989 : 145].

Folklorshunos L. Gutovaning ta’kidicha, imperativ maqollar struktur jihatdan sodda va murakkab maqollarga bo‘linadi. Sodda tarkibli maqollar faqat buyruq gapni o‘z ichiga olgan holda namoyon bo‘lasa, ikkinchisi parallel konstruktsiyaga ega bo‘ladi [Гутова, 2007 : 18]. Darhaqiqat, Gutovaning ushbu talqini nechog‘lik o‘rinli ekanligini quyidagi misollar asosida talqin qilishga jazm etdik:

Sodda imperativ maqollar:

Yapon tilida:

1. 習うより慣れろ。 (Narau yori narero).

(暮らしの中のことわざ辞典, 354).

O‘rganishdan ko‘ra ko‘nikish afzal.

Izoh: Kimdandir o‘rganib olgandan ko‘ra, amalda boshdan kechirib saboq ol.

2. 果報は寝て待て。 (Kahō wa netemate).

(暮らしの中のことわざ辞典, 125).

Mukofotni yotib kut.

Izoh: Baxtni inson kuchi bilan boshqarib bo‘lmaydi va mehnatning samarasini xotirjamlik bilan kut.

3. 秋の茄子は嫁に食わすな。 (Aki no nasu wa yome ni kuwasu na).

(暮らしの中のことわざ辞典, 11).

Kuzgi baqlajonni keliningga yedirma.

Izoha: Kuzgi baqlajon mazali bo'lsa - da, zaharli alkaloidlarni o'z ichiga oladi va sharq tabobatida baqlajon tanani sovutuvchi oziq - ovqat sifatida tasniflanadi. Shu nuqtai nazaridan, bunday mahsulotni ardoqli kelinlarga yedirmagan ma'qul.

4. 後は野となれ山となれ。 (Ato wa no to nare, yama to nare).

(暮らしの中のことわざ辞典, 31).

Bundan buyon xoh dala bo'l, xoh tog 'bo'l.

Izoh: Qudrating qadar haraktda bo'l, natijasiga qayg'urma (beparvo bo'l).

O'zbek tilida:

1. *O'qigan o'qigan emas, uqqan o'qigan.*
2. *Sukutda hikmat ko 'p.*
3. *Kuzgi qatiqni kuyovinga berma.*
4. *Odamning yuziga boqma, so 'ziga boq.*

(O'zbek xalq maqollari, 144, 475, 443).

Ko'rindiki ushbu maqollar yapon tilida ham o'zbek tilida ham qisqa jumlalardan iborat bo'lib, ikkalasi ham ikkinchi shaxs birlikda ifodalangan imperativlikdan iboratdir.

Shu o'rinda, murakkab imperativ maqollar tahliliga to'xtalamiz:

Yapon tilida:

1. 日光を見ないうちは結構と言うな。 (Nikkō wo mizushite kekkō to iuna).

(暮らしの中のことわざ辞典, 365).

"Nikko"ni ko'rmasdan turib, yetarli degan xulosaga kelma.

Izoh: Nikkodagi Toshogu ziyyaratgohini hech qachon ko'rmaganlar uning arxitekturasining go'zalligi haqida gapirishga haqli emaslar. Ya'ni, asl nafosatni guvohi bo'lmasdan turib, xulosa chiqarmaslikka ishora.

2. 人には添うてみよ馬には乗ってみよ。 (Hito ni wa soute miyo uma ni wa notte miyo).

(暮らしの中のことわざ辞典, 417).

Insonga ergashib ko‘r, otga minib ko‘r.

Izoh: Inson bilan munosabatda bo‘l, yaxshi - yomonligini farqlaysan. Otga minib ko‘r, qandayligini bilasan. Ya’ni holatni amalda boshdan kechirishga da’vat.

3. 人の振りみてわが振り直せ。 (Hito no furi mite waga furi naose).

(暮らしのことわざ辞典, 421).

Kishi harakatini kuzat va o‘zingning hulqingni tuzat.

Izoh: Begonaning xatti - harakatlarini kuzib, nojo‘yalikni his qilsang, o‘zingga boq va kamingni tuzat.

4. 我が身を抓って人の痛さを知れ。

(Wagami wo tsunette hito no itasa wo shire).

(暮らしのことわざ辞典, 528).

O‘z tanangni chimchila, boshqalarning dardini tushunasan.

Izoha: Dardmandning holatida bo‘lib, uning mushkulini his qilish mumkin.

O‘zbek tilida:

1. *Bilmaganni bildim dema, qilmaganni qildim dema.*
2. *Bosar izing ko‘rib bos, orqa - olding bilib bos.*
3. *Aqlni beaqldan o‘rgan.*
4. *Pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa - birovga ur.*

(O‘zbek xalq maqollari, 45, 394, 124, 435).

Ushbu paremiyalar ikkita parallel konstruktsiyaga ega bo‘lib, ularning har birida harakatga undovchi unsurlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, imperativlik yapon tilida 「～ない」、 「～な」、 「～て」、 「～よ」、 「～せ」、 「～れ」 tarzida voqelangan bo‘lsa, o‘zbek tilida “so‘yla”, “bos”, “kul”, “ur” kabi buyruq maylidagi fe’llardan tarkib topgan.

Ma’lumki, maqollarda odatda fe’lning buyruq shakli qo‘llaniladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, yapon tilida og‘zaki muloqot matnida paremiyalar morfologik jihatdan 「しろ」 (shiro) yoki 「するな」 (suruna) kabi og‘zaki buyruq shaklini hosil qiluvchi suffikslar asosida yakun topishi bilan xususiyatlansa - da, 「せよ」 (seyo), 「すな」 (suna) va 「するな」 (suruna) hamda 「～なかれ」 (nakare)

kabi qadimgi yapon tiliga xos bo‘lgan imperativ shakl hosil qiluvchi unsurlarining ham amalda ekanligin kuzatish mumkin [齋美智子、2014 : 170].

Masalan:

1. 若い時の苦労は買ってもせよ。 (Wakai toki no kurō wa katte mo seyo).

(暮らしの中のことわざ辞典, 526).

Yoshligikning mashaqqatini sotib olib bo‘lsa ham boshdan kechir.

Izoh: Yoshlikda doim oson yo‘lni tanlama, mushkul bo‘lsa ham, qiyinchiliklarni tajriba qil. Zero, orzular ro‘yobi uchun bo‘ladigan mashaqqatlarga tayyor tur.

2. 過ちては改むるに憚ること勿れ。

(Ayamachite wa aratamuruni habakaru kotonakare).

(暮らしの中のことわざ辞典, 38).

Xatolarni tuzatishdan qo ‘rqma.

Izoh: Agar xatoga yo‘l qo‘ysang, qanday holatda bo‘lsang ham darhol uni tuzat.

Umuman olganda, paremiyalarning keng ommabopligi, ularda mazmun umumlashmasi va fikr ifodalash tejamkorligi ularning pragmatik salohiyati oshishini ta’minlaydi. Har qanday davrda ham maqol va matallar ma’lum bir xalqqa xos xususiyat va tadqiqot obyekti sifatida qaralib kelingan bo‘lib, yapon va o‘zbek xalqlarining og‘zaki ijodida maqol va matallar muhim o‘rin tutib kelayotgani va ularda hissiy va dunyoviy tuyg‘ular uyg‘unligi mavjudligini kuzatish mumkin.

Darhaqiqat, maqol va matallar xalq og‘zaki ijodiyoti va xalq amaliy tajribalariga tayangan holada yaratilgan yoki ma’lum adabiy manbalardan o‘zlashtirilgan bo‘lib, xalqning ijtimoiy amaliyotidan kelib chiqqan tajribasining umumlashmasi deyish mumkin. Bundan ko‘rinadiki, maqollar yordamida adresatni harakatga undash usulidagi xilma - xillik ushbu xalqning milliy xarakter va milliy mentlitetining o‘ziga xos xususiyatlarini va ta’lim - tarbiya borasida falsafiy teranliginidan guvohlik beradi.

§1.2. Imperativlikning nutqiy aktlar nazariyasidagi talqini

Inson kommunikativ jarayon asosida, ya’ni ovoz va matn ug‘unligi vositasida muloqot maqsadi hamda shaxsiy bayonotlar kabi ma’lumotlarni ifodalash va o‘zaro almashinish imkoniga egadir. Darhaqiqat, til turli vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan hodisadir.

Yapon tilshunosi Akira Yamamoto tor ma’noda til “ovozli belgilar tizimi” bo‘lsa, keng ma’noda verbal va noverbal hodisalarini qamrab olish xususiyatiga ega bo‘lgan xodisa ekanligi haqida fikr bildirgan edi [山本 昭、1998].

Shuningdek, tilga oid fikrlar 広辞苑 (Kojie) yapon qomusiy lug‘atida “Til - ovoz va belgilar yordamida fikr, his - tuyg‘u, niyat va hokazolarni yetkazish uchun odamlar tomonidan qo‘llaniladigan belgilar tizimi va undan foydalanish harakati”⁸, deb izohlangan bo‘lsa, 大辞泉 (Daijisen) yapon qomusiy lug‘atda insoniyatning maqsadi, niyati, fikrlari va his - tuyg‘ulari kabi ma’lumotlarni ifodalash va uzatish yoki boshqa odamlarning ma’lumotlarini ovoz yoki matn orqali qabul qilish va tushunish uchun tartib - qoidalar hamda shunday belgilar tizimidir⁹, deb bayon etilgan.

Darhaqiqat, til turfa vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan tabiiy hodisadir. Chunonchi, R. Yakobson “konativ” (conative) deb atagan vazifa ham ushbular qatorida bo‘lib, unda nutq ijrochisining buyrug‘i yoki ko‘rsatmasini amalga oshirish istagi ifoda topadi [Jacobson, 198 : 350].

Ma’lumki, buyruq mazmuniga ega bo‘lgan jumlalar ma’lum turdag'i nutqiy harakatda qo‘llaniladigan fe’l shaklidan tarkib topadi va uning qanday ohangda va maqsadda voqelanishiga oid xususiyatlari esa albatta muloqot vaziyati hamda muloqotdoshlar munosabati asosida oydinlashadi.

Bu borada rus olimi B.Yu. Gusev buyruq mazmunidagi nutqiy aktlar va boshqa turdag'i nutqiy harakatlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlamasdan turib,

⁸ 新村 出, 広辞苑 第六版 (普通版) 岩波書店 2008/01/11.

⁹ 小学館『大辞泉』編集部 編. 著者標目. 小学館 ショウガクカン (00259664)典拠. 出版事項. 東京 : 小学館. 出版年月日等. 1995.12. 出版年 (W3CDTF) . 1995. 数量. 2912p.

imperativlikning semantikasini muhokama qilish mushkul hodisaligi haqida fikr bildirgan edi [Гусев, 2005 : 33].

Suhbatdoshni harakatni bajarishga undashga yo‘naltirilgan nutqiy aktlari qatoriga, odatda, buyruq, taqiq, ruxsat kabi imperativ mazmunga ega tuzilmalar kiradi. Pragmalingvistlar bu nutqiy aktlar talqiniga turlicha nuqtai nazardan yondashadilar. Jumladan. J. Syorl va K. Allen ularni direktivlar sinfiga kiritadi¹⁰. Keyinchalik ushbu nutqiy aktlar preskriptivlar guruhiga ajratilib, ular farmoyish, buyurish, ko‘rsatma, maslahat kabi pragmatik vazifalarni voqelantiruvchi harakatlar bilan tenglashtirildi[Беляева1992 : 16].

Umuman olganda, nutqiy aktlarning o‘zaro munosabati va ularni tasniflash masalasi tilshunoslar o‘rtasida turlicha bahs – munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, nutqiy aktlarni butun majmuasini tasniflash va ta’riflash borasida turlicha yondashuvlar va ko‘plab urinishlar amalga oshirilgan.

Xususan, I. E. Belyaeva, L. A. Biryulin, E. Benvenist, A. A. Romanov, V. V. Bogdanov, I. P. Susov, G. G. Pocheppsov, E. Paducheva kabilar va yapon tilshunoslardan 小野正樹 (Masaki Ono), 石川美紀子 (Makiko Ishikawa) va 加藤正治 (Kato Seyji), 内田恵 (Megumi Uchida), o‘zbek olimlaridan Sh. Safarov, S. Muminova, X. Nuriddinov, M. Hakimov¹¹ kabilarning tilshunoslikka doir g‘oyalari

¹⁰ Searle J. Indirect Speech Acts // Syntax and Semantics. Vol. 3. - N-Y.: Academic Press, 1975. - P. 59-82. Allan, Keith (1986). Linguistic meaning. London: Routledge & Kegan Paul. ISBN 0-7102-0699-2.

¹¹ Беляева Е. И. Грамматика и pragmatika побуждение: английский язык. - Воронеж: Изд-во ВГУ, 1988. – 29 с. Бирюлин Л. А. Волютативные рамки и структура побуждения // Пропозициональные предикаты в логическом и лингвистическом аспекте. М.: 1987. – 187 с. Benveniste.E. Problems in General Linguistics (Problèmes de linguistique générale, vol. 1, 1966), translated by Mary Elizabeth Meek. Coral Gables, Florida: University of Miami. ISBN 0-87024-132-X. Романов А. А. Перформативные глаголы и иллокутивная функция высказывания // Прагматический условия функционирования языка. - Кемерово, 1987. - С. 7-11. Bogdanov V.V. Linguistic pragmatics and its applied aspects/V. V. Bogdanov//Applied linguistics. – St. Petersburg, 1996. – P. 268–275. Сусов И.П. Лингвистическая pragmatika. - Винница, 2006. - С. 138. Почепцов Г.Г. Теория коммуникации. М.: Рефл-бук, К.: Ваклер, 2001. Падучева Е. В. Высказывание и его соотнесенность с действительностью. - М.: Наука, 1985. – 89 с. Масаки Оно (小野正樹) 現代日本語の依頼表現に見られる言語形式—命令形に注目して—『第 6 回文明のクロスロード—ことば・文化・社会の様相—日本学学際シンポジウム報告書』/6/ 2009-03.- P. 53-62, Mikiko Ishikava (石川美紀子) 「命令に関する試論—語用論的条件と構文的条件との関係から—」- 2002. – 103 p. Kato Seyji (加藤正治) 否定命令文の変遷に関する試案。東京、1996. – 452 p. Uchida Megumi (内田恵), 「発話行為理論の教え方について」, 静岡大学教育学部研究報告 韶(教育学篇)第 34 号 -2003. - 66 p. Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. - Челябинск: ЧГУР, 2018. -315 с. Муминова С. Ўзбек мулокот хулқининг ижтимоий - лисоний хусусиятлари. филол.фандлари докт.дисс. - Т.: 2000. – 235 б. Ҳакимов М.

muhim ahamiyatga ega bo'lib, nutqiy aktlar nazariyasi rivojiga ulkan xissa qo'shmaqda.

Ushbu tadqiqotimizning asosiy vazifasi imperativning lisoniy maqomi va pragma - diskursiv xususiyatlarini yoritishdir. Ushbu maqsadni amalga tadbiqu etish uchun, birinchi navbatda, nutqiy aktlarning tasnifiy mezonlarini aniqlash zarur bo'ladi. Ushbu sohadagi eng nufuzli va e'tirofga sazovor bo'lgan ishlar sifatida J.Ostin , J. Syorl, J. Lich¹² va boshqalarning nutqiy aktlarni tasniflashga oid ilmiy qarashlarini e'tirof etish o'rinnlidir.

Ma'lumki, nutqiy aktlar nazariyasining asoschisi J. Ostin ilk bor nutqiy aktlarni tasniflash g'oyasini ilgari surdi¹³. Besh guruhi (verdiktivlar, ekzersitivlar, komissivlar, bexabitivlar, ekspozitivlar)dan iborat bo'lgan J. Ostin tasnifi negizida ingliz tilidagi performativ fe'llar ro'yxati yotadi va ular muloqot paytida bayon qilinayotgan fikrlarning illokutiv kuchlarini batafsil izohlaydi. Bu tasnif bir necha marta haqli ravishda tanqidga uchradi. Xususan, J. Syorl nutqiy aktlarni illokutiv fe'llar bilan aralashtirib yuborishni noto'g'ri deb hisoblaydi. Zero, nutqiy akt muloqotning voqeligidir, ma'lum bir tilning leksik tizimida mavjud bo'lgan illokutiv fe'llar esa, ushbu nutqiy aktlarning takrori emas¹⁴.

Illokutiv fe'llar ma'nosiga asoslangan nutqiy aktlar tasnifiy guruhlari J.Ostin tomonidan quyidagicha besh turga ajratilgan:

1. Verdiktivlar.

Ushbu turdagi nutqiy aktlar asosan ma'lum bir ish - harakat yuzasidan qaror qabul qilish yoki hukm chiqarish holatlarini ifodalaydi. Masalan:

「お前は変わった子だとみんな言っていたけど、付き合ってみたら普通だったからよかったです。」 (白石一文「一瞬の光」 :167 b).

Прагмалингвистик тадқиқотлар тарихи. - Фарғона: ФарДУ, 2020. – 143 б. Нуриддинов Х. Маколларнинг тарихий ва лингвомаданий жиҳатдан ўрганилиши // Молодой ученый. - 2020. - № 45 (335). - С. 373-376.

¹² Austin, J. How to do things with words. In J. O. Urmston (Ed.), - Cambridge; CUP, 1962. - 66 p. Leech G. Principles of Pragmatics. - London and New York, 1986.-88 p. Searle J. Indirect Speech Acts // Syntax and Semantics. Vol. 3. - N-Y.: Academic Press, 1975. - P. 59-82.

¹³ Austin J. L. How To Do Things With Words. -Oxford: Oxford Univ. Press., 1962; 2 nd ed., 1973.- 168p.

¹⁴ Searle J.R., Vanderveken D. Foundations of Illocutionary Logic. -Cambridge Univ. Press, 1985. - 180 p

Hamma seni g‘alati bola deb aytishardi (hisoblardi), lekin sen bilan gaplashib ko‘rib, oddiy bola eknaligingdan hursand bo‘ldim.

2. Ekzersitivlar.

Nutqiy aktlarning ushbu guruhi imperativ gaplarda o‘z ifodasini topadi. Ushbu aktlarning maslahat berish, ogohlantirish kabi mazmundagi maqol va hikmatli so‘zlar tirkibida ham voqelanishini kuzatish mumkin. Masalan:

「子供が生まれたら犬を飼いなさい¹⁵」。 *Farzandli bo‘lsang, it boq.*

Izoh: *It bola qalbini yaxshi tushunadigan jonzod bo‘lib, u o‘z o‘limi bilan farzandga hayotning qadrini o‘rgatadi.*

3. Komissivlar.

Ushbu guruhda so‘zlovchining majburiyatları voqelanadi. Masalan: 「約束する」(so‘z berish), 「誓う」(ont ichish) kabi majburiy holatlardir.

「技術協力の約束をした」。 *Texnik hamkorlik qilish uchun va‘da berishdi.*

(プログレッシブ和英中辞典第3版, 2002).

4. Bexabitivlar.

Nutqiy aktlarning bu turi, odatda, nutq ijrochisining ma'lum bir faoliyatga munosabatidir. Bunday hollarda u xursandchilik ulashish maqsadini yoki so‘zlovchi ijobiy his - tuyg‘ularini namoyon etishi mumkin. Masalan:

「まあ、そんな風に受け取られずに、気を楽にしていただけませんか。富士山頂では、落ち着いた話もできなかつたから...。」

(吉村達也「富士山殺人事件」：159）。

Endi uni shu holicha qabul qilmasdan, o‘zingizni yengil his qiling. Fuji tog‘i cho‘qqisida ham bafurja suhbatlasha olmaganimiz uchun...

5. Ekspozitivlar.

Nutqiy aktlarning so‘nggi guruhi bo‘lmish ushbu guruhda nutq ijrochisi komunikativ jarayonda o‘z fikriga izoh berishi va uni oydinlashtirishi mumkin bo‘ladi. Ko‘p holatlarda, yapon muloqot matnida ekspozitiv nutqiy tuzilmalarga

¹⁵ <https://www.pet-farewell.net>

“～かもしれません、～でしょう” kabi birikmalar ishtirokidagi nutqiy aktlarda nisbatan tushinish osonroq kechishning ehtimoli balanddir. Masalan:

「はい、あれは驚きの表情としか思えませんでした…目を大きく開いて、口も大きく開いて…そして唇が震えていましたから。」

(吉村達也「富士山殺人事件」：151).

Ha, u holatni hayratdan boshqa narsa emas deb o‘yladim...ko ‘zlarini ham katta ochib, og‘zini ham katta ochib...chunki lablari ham titrab turardi .

J.Syorlga oid talqinga izoh beradigan bo‘lsak, u ham, o‘z navbatida, nutqiy aktlarni besh guruhga taqsimlagan edi va uning J.Ostin talqinidagi nutqiy aktlar guruhidan mazmunan farqlanishi manbalarda qayd etilgan:

1. Assertivlar.

Bu berilgan ma’lumotning haqiqatga to‘g‘ri kelishini isbotlovchi nutqiy harakatlardir. Masalan:

「僕は詩をあきらめた人間である。」 *Men she’r yozishni tark etdim.*

(大江健三郎「われわれの狂気を生き延びる道を教えよ」：11).

2. Direktivlar.

Ushbu guruh buyruq, taqiq, ijozat, iltimos, saol va shu kabi suhbatdoshni ma’lum bir harakatni amalga oshirishga ishora qiluvchi imperativlikdan tashkil topadi. Masalan:

「『飛び起きてしゃんと座れ』と心で彼女に命じながら「えいつ！」と一声で気合を掛ける。」 (川端康成「掌の小説」：140).

“Tezda o‘rningdan turib, yaxshilab o‘tirib ol”, deya qalban unga buyruq berdim va “Hoy!” deya ovoz bilan dalda berdim.

3. Komissivlar.

Ushbu guruh J. Ostin tomonidan ajratilgan guruhga mos keladi.

4. Deklarativlar.

Ushbu guruhga mavjud holatning boshqa bir holat yoki vaziyatga o‘zgartirilishini voqelantiruvchi nutqiy aktlarni kiritish mumkin. Masalan:

「余計なことかもしれないが、僕はとうとう芳子を妻と呼べずにしまったと君に告げておく。」 (川端康成「掌の小説」 : 141).

Kerak bo‘lmagan narsadir, ehtimol, men nihoyat YOshikoni “ayolim” deb atamaydigan bo‘ldim, deb senga ma’lum qilib qo‘ymoqchiman.

5. Ekspressivlar.

Nomidan ma’lumki, ushbu guruhgaga kiruvchi birliklar inson ko‘ngliga keluvchi o‘y - hayol va his - tuyg‘ularni izhor qiluvchi yoki ifodalovchi nutqiy aktlardir. Masalan:

「人々がその写真の前に涙を流したり、合掌したり、焼香したりしているのを見ると、さすが僕は滑稽だった。」 (川端康成「掌の小説」 : 143).

Rasm oldida yig‘layotgan, ikki kaftlarini qovushtirib, tutatqi tutatayotgan odamlarni ko‘rish, men uchun kulgili tuyulardi.

J. Lich esa bir oz o‘zgacha yondoshuv, ya’ni sotsiolingvistik ko‘rsatkichlar asosida nutqiy aktlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq [Leech, 1983 : 250], degan g‘oyani ilgari surgan holda, ularni dialogik muloqot vaqtida xushmuomalalik va muloqot odob - ahloq muhitini o‘rnatishi va ushbu holatni yo‘lga qo‘yish maqsadi bilan o‘zaro qanday aloqador ekanligiga tayanib guruhlaydi:

1. Kompititiv.

Bu guruhda illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga munosib bo‘lmaydi.

Jumladan, imperativ mazmunidagi gaplar hamda iltimos va savol kabi nutqiy harakatlarni aytish mumkin. Masalan:

「私が東京へ行ったら会えるわね。学校の寮へ来てくださいね。」

(川端康成「掌の小説」 : 197).

Men Tokioga borsam seni uchrata olaman, shundaymi? Maktabning talabalar turarjoyiga kel.

2. Konvivial (illokutiv va ijtimoiy maqsad bir - biriga muvofiqdir).

Bunda so‘zlovchining ijobiy yoki salbiy ma’nodagi dil izhorlari namoyon qilinadi. Bular qatoriga tabrik, hamdardlik, olqishlash kabi nutqiy harakatlarni kiritish mumkin. Masalan:

- 「東京で会いましょうね！」
- *Tokioda uchrashamiz-a?*
- 「ええ」
- *Ha*
- 「さようなら！」
- ***Yaxshi qol, xayr***
- 「さようなら！」
- *Xayr.* (川端康成「掌の小説」：197).

3. Kollaborativlar.

Illokativ maqsad ijtimoiy maqsadga befarqdir. Masalan, biror bir holat yuzasidan xabar beriladi yoki e'lon qilinadi va shu kabi nutqiy harakatlar yuzaga keladi. Masalan:

「私はまた起き上がって外を覗いた。右手の丘に火と煙が昇っていた。」

(川端康成「掌の小説」：217).

Uyg'ondim-u yana tashqariga mo'r aladim. O'ng tarafagini tepalikdan olov va tutun ko'tarilayotgan edi.

4. Konfliktiv.

Ushbu guruhda illokutiv va ijtimoiy maqsadlar o'zaro konfliktli, ya'ni qarama-qarshi holatda voqelanishi kuzatiladi. Masalan: bular qatoriga qo'rqtish, la'natlash va shu kabi salbiy ma'nodagi nutqiy harakatlarni kiritish mumkin. Masalan: 「彼は子供たちを脅して庭から追い払った。」

[プログレッシブ和英中辞典 3 版, 2002].

U bolalarni qo'rqtib, hovlidan quvib soldi.

Ravshanki, intensiya izhorini aniqlashtiruvchi qo'shimcha mezonlarni kiritgan B. Fraser har bir turni batafsilroq tavsiflashga harakat qiladi. Ammo tasniflashning asosiy mezoni hamon aslicha qolmoqda va bu nutqiy faollik maqsadini ifodalovchi vosita - performativ fe'lmdir [Fraser, 198 : 29].

Umuman olganda, nutqiy akt ko'pqirrali va keng ko'lamdagi murakkab, hodisa bo'lib, uni faqat illokutiv tuzilishi asosida tavsiflash turli cheklovlarga

uchraydi. Zero, bunday yondashuvda o‘ziga xos semiotik tizim bo‘lgan til tabiatini to‘liq aks ettiruvchi umumlashma xulosalarni chiqarish ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu guruhlash tamoyiliga binoan sodda va qo‘shma yoki murakkab nutqiy aktlar farqlanadi. Bunda sodda nutqiy aktni nutqiy faoliyatning eng kichik birligi deb qarasak, murakkab nutqiy akt esa sodda harakatlarning birikishi zamirida voqelanadi, deb hisoblash lozim [Карабан, 1989 : 39].

Yuqoridagi tahlilga ko‘ra, J. Ostin nazariyasida imperativlik ekzersitivlar guruhiga kiritilgan bo‘lsa, J. Syorl talqini bo‘yicha buyruq, taqiq, ijozat, iltimos va shu kabi suhbatdoshni ma’lum bir harakatni amalga oshirishga ishora qiluvchi imperativ gaplar direktiv nutqiy aktlar guruhidan joy olgan. J. Lich ta’rificha, imperativ mazmunidagi gaplar hamda iltimos va savol kabi nutqiy harakatlar kompitiiv guruhi sirasiga mansubdir. Bu guruhda illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga munosib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, Syorl buyruq va savol mazmunidagi nutqiy aktlarni bir guruh, ya’ni direktivlar guruhiga jmlagan bo‘lib, har ikkala holat ham suhbatdoshdan ma’lum bir harakat munosabatini talab qiladi. Darhaqiqat, imperativlik ish - harakatni bajarishga da’vat etsa, savol esa o‘z suhbatdoshdan javob berishni talab qiladi [Гусев, 2005 : 33].

J. Lich tasnificha, kompitiiv guruhda illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga munosib bo‘lmaydi va imperativ mazmunidagi gaplar hamda iltimos va savol kabi nutqiy harakatlar aynan shu guruhdan o‘rin oladi.

Har ikkala tasnif ham tahsinga loyiqidir, ammo harakat ijrosini amalga oshirilishi talab qiladigan nutqiy aktlar, xoh u buyruq bo‘lsin, xoh savol har qanday holatda ham nutq intentsiyasi harakat ijrosini ta’minalashga ishora qilgani bois, ushbu turdagji jumlalarni direktiv nutqiy aktlar sirasiga kiritish tarafidormiz.

Biroq buyruq va savol mazmunidagi gaplarni bir guruh deb tasniflash fikri, tabiiyki, turli tanqidlarga uchraydi. Xususan, A. Vejbitskaya ularning ajralishi tarafdori ekanligini ma’lum qilgan edi [Вежбицка, 1986 : 95, 100]. Imperativ gaplar so‘zlovchi, tinglovchi va uchinchi shaxslararo munosabatni so‘roq, darak va boshqa turdagji gaplarga qaraganda butunlay boshqacha tarzda belgilaydi va ko‘p

hollarda ish - harakatning bajaruvchisi adresatga to‘g‘ri kelganligi sababli, ikkinchi shaxs buyrug‘idagi subekt olmoshi odatda olib tashlanadi [Добрушина, 2008 : 150].

Darhaqiqat, imperativ nutq muloqotdoshga kuchli ta’sir o‘tkazishligi bilan ham xususiyatlidir. Jumladan, buyruq berish, tahdid solish, agressivlik va birovaga azob berib rohatlanish kabi hissiy tuyg‘ularni aytish mumkin. Har qanday muloqot natijasida suhbatdoshga murojaat qilib, uning hissiy holatiga ta’sir qilish, uni mamnun qilish, xushomad qilish yoki aksincha kamsitish, g‘azablantirish kabi maqsadlar turadi. Ushbu nurdagি his - tuyg‘ularni ko‘rsata olish genetik jihatdan insonga xosdir. Inson suhbatdosh ruhiyatiga ta’sir o‘tkazuvchi buyruqomuz omillar asosida muloqotga kirishar ekan, bu borada o‘ta ehtiyyotkorlik va xudhmuomalalik etiketiga amal qilish talab etiladi.

Xususa, yapon muloqot matnida nutq ijrochisi suhbatdoshni ma’lum bir harakat ijrosini bajarishga undash jarayonida, birinchi navbatda, 「相手の気持ち
に傷つかない」 (Suhbatdoshning ruhiyatiga salbiy ta’sir o‘tkazmaslik) degan iboraga imkon qadar amal qilishga intiladi. Demakkim, noo‘rin jumlalar va haqoratomuz iboralarni qo‘llash, fikrni tushunarsiz bayon qilish kabi holatlardan chetlanish shaxslararo munosabatning samaradorligini ta’minlovchi omillardandir.

Ushbu holatlar, asosan, imperativlik bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, ushbu sohaning nozikligidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda P. Graysning “hamkorlik tamoyili” nazariyasiga to‘xtlishni joiz topdik. Ma’limki, ushbu nazariya nutq ijrosining asosiy qoidasi hisoblanadi. Uning ta’kidicha, kommunikatsion jarayon bu nutq ijrochisi va uning tinglovchisi hamkorlikda amalga oshiradaigan jarayon bo‘lib, har ikkala ishtirokchi amal qilishi talab qilinadiga to‘rtta tamoyil mavjud [Grice, 1975].

O‘z navbatida, ushbu nazariya yapon tilshunosi 内田恵 (Megumi Uchida) tomonidan quyidagicha izohlanadi [内田恵, 2003 : 66].

a.量 (quantity)の公理 : 言いたいことを過不足なく話しなさい。

b.質 (quality)の公理 : 内容について自信のあることを話しなさい。

c. 関係 (relttions) の公理 : 状況に即して要点を話しなさい。

d. 方法 (maner) の公理 : 明確に話し、あいまいな言い方は避けなさい。

Izoh:

a) muloqot uchun kerakli miqdordagi ma'lumot talab etiladi. Uning kam yoki ko'p miqdorda bo'lishi ba'zida qiyin vaziyatlarni keltirib chiqaradi;

b) yolg'on deb o'yagan ma'lumot haqida gapirmaslik va suhbatdoshning ishonchini so'ndirmaslik;

c) suhbatga dahlsiz bo'lgan narsalar haqida gapirish chalkashliklarga sabab bo'ladi;

d) noaniq muloqotdan saqlanish va suhbatdoshga ehtirom bilan muomalada bo'lish .

Ushbu qoidaga har qanday vaziyatda ham amal qilish odatiy emas, albatta, lekin ushbu tamoyil yapon muloqot matnida muhimdir. Ma'lumki, yapon tili fonetikasida nutq ravonligi va tiniqligi e'tibortalab jihatlardan hisoblanadi. Chunki birgina zarraning qisqa yoki cho'ziq, qattiq yoki yumshoq talaffuz qilinishi, shuningdek, ohangning qo'pol yoki nafis ijro etilishi nutq ishtirokchilari o'rtaсидаги munosabatni belgilab berish xususiyatiga ega. Xusan, ushbu xususiyatlar imperativlik masalalari bilan ham uzviy bog'liqdir.

Fikrimizcha, bu turdagi nutqiy aktlar ishtirokidagi muloqot natijasiga erishishning ikki turi mavjud. Biri "majburlash" bo'lsa, ikkinchisi "ishonch va anglash"dir. Ma'lumki, "majburlash" orqali kimningdir xohish - istagiga qarshi bo'rgan holda, uning imkoniyatidan foydalanish va harakat ijrosini amalga oshirishga da'vat etuvchi salbiy xususiyatdir. Aksincha, "ishonch va anglash" turi esa muloqotdoshning iroda erkinligiga ta'sir o'tkazishning mazmunli, oqilona va ijobjiy ko'rinishi bo'lib, bunda intellektual jihatdan ijobjiy ta'sir qilish orqali talab qilingan harakatning bajarilishi zarur degan xulosaga kelinadi va tabiiy ravishda undalayotgan harakat voqe bo'ladishiga imkon tug'iladi.

Bunday ehtiyotkorlik va nazokatlilik bilan imperativlikka murojaat qilish holatlari, odatda, jamiyatda shaxslararo munosabat va ularning ijtimoiy maqeyi asosida belgilanadi. Bunday holatda imperativning inkor, ya'ni taqiq yoki

proxibitiv formasi ham o‘z pragmasemantik xususiyatlari bilan farq qilishi ko‘zga tashlanadi. Tadqiqotchilar proxibitiv “so‘zlovchining uning buyurayotganini tinglovchi uchun harakatga kirishishga sabab bo‘lishi borasidagi istagini namoyon qilishi”ni ko‘p bora ta’kidlashgan [Bach, 1979].

Ispan tilshunosi X. Xaverkate proxibitiv nutqiy aktini ma’lum bir voqe yuzaga kelishi, harakat bajarilishidan saqlab qolishga yo‘naltirilgan [Haverkate, 1979], deb hisoblaydi. Olim tomonidan proxibitiv tuzilmalarning turli guruhlarga ajratilishi e’tiborni jalb qiladi. Struktur jihatdan inkor buyruq gaplar taqiqqa qo‘srimcha ravishda boshqa ma’no ottenkalariga ham ega bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida quyidagi gaplarni qiyoslab ko‘ramiz: 「大丈夫よ、敏子ちゃんの家は、皆さんたいへん信心深い人たちだから、きっと神様がお守りくださったわよ。心配しないで早く学校に行きなさいね。」

(高木敏子「ガラスのうさぎ」:36) .

Hammasi joyida, Toshiko sening oilangda hamma itoatli odamlar bo‘lgani uchun, Tangri asradi. Xavotir olma va mакtabga ketaver.

「お兄ちゃん、これ、お母さんから預かってきたお守りよ。絶対に死んじやだめだって。どんなことがあっても、きっと、きっと、生きて帰っておいでって。」

(高木敏子「ガラスのうさぎ」:27) .

Aka, mana bu oyim berib yuborgan tumor. Aslo halok bo‘lmasin dedilar, nima bo‘lganida ham, albatta, albatta , tirik holda qaytar ekansiz.

Ushbu gaplar, eng avvalo, propozitsiya ifodasi bilan farqlanadi: birinchisida sodir bo‘lib turgan harakatni, ya’ni “xavotir qilish”ni to‘xtatish nazarada tutilayotgan bo‘lsa, ikkinchisida ham bajarilayotgan harakat haqida so‘z ketib, tinglovchi ogohlantirilmoqda. X. Xaverkate “to‘xtatish” va “ogohlantirish” nomlarini berayotgan ushbu nutqiy aktlarining propozitsiya asosi mantiqiy farqlanishi transformatsiya amali tatbiqida ham o‘z isbotini topadi.

Ba’zi paytlarda inkor shakldagi imperativ tuzilmalarni taqiqdan tashqari inkor gap sifatida talqin qilish holatlari uchraydi. Sirdan qaraganda bu to‘g‘ridek ko‘rinadi ham. Ma’lumki, grammatikaga oid barcha qo‘llanmalarda inkor

tuzilmalari tasdiq gaplarining semantik - sintaktik derivati yoki hosilasi deb hisoblanadi. Bunday holat yapon tilida 「～ます」 (～ました) (-moq)" 建てます(qurmoq) tasdiq gapi → 「～ません」 (～ませんでした) (-maslik) 建てません(qurmaslik) tarzida voqelanadi . Masalan:

「彼は夏に家を建てました」 *U uyni yozda qurib bitkazdi.* → 「彼は夏に家を建てませんでした」 *U uyni yozda qurmadi.*

Bunday gaplar tarkibidagi inkor operatori “～ました” yoki “～ませんでした” qo'shimchasi semantik jihatdan butun gap mazmunini qamrab oladi. Proxibilitiv tuzilmalarda esa holat boshqacharoq, ya'ni buyruq mazmuniga ega bo'lgan istak-xohish mayli inkor operatori ta'sir doirasidan chetda qoladi [Храковский, 1990].

Maqollar misolida tahlil qiladigan bo'lsak, o'zbek tilida odatda imperativlikning inkor qiyofasini hosil qiluvchi grammatik unsurlar og'zaki matndagiga nisbatan o'zgacha tus oladi va ular 「ず」 (zu), 「すな」 (suna), 「するな」 (suruna), 「～なかれ」 (nakare) hamda 「ぬ」 (nu) kabi yapon tiliga xos bo'lgan bo'lishsizlik shaklidagi imperativlikni hosil qiluvchi grammatik qurilmalar ishtirokida ifodalanishi kuzatiladi. Masalan:

Yapon tilida:

1. 己に如かざる者を友とするなかれ。 <https://proverb-encyclopedia.com>

(Onore ni shikazaru mono o tomo to surunakare).

O'zingga o'xshamaydiganlar bilan do'stlashma.

Izoh: O'zingni yaxshilash uchun, o'zingdan past bo'lganlar bilan do'stlashmaslik kerakligiga ishora.

2. 虱蜂取らず。 (Abuhachitorazu). (暮らしの中のことわざ辞典, 33).

Chivinni ham arini ham quvlama.

Izoh: Ikki narsani ketidan quvma, ikkalasidan ham quriq qolasan.

3. 葦酒山門に入るを許さず。 (Kunshu sanmon ni iru wo yurusazu)

(暮らしの中のことわざ辞典, 165).

*Sarimsoq va sharobni sarimsoq va sharobni ma'bad (ibodatxona)
darvozasidan olib kirma.*

Izoh: Badbo'y va harom qilingan narsalar shuningdek inson aqlini buzadigan narsalar pokiza joylarni ham vayron qilishiga ishora.

O'zbek tilida:

1. *Yondashmagin yomonga, ranging o'xshar somonga.*
2. *Ikki quyonni quvgan birini ham tutolmas.*
3. *Ko 'pni yomonlagan, ko 'muvsiz qolar.*

(O'zbek xalq maqollar, 429, 291, 18)

Ko'rinaridiku, yapon tilida tahlilga tortilgan maqollar struktur jihatdan imperativlikning inkor shakli, boshqacha qilib aytganda, proxibitivlik asosida voqelanishi va ularning o'zbek tilidagi muqobil variantining mavjudligi har ikkala tilda maqol va matallarning situatsion qo'llanish vazifalari va shakllarining uyg'unligi to'g'risida aniqroq tasavvurga ega bo'lish uchun imkon yaratadi.

Umuman olganda, xoh u tasdiq imperativlik ko'rinishiga ega bo'lsin, xoh inkor, har ikkala holatda ham nutq intentsiyasi suhbatdosh ongiga ta'sir o'tkazish va ma'lum miqdorda reaktsiya uyg'otishga turki berishga qaratilgandir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 「す」 (zu), 「すな」 (suna) , 「するな」 (suruna) , 「～なかれ」 (nakare) hamda 「ぬ」 (nu) kabi yapon tiliga xos bo'lgan bo'lishsiz imperativlik va o'zbek tilida fe'lning “- ma” (qilma, bajarma) kabi bo'lishsizlik shakli, “emas”, “na” kabi yordamchi so'zlar hosil qiluvchi grammatik qurilmalarning eksplitsit tarzda voqelanishi semantik jihatdan 命令形 (meirekei), ya'ni buyruq shakliga to'g'ri kelib, odatda jamoalarda qo'pollashgan munosabatda kechadigan muloqot yoki munozara jarayonida, shuningdek, ijtimoiy jihatdan yuqori qatlamdan quyiga qarata yo'naltirilgan murojaat jarayonida amalda bo'lishi ko'p kuzatiladi. Bunday ijtimoiy holatlar bilan bog'liq jarayonlarda, ko'p hollarda, nutq intentsiyasi so'zlovchi manfaati uchun xizmat qiladi. Vaholangki, muloqot etiketi nuqtaiy nazaridan kundalik muloqot jarayonida oshkora imperativlik o'rnida yashirin, ya'ni imperativlikning implitsit tusida qiyofalanishi tavsiya etiladi

(imperativlikning implitsit va eksplitsit voqelanishiga oid masalalar haqida monografiyaning ikkinchi bobida batafsil to‘xtalamiz).

Shuningdek, ijtimoiy munosabatlar oila a’zolari diskursiv faoliyatida ham o‘z aksini topadi. Oila a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy tabaqalanish odatda quyidagi ierarxik tuzilishga ega bo‘lishini kuzatish mumkin: opa – singil, aka - uka, er – xotin va hokazolar. Oila buyruq gaplarning har qanday ko‘rinishini erkin va xotrjam qo‘lash mumkin bo‘lga xavfsiz makondir. Oiladoshlar va qarindoshlarning o‘zaro diskursiv faoliyatidagi norasmiylik va shaxslararo yaqinlik ortiqcha ehtirom va nazokatlikni talab etmaydi.

Chunonchi, paremiyalarda buyruqning har qanday ko‘rinishi jo‘yali deb tasvvur qilinadi va u adresat kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi yoki uning ongida so‘zlovchiga nisbatan ijobiy bo‘lmagan tushunchalarning paydo bo‘lishiga vaj bo‘la olmaydi. Chunki, paremiyalar adresat manfaati uchun amalda qo‘llaniladi va uni hidoyat topishiga zamin yaratuvchi omil sifatida qabul qilinadi.

Umuman olganda, o‘rganilayotgan lisony va nutqiy muammolar orasida shahslararo muloqot va madaniatlararo muloqot nihoyada muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, inson nutqiy odobini boshqarib turuvchi omillardan biri bo‘lgan “etiket” bilan belgilangan vositalar har qanday madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida qiymatlidir.

Yapon lingvomadaniyatida muloqot etiketi qadim o‘tmishdan mukammal sayqallangan bo‘lib, ushbu qoidaga bugungi kunga qadar dialogik nutq jarayonida to‘kis amal qilinib kelinmoqda. Ayniqsa, imperativ mazmunga ega bo‘lgan nutqiy aktlar ijrosida so‘zlovchining hurmat - ehtiromi va kamtarlik kategoriyalardan mohirona va joyali foydalana bilishi asosida nutq va undan ko‘zlangan maqsad samaradorligi to‘liq ta’minlanadi.

§1. 3. Maqol va matallarda imperativlikning pragma - diskursiv talqini

Monografiyamizning ushbu bobida paremiyalarda harakatga undash xususiyatiga ega bo‘lgan nutqiy aktlarning pragmatik hamda diskurssiv

xususiyatlari va ularning muloqot diskursida voqelanishiga oid ayrim masalalar haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Avvalom bor, “pragmatika” hamda “diskurs” tushunchalariga oydinnlik kiritib, ularning etimologiyasi, o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, g‘arb va sharq olimlarining ushbu sohalarni tadqiq etish borasidagi ilmiy yondoshuvlari hamda xulosalar haqida to‘xtalishni ma’qul topdik.

Tilshunoslik sohasida “pragmatika” atamasi yunoncha “pragma”, “pragmatos” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ish-harakat” degan mazmunda ta’riflanadi. Ushbu soha semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o‘rganuvchi sohasi, deb ta’riflanadi. Boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirib, undan foydalanuvchi sub’yeqtarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘idir. Ushbu atama haqidagi asosiy g‘oya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o‘rtaga tashlangan bo‘lsa, yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu g‘oyani rivojlantirgan va pragmatika terminini semiotika bo‘limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritganligi ma’lum.

O‘zbek tilshunosi Sh. Safarov talqinida esa pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, unda muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o‘rganilishi nazarda tutiladi [Сафаров, 2008 : 71].

Shu o‘rinda, “diskurs” atamasiga izoh kiritadigan bo‘lsak, u tilshunoslikning nitq bilan dahldor bo‘lgan bo‘limini o‘rganadigan soha bo‘lib, bugungi kunda diskursiv tahlil tilshunoslikning markaziy bo‘limlaridan biriga aylanib ulgirdi.

Tadqiqtchilar tomonidan “diskurs” atamasiga oid izohlar turlicha ta’riflanib kelinmoqda. Xususan, ushbu atama frantsuz tilida “discours”, ingliz tilida “discourse” hamda lotin tilida esa “discursus”, sozlari bilan bog‘liq bo‘lib, nutq va til jarayoni hamda uning faoliyati bilan dahldor bo‘lgan holatlarni ifodalaydi. Shuningdek, boshqa ilmiy manbalarda og‘zaki nitq tushunilsa, yana boshqasida esa yozma nutqqa ishora qilinadi.

Umuman olganda, “diskurs” atamasiga izohlar turlicha bo‘lib, bugungi kun tilshunosligi ushbu atama “matn” yoki “nutq” tushunchalari bilan hamohangligini ko‘rsatadi. E. S. Kubryakova diskursni nutq faoliyatining kognitiv jarayoni [Кубрякова, 1991 : 78], deb hisoblasa, N. D. Arutyunovaning fikricha, diskur bu nutq [Арутюнова, 1990 : 131], deb baholanadi.

Yapo tilshunosi 西原 鈴子(Suzuko Nishihara)ning ilmiy asarlarida ham diskurs tushunchasiga oid izohlar qayd etilgan va unga ko‘ra, “diskurs” - bu til muloqot qilish uchun foydalanylгanda yaratadigan kontekstual guruh bo‘lib, ushbu atama 「談話」(danwa) yoki 「ディスコース」(disukousu), ba’zi hollarda esa 「テキスト」(tekisuto)¹⁶, deb ham ataladi.

“Muloqot” so‘zlashuv nutqi va yozma nutqni o‘z ichiga oladi. “Diskurs” o‘zining tarkibiy elementlari bo‘lmish “gap”dan vazifasi, tuzilishi va faoliyatiga ko‘ra farq qiladi.

Xullas, yuqorida qayd etilgan fikrlarning barchasi “diskurs” tushunchasining keng qamrovli va aniq bir yechimga ega bo‘lmagan hodisa ekanligiga ishoradir.

Sh. Safarov diskurs tushunchasini matnga nisbatan keng qamrovda talqin qilish tarofdori va ushbu tushunchalarni, o‘z navbatida “giperonim” va “giponim” munosabatlarida aniqlash mumkin ekanligini bildiradi Olimning fikricha, diskurs inson ongli faoliyatining aniq bir turi bo‘lsa, matn esa uning bir ko‘rinishidir [Сафаров, 2008].

Xullas, Vorontsova ta’biri bilan aytganda, kommunikativ - pragmatik yondashuv tilni o‘rganishning bir yo‘nalishi sifatida til va inson o‘rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirishga asoslangan bo‘lib, inson faoliyatidagi til birliklarining xususiyatlarini ochib beradi.

Ma’lumki muloqot jarayoni ikki tomon, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchidan iborat bo‘lib, muloqot samaradorligini ta’minlashdagi asosiy omil sifatida har ikkala tomonning ijtimoiy mavqeyi asosiy qiymatga egadir.

¹⁶https://www.jpf.go.jp/j/project/japanese/teach/tsushin/bn/dw_pdfs/tushin29_p14-15.pdf

Tilshunoslikda muloqot matnida ishtirok etuvchi gaplarni diskursiv tahlil qilish usuli ilmiy soha sifatida yarim asrdan ko‘proq vaqt davomida shakllangan bo‘lib, bunda sosiy e’tibor jamiyatdagi til va inson munosabatlariga qaratiladi.

Diskursiv tahlil jarayonida suhbatda oldingi va keyingi nutq o‘rtasidagi bog‘liqliklar, ijro etilgan nutq intentsiyasining yo‘nalishi kabi jihatlarga oydinlik kiritish mumkin. Yu. D. Apresyanning fikricha, har bir til birligi ortida so‘zlovchining voqelikka munosabati, xabar mazmuniga va muloqotdoshga bo‘lgan munosabati yotadi [Apresyan, 1995].

Diskursiv tahlil, yuqorida qayd etganimizdek, bugungi kunda keng amalda bo‘lgan tahlil turlaridan hisoblanadi. Ushbu tahlil ravnaqiga Sh.Safarov, 赤川 学 (Manabu Akagava), Nitta Yoshio (仁田義雄), M. L. Makarov, B. N. Boboyan, V. A. Plungyan, A. A. Kibrik¹⁷ kabi bir qator tilshunos olimlar hissa qo‘shdib kelmoqdalar. Darhaqiqat, ushbu sohaga oid ilmiy yondoshuvlar va qarashlar Ostin va Searl asos solgan nutqiy aktlar nazariyasiga ham aylanib ulgirgan. Nutqiy akt diskursiv tadqiqotlarda nutq faoliyatining eng kichik birligi, lingvistik pragmatikaning eng muhim komponenti sifatida qaraladi [Кубрякова, 2000 : 20].

O‘tgan asrning birinchi yarmida til tizimini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va nutqni shakllantirishga qaratilgan e’tibor keskin avj olib borgan bo‘lsa-da, nutqiy faoliyat ushbu davr tadqiqotchilar uchun ahamiyatli obektga aylanmaganligi manbalarda qayd etilgan [Shcherba, 1974] va keyinchalik tilga so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bilan bog‘liq faoliyat sifatida qarala boshladi.

Shu o‘rinda, maqollarda ifodalanadigan nutqiy harakatning xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, oldingi bo‘limlarda qayd etilganidek, paremiyalarda nutq

¹⁷ Сафаров Ш. С. Дискурсивно - pragmaticеский природе директивных речевых актов // Текст:структура и анализ. - М.: 1989. - С. 34 - 41. Manabu Akagava (赤川 学), 言説分析とその可能性. 理論と方法 (Sociological Theory and Methods) 2001, Vol.16, No.1:89-102. 2001. – 89 p. Nitta Yoshino (仁田義雄). 「日本語のモダリティと人称」 くろしお出版、1991. – 275 p. Макаров, М. Л. Основы теории дискурса. - М. : ИТДГК «Гнозис», 2003. - 210 с. Бабаян, В. Н. Дискурсивное пространство терциарной речи. Психолингвистические особенности диалогической речи в присутствии молчащего третьего лица: LAP LAMBERT Academic Publishing, Germany, 2011. - 85 p. Kibrik, A. A. & Plungyan, V. A. Functionalism and discursive research. In Fundamental directions of modern American linguistics. – MSU, 1997. - 307 p.

illokutsiyasi umumlashtirilgan va ularni oddiy jumlalardan ajratib turadigan, predikativ komponentlarning flektiv kategoriyalari ishtirokida nutq vaziyatini kontekstga moslashtira oladigan tabiatga egadir.

Ilmiy manbalarga ko‘ra, nutqda ifoda topadigan maqollar tinglovchi diqqatini qamrab oladigan, muloqotni yanada jonli va ishonarli holatga keltiruvchi majoziy ko‘rsatma vazifasini bajarish xususiyatiga ega [Vvedenskaya, 2002]. Shuningdek, nutqimizda maqollarning jonli ravishda voqelanishi, ularning aksiomatik tabiatiga ko‘ra, argument vazifasini ham bajarishi mumkin. Shu asnoda nutq ijrochisi muloqotdoshga ishonch bag‘ishlashi yoki ayrim kelishmovchiliklar va nizolarga chek qo‘yishi ham mumkin.

Darhaqiqat, maqollar kommunikativ jarayonda shaxs tomonidan o‘ylab topilgan ko‘rsatmalar yoki uning shaxsiy fikrlari jamlanmasi asosida yuza kelmaydi, aksinch, ular umume’tirof etilgan ishhonchli qoida va asosli manba sifatida qabul qilinadi. Shu jihatdan, nutqqa nisbatan so‘zlovchi mas’uliyatini yengillashtirish va uni javobgarlikdan ozoda etish xususiyatiga ko‘ra maqollar muloqot ishtirokchilari o‘rtasida kutilmagan kelishmovchiliklar va nizolarga chek qo‘yish xusuiyati bilan ham xarakterlanishi mumkin. Bu borada O. B. Abakumova muloqot diskursida voqelanuvchi maqollar vazifasiga ko‘ra uch turga bo‘linishi haqida fikr bildirib, ular: 1) voqeа yoki vaziyatlardan xabar berish; 2) obekt xususiyatlarini tavsiflash; 3) obektlar o‘rtasidagi munosabatlarning tavsifi [Абакумова, 2008] dan iborat, deb hisoblaydi.

Quyidagi maqollar ishtirokidagi diskursiv tahlil qilish orqali ularning vazifalariga oydinlik kiritamiz:

Yapon tilida:

今は大変だけど、止まない雨はないから、いつかは良い日が来るさ

¹⁸ °

(Ima wa taihendakedo, yamanaiame wanaikara, itsuka wa yoi higa kurusa.)

Hozircha qiyin, lekin to ‘xtamaydigan yomg‘ir yo‘q deyishadi, qachondir yorug‘ kunlar keladi.

O‘zbek tilida:

Odam so ‘zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, Ziyodulla chavandoz!
Shunday-shunday topishadi-da! (T. Murod “Ot kishnagan oqshom” : 19b).

Ushbu jumlalarda har ikkala tilda ham so‘zlovchi adresatni ma’lum bir harakatni amalga oshirishga undashi va undan oldin esa uni bu holatga ishontirishga bo‘lgan harakati ko‘rinib turibdi.

Maqollar xalq falsafasi va zakovati asosida shakllangan majoziy iboralar to‘plami bo‘lib, odatda, ulardan anglashiladigan ma’no yoki ularning xususiyatlari haqida suhbatdoshlar o‘rtasida bahslashish holatlari kuzatilmaydi. Shu bois, maqollardan aniq fakt sifatida muloqot diskursida foydalanish samarali va keng tarqalgan holatlardan hisoblanadi. Shu nuqtaiy nazardan, maqollar nutq vaziyatiga bog‘liq holda, o‘zaro nizolar, suhbatdoshga e’tiroz bildirish va o‘z mavqeyini himoya qilish kabi nutq ijrochisining muayyan maqsadlariga botinan erishish vositasi sifatida ham amalda qo‘llanilishini kuzatish mumkin.

Yapon tilida:

石橋を叩いて渡るような人だから、これまで大きなミスをしたことがない。
(Ishibashi o tataite wataru youna hitodakara, kore made ookina misu o shita koto ga nai). (<https://study-z.net/100059576/2>).

U tosh ko ‘priki ham urib ko ‘rib o‘tadigan odam, shuning uchun hech qachon katta xato qilmagan.

O‘zbek tilida:

Oti beqiliqlar yerga tushib, yetaklab o‘tdi. Birodarlar, otga minsang - boshingni o‘yla, yerga tushsang - otingni o‘yla.

(T. Murod “Ot kishnagan oqshom”:18).

Takror ta’kidlaganimizdek, maqollar donolikni ifodalovchi xalq tajribasi asosida o‘z isbotini topadi va shuning uchun ham ularga nutqdagi eng ishonchli dalil vositasi sifatida tayaniladi. Umuman olganda, paremiyalar jamiyatdagi asosiy va bosh qadriyatlarni, insoniy xatti-harakatlarining umume’tirof etilgan

me'yorlarini o'zida jamlagan. Kundalik muloqotni xalqona umumiy fikrlarga tayangan holda ijro etishimiz, suhbatdoshga va muloqot muhitiga ma'lum miqdorda ruhan ijobiy ta'sir o'tkazish va muloqot vaziyatini bir muncha silliqlashtirishga sabab bo'ladi.

Maqollar nafaqat kundalik odatiy muloqot muhitida, balki keng auditoriyada ommaviy tinglovchilarga qarata ijro etilgan muloqot diskursida ham keng kuzatiladi. Masalan, yig'ilishlar, mitinglar, seminar va anjumanlar, shuningdek mashhur allomalarining badiiy, diniy va siyosiy ma'ruzalarida ham nitq bezagi sifatida paremiyalarga murojaat qilish holatlari kuzatiladi. Masalan, yaponiya bosh vaziri Fumio Kishidaning Vakillar palatasining yalpi majlisida so'zlagan siyosiy nutqida quyidagicha maqolga murojaat qilingan:

「『早く行きたければ 1 人で進め。遠くまで行きたければ、皆で進め』と
いうことわざを引用し、『仲間となればもっと遠く、はるかに遠くまで行
くことができます』『私は、日本人の底力を信じています』と語った。」
(衆院本会議で所信表明演説をする岸田文雄首相=2021 年 10 月 8 日、国会
内)¹⁹;

(“Tez ketmoqchi bo ‘lsang, yolg‘iz harakat qil, uzoqqa bormoqchi bo ‘lsang, jamoa bilan harakt qil” degan maqolni keltirib, men kompaniyaning zamirida yotgan kuchga ishonaman”, dedi u²⁰);

Shuningdek, Amerikaning 35-prezidenti Jon Kennedining 1963 yil 7 fevraldag'i “11-Presidential Prayer Breakfast”da so'zlagan nutqida ham paremiyaga murojaat qilinganini ko'rish mumkin:

“Do not pray for easy lives. Pray to be stronger men!

Do not pray for tasks equal to your powers. Pray for powers equal to your tasks”. (Yengil hayot uchun ibodat qilma. Kuchli erkak bo‘lish uchun ibodatda

¹⁹ https://www.huffingtonpost.jp/entry/story_jp_615ff3f5e4b06a986bcde766.

²⁰ Bosh vazir Fumio Kishida 2021 yil 8 oktyabrd'a Vakillar palatasining yalpi majlisida so'zlagan nutqi, https://www.huffingtonpost.jp/entry/story_jp_615ff3f5e4b06a986bcde766.

bo'l! Kuchingga yarasha vazifa uchun ibodat qilma. Vazifaga loyiq kuch uchun ibodat qil²¹).

Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan marosimdagি nutqidan quyidagi parchani keltirish mumkin:

1. “Xalq boy bo 'lsa, davlat ham boy bo 'ladi”²².
2. “Imkoniyatdan samarali foydalanish uchun yerni haqiqiy dehqonga, fermer bo'laman, deb ko 'zi yonib turgan mirishkorlarga berish kerak. Dehqon boy bo 'lsa, davlat boy bo 'ladi, dedi Prezidentimiz”²³.

Ma'lumki, keng jamoa yoki yirik auditoriya vakillarini yoppasiga ma'lum bir harakatni bajarishga undash yoki ko'rsatma berish jarayonida muloqot etiketi va so'zlar hamda iboralar tanlovidagi mahorat muhim hisoblanadi. Shu nuqtaiy nazardan, ko'p hollarda bu turdagи nutq samaradorligini ta'minlash maqsadida paremiyalar yordamga kelishi holatlari kuzatilsa, ularning muloqot diskursida implitsit tarzda voqelanishi esa ehtimoliy qarama - qarshiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Ko'pincha, ushbu holat so'zlovchi nutqida implikatsiyalar, ya'ni matnda yashirin tarzda ifodalangan ma'lumotlar mavjud bo'lgan vaziyatlarda sodir bo'lishi mumkin. P. Grays ta'biri bilan aytganda, ushbu holatlar suhabatdoshni muloqot paytida qo'shimcha ma'nolarni izlashga majbur qiladi [Grice, 1975].

Umuman olganda, muloqot diskursida paremiyalarning qo'llanilishi bilvosita nutqiy akt sifatida so'zlovchi o'zining haqiqiy his-tuyg'ulari yoki nutq maqsadini botinan voqelantirgan holda, muloqot maqsadiga erishishga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, maqol bir vaqtning o'zida ham nutqiy akt vazifasini bajarsa, boshqa tomondan harakatga undashning samarali vositasi hamdir. Fikrimiz dalili sifatida quyidagi misollarga murojaat qilamiz:

Yapon tilida:

1. 枯れ木も山の脈わいた。選ばれなかつた作品も展示しておこう²⁴。
- (Kareki mo yama no nigiwaida. Erabarenakatta sakuhin mo tenji shite okou).

²¹ <https://twitter.com/JFKLibrary/status/961613741291864064?lang=en>.

²² 1 sentabr, 2017 yil; Manba: <https://www.gazeta.uz/oz/2017/09/01/nutq>.

²³ 2016 yil 15 dekabr kuni xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi.

²⁴ <https://manabi-benesse-ne-jp>

Qurigan daraxt bo'lsa ham, toqqa bezak beradi. Shuning uchun, tanlanmagan asarlarni ham ko'rgazmaga qo'yib qo'yaylik.

Ushbu misradagi 「枯れ木も山の賑わいだ」 (Qurigan daraxt bo'lsa ham, toqqa bezk beradi) maqoli vositasida, arzimas bo'lsa ham, biror jismning yo'qligidan ko'ra, borligi afzal degan ma'noga ishora qilinadi.

2. 私の手作りのため形はいびつですが、枯れ木も山の賑わいと思いつ
ビングに飾ることにしました²⁵。

(Watashi no tedzukuri no tame katachi wa ibitsudesuga, kareki mo yama no nigiwai to omoi ribingu ni kazaru koto ni shimashita.).

O'z qo'lim bilan ishlaganligim sababli shakli xushbichim bo'lmasa-da, qurigan daraxt bo'lsa ham, toqqa bezk beradi deganlaridek, uni xonamga ilib qo'yishga qaror qildim.

O'zbek tilida:

1. “Zero, dono xalqimizda “Hechdan ko'ra kech”, deb bejiz aytilmagan. Shu ma'noda, ayni paytda har bir qilinayotgan ishga yaxshilik nuqtayi-nazaridan qarab, ularni yana-da ta'sirchan va samarali bo'lishiga hissa qo'shish alohida ahamiyat kasb etadi²⁶”.

2. *Birodarlar, el shunday! El og'ziga elak tutib bo'lmaydi ! Odamzod shunday! Bor bo'lsa ko'rolmaydi, yo'q bo'lsa berolmaydi! Shunday ekan, odam bo'laman desangiz, el og'ziga e'tibor bermang! Ammo beparvo-da bo'lman!*

(T. Murod “Ot kishnagan oqshom”, 9 b).

Yapon tilida keltirilgan misollarda so'zlovchi nazarida amalga oshirilayotgan harakat atrofdagilar ko'z o'ngida hijolatomuz va g'aliz holatdek go'yo. Ushbu tasavvurning amalda reallashuvi va ayrim noxushliklarni bartaraf etish maqsadida majoziy mazmunda maqollarga murojaat qilinmoqda.

O'zbek tilida tahlilga tortilgan muloqot diskursida esa, sozlovchining ta'kidlashicha, muhokama qilinayotgan harakatni bajarish uchun suhbattoshning xohishi va shijoati darkor, ammo bunday da'vatga uning hafsalasi allaqchon yo'l

²⁵ <https://news.mynavi.jp/article/20210803-1925008>

²⁶ Xalq so'zi gazetasi, 8 yanvar 2021yil.

qo‘ymaydi. Bunday holatda adresatga bevosita tahdid solish yoki uni majburiy harakatga undash, shuningdek agressiyaga tayanish samarasiz va muloqot etikasiga mos kelmaydigan amallardandir. Muloqot diskursida shu kabi inson ruhiyati bilan bog‘liq munozarali vaziyatlar, ko‘p hollarda, xulosa chiqarish uchun dalil bo‘lib xizmat qiladigan majoziy maqollarga murojaat qilinishi birmuncha samarali kechadi. Shunday qilib, paremiyalar bir vaqtning o‘zida ham bilvosita nutqiy vazifasini bajarsa, boshqa tomonidan, nutq intentsiyasini majoziy voqelantiruvchi fakt sifatida ham gavdalanan ekan.

§1.4. Yapon va o‘zbek maqollarida invariant va variantlikning namoyon bo‘lishi

Yapon va o‘zbek paremiyalarida imperativlik xususiyati bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borar ekanmiz, tillarning o‘ziga xos farqlari, tarjima jarayonida nutq diskursiga oid tillararo mutanosibliklar va nomutanosibliklar, shuningdek, muloqot matni va gap ma’nosi bilan bog‘liq pragmatik transpozitsiya jarayonlariga oid hodisalarga to‘kis oydinlik kiritish uchun asliyat va muqobillik atamalaridan foydalanishga aniqlik kiritishga jazm etdik.

Moziyga nazar tashlaydigan bo‘lsak, til bilan bog‘liq hodisalarga oydinlik kiritish maqsadida asliyat va muqobillik yoki variant va invariant atamalari hamda ushbu yondashuv, dastavval, fonologiya sohasida vujudga kelganligi ma’lum. Praga tilshunoslik maktabida ham “variant” deganda bir fonemaning turli ko‘rinishda voqelanishi tushunilgan bo‘lsa, fonemaning o‘zi esa “invariant” sifatida tushunila boshlangan. Shu tarzda, fonologiya sohasidan ushbu yondashuv tilning, xususan, semantik sathini o‘rganishda amal qilina boshlangani ma’lum.

Shu o‘rinda, biz tahlil qilayotgan yapon va o‘zbek paremiyalarining muloqot matnida qo‘llanilishi va ularning ma’lum vaziyatda namoyon bo‘ladigan vazifalari hamda shaklan xilma - xilligi to‘g‘risida aniqroq tasavvurga ega bo‘lish uchun asliyat va muqobillik hodisalarning mohiyatini anglash dolzarb deb hisoblaymiz va

bu maqollarning biz e'tibor qaratayotgan va nazarda tutgan xususiyatlarini kengroq yoritish imkonini berishi shubhasiz.

Rus paremiologi, folklorshunosi va semiologi G. L. Permyakov o'z asarlarida maqollarning asosiy tasnifi va ularning xususiyatlari haqida fikr bildirib [Пермяков 1979], ularning mantiqiy - semiotik invariantlarga bo'linishi asosida lug'at tuzganligi bizga ma'lum. Tadqiqotchining shu kabi maqollar masalasiga bag'ishlangan ilmiy asarlari keyingi davr tadqiqotchilari uchun asosiy manba xizmatini o'tab kelmoqda. Shu o'rinda, biz ham olimning ilmiy yondoshuvlariga murojaat qilishga jazm etdik.

Uning nazariyasi ko'ra, maqollarning beshta asosiy tasnifi ta'riflagan bo'lib, ular alifbo tartibida, kalit so'zlarga ko'ra genetik va tematik jihatdan tasniflanadi [Пермяков 1979].

Maqol va uning o'zgarmas tuzilishi o'rtasidagi aniq munosabatni nazarda tutgan holda, tadqiqotchi matn o'zgarmas va har doim paremiologik tizimda ma'lum bir joyni egallaydi, degan to'xtamga keladi [Пермяков 1979].

Muallif variantlik maqolning ajralmas xususiyati ekanligini ta'kidlagan bo'lsa - da, ushbu janrdagi matnlar qat'iy yopiq tuzilishga ega ekanligini ta'kidlagan holda, ularni odatiy matn bilan invariantlashtirish holati faqat g'oya ta'kidlanishi bilan isbot topadi deb biladi. Shuningdek, mantiqiy - tematik guruhlarga va ko'pincha maqollarning mantiqiy - semiotik invariantlariga muvofiqlik nisbiy qiymat sifatida ko'rildi [Пермяков 1979].

"Variant" atamasining etimologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, ilmiy manbalarda variantlik (lot. varians, variantis - o'zgaruvchan) quyidagi ma'nolarga egaligi manbalarda qayd etilgan:

- 1) Har qanday til birligini uning o'zgarishi, xilma - xilligi yoki qandaydir me'yordan chetga chiqishi sifatida ifodalashning turli usullari haqidagi g'oya;
- 2) Til birlklari va umuman til tizimining mavjudlik va faoliyat uslubini tavsiflovchi atama [Лингвистический энциклопедический словарь 1990:527-529].

F. de Sossyur kontseptsiyasiga ko‘ra, nutq zanjirida faqat bitta element - til birligining varianti bir joyga joylashtirilishi mumkin [Соколов 1977].

Demak, nutq o‘z tabiatiga ko‘ra variantlardan iborat bo‘lsa, rus tilshunosi V. M. Solntsevning fikricha, nutqdan farqli ravishda til invariantlardan iboratdir. “Invariantlar mavhum birlik bo‘lganligi sababli, til mavhumlardan iborat ekanligini tan olmoq darkor”, deb biladi olim [Солнцев 1978].

Bizning nazarimizda, variantlik til tizimi va tilning barcha birliklari faoliyatining asosiy xususiyatidir. Til tizimi invariantdir, uning hududiy va ijtimoiy dialektlari, quyi tizimlari variantlardir. Shuningdek, variantlar deganda bir xil mohiyatning turli ko‘rinishlari tushunilsa, invariant - bu bir xil obektning (masalan, bir xil birlikning) mavhum belgilanishidir [Тимберлейк 1998].

Asliyat va muqobililik atamalari, asosan, folklorshunoslikka oid jarayonlarda keng ko‘lamda qo‘llanilishi bizga ma’lum, lekin ushbu qonuniyatlarga doim ham munosib e’tibor beravermaymiz. Vaholangki, paremiyalarning funksional, semantik va pragma – diskursiv xususiyatlari haqida muhokama qilish jarayonida ushbu jihatlar sinchkovlik bilan tahlil qilishni talab etadi.

Bizningcha, maqollarning faqat xalq og‘zaki ijodiga mansubligi uchungina emas, balki funksional jihatdan nutq intentsiyasining asosiy tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun ham variantlar bo‘lishi mumkinligini nazarda tutmoq darkor. Paremiya har doim ham funksional va mantiqiy jihatdan til madaniyatining mustaqil bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ibgina qolmasdan, balki so‘zlovchining fikrini mustahkamlash, nutqini yanada ifodali, tiniq va asosli qilish uchun mo‘ljallangandir [Гутова 2006].

Haqiqatdan ham, muloqot matnida paremiyalarni o‘rinli va samarali qo‘llay olish, boshqa turdagи ijodiy faoliyatlardan kam bo‘lmagan ijod namunasi deb e’tirof etish o‘rinli deb hisoblaymiz. Nutq ijrochisidan nafaqat yetarli miqdorda paremiyalarni xotirasida saqlab qolishi, balki ularni butun kontekstga moslashtirgan holda o‘z nutqida o‘rinli foydalana olishi hamda tarjima jarayonida yod zabonga mos variantlarni topa olish zehniga ega bo‘lishi talab etiladi.

Maqollardan foydalanish joiz bo‘lgan kontekst xilma – xillikka ega bo‘lishi va bir turdag'i ibora turli xil variantlardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin. Ushbu holat paremiyaning qanday vaziyatda va qanday sharoitda voqelanishi bilan aloqador bo‘lgan jarayondir.

Tabiiyki, maqollar estetik jihatdan purma’no va mukammal ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin, biroq asosiy jihat suhbatdoshga ma’lum bir ma’lumotni yetkazish yoki nutqning shaklan nafisligi bilan chegaralanmaydi. Undagi hukm, ko‘p hollarda, umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo‘lishi ham kuzatiladi.

Ko‘plab variantlar uchun semantik yadro vazifasini bajaruvchi invariantni belgilashda asosiy xususiyat sifatida semantik birlikka e’tibor qaratilishi muhimdir. Mutlaq ma’nodosh va hech qanday tafovutga ega bo‘lmagan mavzuga oid maqollar tubdan farq qiluvchi ko‘rinishda voqelanishi ham mumkin. Ushbu holatda ulardan anglashiladigan mazmunni belgilab beradigan belgi sifatida jumla tarkibida ishtirok etuvchi so‘zlarning semantik xususiyatlarini tanlash mumkin.

Yuqoridagi fikrlarni oydinlashtirish maqsadida quyida yapon va o‘zbek tiliga oid maqollarni tahlil qilib ko‘rishni joiz topdik:

Yapon tilida:

1. Invariant: 飼い犬に手を噛まれる。 (Kai inuni te wo kamareru).

Boqilgan it qo ‘lni qopar.

Izoh: Mehr berib, g‘amxo‘rlik qilgan it ham vaqt kelib qopishi mumkin. Odamlar ham xuddi shunday xiyonat qilishga moyilligi sababli, xushyor bo‘l.

Variant: 愛犬に手を噛まれる。 (Aiken ni te o kamareru).

Sevimli it qo ‘lni qopar.

Ko‘rinadiki, qisqa jumlalardan tarkib topgan paremiyalarning variantlarida asosiy malumotni uzatuvchi bo‘lgan so‘zlarning qisman o‘zgarishi ham kuzatiladi:

「飼い犬」 (kaiinu) “*boqilgan it*” va 「愛犬」 (aiken) “*sevimli it*” so‘zлari o‘zaro o‘rin almashgan bo‘lsa - da, mazmunan ma’no siljishida tafovut kuzatilamydi.

Quyida shu kabi maqollar ketma - ketligini tahlilga tortishni joiz bildik:

2. Invariant: 片屋を貸して母屋を取られる。 (Kataya o kashite omoya wo

torareru). Uyning bir qismini ijaraga bersang, asosiy qismini ham tortib olishadi.

Izoh: Yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytarish.

Variant:

1) 軒を貸して母屋を取られる。 (Noki wo kashite omoya wo torareru).

Tomning yog‘ochini qarzga bersang, boshpanagni ham olishadi.

Izoh: Invariant bilan bir xil mazmun.

2) 庵を貸して母屋を取られる。 (Hisashi wo kashite omoya wotorareru).

Tomning yog‘ochini qarzga bersang, boshpanagni ham olishadi.

Izoh: Invariant bilan bir xil mazmun.

Ushbu maqollarda jumlaning bosh qismi, ya’ni 「片屋」 (kataya), 「軒」 (noki) va 「庵」 (hisashi) qismlari o‘rin almashgan bo‘lsa - da, gap mazmuni semantik jihatdan hech qanday o‘zgarishsiz qolmoqda.

3) 鉈を貸して山を伐られる。 (Nata wo kashite yama wo kirareru).

Boltangni qarzga bersang, tog‘dagi tolingni qirqishadi.

Izoh: Ushbu maqol 1) va 2)da keltirilgan maqollarning ma’nodoshi sifatida funktsional va semantik jihatdan variant ko‘rinishida amalda bo‘lsa – da, struktur jihatdan chekinishlar kuzatiladi.

Demakki, paremiyalar shaklan mutlaq tafovutga ega bo‘lgan ko‘rinishda voqelanishi mumkin, biroq semantik jihatdan variantlik xususiyatini saqlab qolish imkoniga ega deyish mumkin.

3. Invariant: 水滴石を穿つ。 (Suiteki ishi wo ugatsu).

Suv tomchisi toshni teshar.

Izih: Qanchalik kichik bo‘lmasin, sabr - toqat qilsang, katta natijalarga erishasan.

Variant: 点滴石を穿つ。 (Tenteki ishi o ugatsu). *Tomchi toshni teshar.*

Izih: Invariant bilan bir xil mazmunga ega.

Variant: 雨だれ石を穿つ。 (Amadare ishi wougatsu). *Yomg‘ir tomchsi tosh teshar.*

Izih: Birinchi variant bilan bir xil mazmunga ega.

Ushbu maqollarda ham qismning o‘zgarishi mazmun butunligiga ta’sir korsatmaydi. 「水滴」 (suiteki), 「点滴」 (tenteki) va 「雨だれ」 (amadare) so‘zlari o‘rin almashgan.

4. Invariant: 馬の耳に念佛。 (Uma no mimini nenbutsu).

Otning qulog‘iga Nenbutsu (ilohiyat nomi)ni aytishbefoyda.

Izoh: Otga qanchalik yaxshi gapirma, u hech nimani tushunmaydi. Tushunmagan odamga besamar gapirma.

Variant:

1) 馬の耳に風。 (Uma no mimi ni kaze). *Otning qulog‘iga shamol esishi.*

Izoh: Otning qulog‘i ostida qancha shamol esmasin, u baribir sezmagani kabi tushunmagan odamga ham besamar gapirma.

2) 馬耳東風。 (Baji tō fū). *Otning qulog‘iga sharqiy shamol esishi.*

Iizoh: 1)da keltirilgan izohga muqobi.

Invariant ko‘rinishidagi 「念佛」 (nenbutsu) iborasi variant holatida 「風」 (kaze) va 「東風」 (tō fū) sifatida ko‘rinish bermoqda.

5. Invariant: 猫に石仏。 (Neko ni sekibutsu). *Mushukka tosh haykal.*

Izoh: Qanchalik qimmqtbaho tosh bo‘lmasin, mushuk uni hech qachon qadrini sezmaydi. Qadrsizga qadrni isrof qilma.

Variant:

1) 猫に小判。 (Neko ni koban). *Mushukka oltin tanga.*

Izoh: Invariant holatga muqobil.

2) 猫に経。 (Neko ni he). *Mushukka Sutra tinglatish.*

Izoh: Invariant holatga muqobil.

3) 猫念佛。 (Neko ni nenbutsu). *Mushukka Nenbutsu aytish.*

Izoh: Invariant holatga muqobil.

Invariant ko‘rinishidagi 「石仏」 (sekibutsu) iborasi variant holatida 「小判」 (koban) va 「経」 (he) sifatida ko‘rinish bermoqda.

Shu o‘rinda, o‘zbek xalq maqollariga yuzlanamiz:

1. Invariant: *Vatanning vayronasi - umrning g‘amxonasi*.

Variant: *Vatanning vayronasi - umrning hayronasi*.

2. Invariant: *Kishi yerida sulton bo ‘lguncha, o ‘z elingda cho ‘pon bo ‘l*.

Variant:

1) *Kishi yurtida sulton bolguncha, o ‘z yurtingda ulton bo ‘l*.

2) *Kishi yurtida shoh bolguncha, o ‘z yurtingda gado bo ‘l*.

Ushbu holatda, birinchi misolda invariant holatdagi “g‘amxonasi” so‘zi variant holatda “hayronasi” iborasi bilan o‘rin almashgan holda qismlar almashinushi kuzatilgan bo‘lsa, ikkinchi misolda esa gapning birinchi qismidagi “sulton” so‘zi “shoh”ga, ikkinchi qisimdagagi “cho‘pon” so‘zi esa “ulton” va “gado” iboralari bilan o‘zaro joy almashinish holati ro‘y berayotgani kuzatiladi. Ammo bu jarayon paremiyalarda pragmatik ma’no ko‘chishidagi buzilishlarga sabab bo‘la olmaydi.

Ko‘rinadiki, yuqorida tahlilga tortilgan paremiyalar har ikkala tilda ham harakatga undash xususiyatiga ega bo‘lib, ularda asosiy urg‘u so‘zlar almashinushi bilan emas, balki asosiy mantiqni yaxlit holda ochib berish bilan xususiyatlanadi va ushbu jarayonda variant va invariantlikka tayangan holda ish olib borish samarali usullardan hisoblanadi. Leksik nuqtai nazardan ushbu maqollarda umumiy va asosiy mazmunni beruvchi yadro so‘zlar, masalan, yapon tilida 「犬」 (it), 「馬」 (ot), 「猫」 (mushuk), shuningdek o‘zbek tilida “vatan”, “yurt” kabi turfa xillikka ega, ammo funktsional va tematik jihatdan bu misollar bir - biriga nisbatan o‘ta yaqinlikka ega.

Muloqot diskursida variantlarning paydo bo‘lishi ma’lum darajada kommunikatsion vaziyat bilan bog‘liq deb taxmin qilishimiz mumkin. Vaziyatlarning o‘ziga xosligi va ulardan foydalanish xususiyatlari, nutq ijrochisining ong ostida zohirlanishi variantlarga murojaat qilishga undashi mumkin.

Variantlikning kelib chiqishiga, yuqorida ta’kidlaganimiz kabi, muloqot muhiti, so‘zlovchining so‘zlar tanlovidagi mahorati, qolaversa, davr talabi va shu davrga xos nutqning sayqallangan ko‘rinishi hamda ijtimoiy muhit kabi unsurlar turtki bo‘lishi ham mumkinligi haqida taxmin qilish mumkin.

Variant va invariantlik atamalariga murojaat qilar ekanmiz, hamma paremiyalar ham albatta variant ko‘rinishiga ega bo‘lishi mumkin degan fikrdan yiroqmiz. Uzoq davrlar davomida amalda bo‘gan va bugungi kunda ham o‘z ko‘rinishini saqlab qolgan holda nutqimizda voqelanayotgan maqollarning mavjudligi e’tiborga loyiqidir. Masalan:

O‘zbek tilida:

- 1) *Burgaga achchiq qilib, ko‘rpangni yoqma.*
- 2) *Yetti o‘lcha, bir kes.*
- 3) *Teng tengi bilan, tezak qopi bilan.*

Yapon tilida:

- 1) 会うは別れの始め。 (Auhawakarenohajime). *Uchrashuv - bu ajralishning boshlanishi.*

Izoh: Hayot va undagi tasodiflarning o‘tkinchiligi bois, har qanday holatda ham uning oniy ekanligini yodda tut.

- 2) 七転び八起。 (Nanakorobi yaoki). Yetti marta qoqilib, sakkizinchisida tur.

Izoh: Davomiy muvaffaqiyatsizliklardan tushkunlikka tushmasdan, har gal harakatda bo‘lish va hayotning past - balandliklaridan qoqimaslikka undash.

Xuddi shu tarzda, bir vaqtning o‘zida bitta invariantning kamida ikki yoki undan ortiq variantlarining mavjudligi ham e’tiborlidir. Albatta ushbu variantlarning paydo bo‘lish manbasi, odatda, birgina invariant bilan asoslanishi mumkin va ularning semantik xususiyatlari ham o‘ziga xos bo‘ladi.

Qiziqlarli shundaki, yapon tilida deyarli bir xil ikki qismli tuzilmadan tarkib topgan maqollar mavjud bo‘lib, ularning pragma - semantik, struktur hamda funktsional xususiyatlari jihatidan mos keluvchi variantlarini o‘zbek folklor diskursida ham kuzatish mumkin:

Yapon tilida:

1. 今日考えて明日語れ。 (Kyō kangaete ashita katare).
Bugun o‘ylab, ertaga hikoya qil.
2. 遠くの親類より近くの他人。 (Tōku no shinrui yori chikaku no tanin).

Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi begona afzal.

Variant - 1: 遠き親子より近き隣。 (Tōki oyako yori chikaki tonari).

Uzoqdagi ota - ona yoki bolaga qaraganda yaqinroq qo'shni avzal.

Variant - 2: 遠い一家より近い他人。 (Tōi ikka yori chikai tanin).

Uzoqdagi oiladan yaqinroqdaggi begona afzal.

Ushbu maqollarning o'zbekcha muqobili quyidagicha:

1. Avval o'ylab, keyin so'yla.
2. Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi.

Bu turdag'i aniq ifoda ko'rinishiga ega bo'lgan tillararo o'xshashlik va tafovutni namoyon etuvchi namunalarni yapon va o'zbek xalqlari maqollar zahirasida bisyorligi hisobiga yanada boyitish imkoniga egamiz. Aytish mumkinki, ijodkor ilm egasi paremiyalarga oid yangicha yondashuv bilan muloqot diskursini boyitish maqsadida maqollarning o'zgacha tusda variantlashuvi hamda ularning funksional doirasini kengaytirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqotchilar ma'lum bir mazmundor invariant matnga bir vaqtning o'zida tenglashtiriladigan muqobil variant mavjudligini aniqlashgan. Demak, variant hodisasiga bir semantik birlikning o'zgacha qiyofada voqelanishi deb ta'rif berishimiz mumkin. Shu asnoda, "semantik invariant" tushunchasi asosida biz invariant va variant o'rtasidagi farqlarni aniqlashga urinib kordik. Bunda, bitta mavzu doirasida bir xildagi fikrni aks ettiruvchi maqollarni emas, balki mavzuning umumiyligi bilan xususiyatlansa-da, mazmunan yaqin bo'lgan maqollarni nazarda tutishimiz mumkin. Masalan, quyidagi misollarga murojaat qilamiz:

O'zbek tilida:

1. *Jinga ishongan baxshini tinglaguncha, chinga ishongan yaxshini tingla.*
2. *Ikki qulogdan ko'ra, bir ko'zga ko'proq ishon.*

Yapon tilida:

1. 斧を研いで針にする。(Ono o toide hari ni suru).

Boltani charlab igna yasa.

Izoh: Bolta charxlash mashaqqatli ish, ammo mehnat qilsang boltadan ham nozik igna yasashing mumkin. Ya’ni bir ishni qanchalik qiyin bo‘lmasin, sabr va mehnat bilan uddalash mumkinligiga ishora.

2. 塵も積もれば山となる。 (Chiri mo tsumoreba yamato naru).

Chang ham to ‘plansa, tog ‘ga aylanadi.

Izoh: 1.dagi izoh bilan muqobil.

Demak, o‘zbek tilidagi maqollarda “mavhumlikdan chetlanish va konkretlilikka talpinish”ga ishora qilingan bo‘lsa, yapon tilida keltirilgan maqollardan maqsad “sabr bilan mehnat qil” mazmunidagi harakatga undovchi nutqqa ishoradir.

Ravshanki, ushbu maqollar har ikkala tilda ham semantik jihatdan bir xil mazmuga ega bo‘lib, tematik jihatdan uyg‘unlashgan faoliyatga undashga ishora qilinmoqda. Biroq, bizning nazarimizda, ularni bitta invariant uchun variant bo‘la oladi, deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘lar edi. Quyidagi misollarga e’tibor qaratamiz: O‘zbek tilida:

1. Birovning ishi - ko ‘ngilning hushi.
2. Birovning ishiga saratonda qo ‘l sovqotar.
3. Ko ‘z o ‘ziga, qulqoshqalarga ishonadi.
4. Ko ‘z - o ‘zingniki, qulqosh - o ‘zganiki.

Yapon tilida:

1. 蚊の息さえ天に昇る。 (Nomi no iki sae ten ni noboru).

Hatto burganing nafasi ham samoga chiqadi.

2. 蟻の思いも天に届く。 (Ari no omoi mo tenni todoku).

Chumolining fikri (niyati) ham samoga yetib boradi.

Izoh: Chumoli yoki burga kabi kichik mavjudodlar ham chin dildan intilsa, tilagi amalga oshadi.

3. 牛を避けて水に陥る。 (Ushi o sakete mizu ni ochiiru).

Sigirdan qochib, suvga yiqildim.

4. 火を避けて水に陥る。 (Hi o sakete mizu ni ochiiru).

Olovdan qochib, suvga yiqildim.

Izoh: Bir falokatdan qutulib, keyingisiga tutilishga ishora.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, nutq ijrochisi muloqot matnida paremiyalarga murojaat qilar ekan, ushbu vaziyatda u o‘zi uchun qulay bo‘gan sharoitni yaratish hamda nutq maqsadini birmuncha yengilroq yoritish niyatida variant va invariantlikka tayanishi kuzatiladi. Paremiyalarga xos o‘zgaruvchanlik har qanday tilda ham kuzatilishi mumkin. Biz ushbu ishimiz orqali faqat yapon va o‘zbek tillari misolida maqollarning xususiyatlarini ko‘rib chiqishga harakat qildik.

Ammo, achinarlisi shundaki, bugungi avlod nutqida paremiyalarning toboro yo‘qolib borayotgani va ulardan jo‘yali foydalanish holatlarning deyarli uchramasligi kabi sharqona nafosatning qiymati zaiflashib borayotgani barchagamizga ma’lum. Vaholangki, kundalik muloqot diskursini, xoh u oila davrasi bo‘lsin, xoh rasmiy makon, paremiyalar bilan boyitish nafaqat muloqat estetikasini shakllantiradi, balki etika hamda muloqot madaniyatining sayqallanishiga ham olib keladi va tildan foydalanish imkoniyatlari doirasi yanada kengayishiga imkon beradi.

Ma’lumki, so‘zlovchi o‘z manfaati uchun suhbatdoshni ma’lub bir hrakat ijrosini amalga oshirishga undashi yoki uni taqiqlashi, buyruq berishi hamda majburlashi kabi munosabatlar har qanday vaziyatda ham adresatga nisbatan noqulayliklarni keltirib chiqarishi va muloqot samarasizligiga turtki bo‘lishi tabiiy. Shu kabi imperativlik bilan aloqador ayrim nozik vaziyatlarda paremiyalarga murojaat qilish ham oqilona yechim topish usullaridan biri hisoblanadi.

Biz o‘z ishimiz doirasida paremiyalarda asliyat va muqobililik o‘rtasidagi munosabatlar, ularning pragma - diskursiv va semantik hamda struktur jihatlari bilan bog‘liq masalalar haqida fikr yuritishga harakat qildik. Biroq, bu bilan tilga oid murakkab muammolarga yechim topdik degan fikrdan yiroqdamiz, lekin ilmiy yondashuvlarimiz va kuzatishlarimiz ushbu soha ravnaqi uchun naf beradi deb umid qilamiz.

Bbob bo‘yich xulosalar

Paremiyalar xalq og‘zaki ijodi hamda folklorshunoslikning turg‘un va baxstalab bo‘limgan janrlari sirasidan joy olgan. Ular har qanday sharoitda ham o‘z maqomi va dolzarbligini saqlab kelmoqda va uzoq o‘tmishdan paremiyalar jamiyatda kishilar kommunikativ faoliyatining deyarli barcha sohalarida faol amalda bo‘lgan. Ular nafaqat kundalik muloqot diskursida, balki nutqning barcha ko‘rinishlarida, xususan, rasmiy va norasmiy muloqot jarayonlarida, ommaviy axborot vositalarining og‘zaki va yozma nutqida, xattoki, sahna namoyishlarida ham nutq bezagi va estetikasi vazifasini o‘tab kelmoqda.

Imperativ maqollar funktional, struktur va semantik xususiyatlariga ko‘ra xarakterllanishini ta’kidalsh joiz. Ushbu turdag'i maqollar tarkibidagi fe’llarning, odatda, buyruq shaklida ko‘rinish berishi o‘zgarmas qoida sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, imperativ maqollar vositasida muloqot jarayonida suhbatdoshni ogohlikka chaqirish, ehtimoliy xatar yoki nizoni bartaraf etish va xushyorlikka da’vat etish kabilarga ishora qilinadi.

Umuman olganda, imperativ maqollar - bu samarali harakat yo‘nalishini zohiran yoki botinan belgilab berish xususiyatiga ega bo‘lgan aforistik birlik deyish mumkin va shu yo‘sinda nutqda illokutiv kuchning ta’sir tezligi oshishiga imkon beradi. Ma’lumki, imperativ xarakterdag'i maqollarning oddiy xalq orasida ham, ziyoliylar davrasida ham ko‘p qo‘llanilishini kuzatish mumkin. Ushbu mazmundagi yapon hamda o‘zbek maqollarida struktur va funktional jihattan o‘xshashliklar kuzatiladi. Xattoki, ularning semantik uyg‘unlashgan holatlari ham ko‘zga tashlanadi.

Muloqot matnida amalda bo‘lgan barcha turdgi nutqiy aktlar o‘ziga xos struktur ko‘rinishga ega bo‘lishi bilan bir vaqtida, muayyan mazmun va mohiyatni ham qamrab oladi. Ushbu mazmun va mohiyatni ochib berish hamda nutq intensiyasining voqelanishini ta’minalash uchun so‘zlovchi muhit ehtiyojiga ko‘ra nutqiy akt turlarining muvofiqini tanlash orqali ma’lum turdag'i ma’lumotni suhbatdoshiga yetkazadi.

Imperativ mazmundagi maqollarni harakatga undovchi nutqiy aktlar ko‘lamida qaraydigan bo‘lsak, nutq intensiyasini botinan voqelantiruvchi nutqiy

akt turi sifatida explitsit nutqiy aktini eng muhim vosita sifatida e'tirof etish mumkin. Ushbu turdag'i nutqiy aktlar direktivlar sinfiga oid bo'lib, o'ziga xos funksional, semantik va grammatik tuzilish hamda pragmatik strukturaga egadir. Imperativlik, odatda, ma'lum kommunikativ vaziyatda faollashib, tinglovchini u yoki bu harakatni bajarishga yoki bajarmaslikka undaydi. Ammo buyruq mazmunida voqelangan bu turdag'i nutq ko'rsatmasini, ayniqsa, maqol ko'rinishida voqelanganda, qabul qilish va undalgan harakatni bajarish yoki aksincha bajrmaslikka qaror qilish adresat uchun majburiy bo'lmasdan, ko'pincha uning ixtiyorida qoladi.

Maqollar tahlili haqida gap ketar ekan, xalq aforistik ijodini o'rganishda variant va invariant atamalariga murojaat qilish ahamiyatlidir. Ushbu usulning mantiqiy asosi shundaki, maqollar oddiy jumla tuzilishiga va ko'pincha juda ko'p ishlatiladigan leksikaga ega bo'lishi mumkin. Biroq, ularning o'ziga xos so'z birikuvi, maqolning sintaktik yoki tarkibiy o'zgarishlaridan qat'i nazar, invariant va variantlarni aniqlashga imkon beradi va ushbu qonuniyatlar maqollarning sintaktik tuzilishiga ko'ra rasmiy tasniflanishiga olib keladi. Xuddi shu maqolning variantlari orasidagi farqlarning aksariyati ularning grammatik elementlarining xilma-xilligida va asosiy ma'noli so'zlarning leksik tanlovida kuzatilishi mumkin.

Umuman olganda, invariant va variantlik xodisalari haqida ko'plab taniqli paremiologlarning asarlarida keng to'xtalingan bo'lishiga qaramasdan, bu sohaga oid yondoshuvlar to'laligicha oydinlashtirilmagan.

Har ikkala tilidagi maqollarni tematik jihatdan bir xil turkumga kiritish mumkin. Bitta invariant maqolning varianti sifatida ishtirok etayotgan maqol tematik jihatdan bir xillikka ega bo'lishdan tashqari, gap tarkibidagi qismlar bilan ham mos keladigan aforistik birliklarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zida maqollarda muloqot muhitiga bog'liq holda, urg'ularning o'zgarishi nutq mazmuniga ta'sir o'tkazish holatlari ham yo'q emas. Ammo bunday iboralar bitta invariantning variant sifatida saqlanib qoladi.

Buyruq mazmunidagi muloqot matnining pragma - diskursiv tahlili imperativ maqollarning funksional imkoniyatini aniqlash imkonini beradi. Pragma

- diskursiv tahlil so‘zlovchining emotsiyal holatlari, masalan, ma’lum bir holatga nisbatan reaktsiyasi asosida maqollarga murojaat qilayotgamligiga tayanib, maqollarni tahlil qilish imkonini ham beradi. Ushbu jarayon, paremiyalar bilan muomalada bo‘lish va ularning xususiyatlarini o‘rganishga yengillik tug‘dirib, ular ishtirokidagi nutq intentsiyasining o‘zgaruvchan va yangicha ma’noda voqelanishi kabi xususiyatlarni yoritishga turtki beradi.

Bugungi kunda ko‘pgina tilshunos olimlar maqollarning nutqdagi xususiyatlari va ularning pragmatik-diskursiv jihatlari nuqtai nazaridan izlanishlar olib bormoqdalar. Biroq, o‘zbek va yapon xalqlari maqollari, ulardagи imperativ mazmun xususiyatlari, tillararo uyg‘unlik va tafovutli jihatlariga oid jiddiy urinishlar hali amalga oshirilganicha yo‘q. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun biz mazkur ilmiy ishimizda har ikkala tilga oid maqollarga murojaat qilgan holda, imkon qadar, ularning nutq jarayonida va asar qahramonlari muloqotida qo‘llanganligini kuzatish, nutq mohiyatini tahlil qilish va so‘zlovchi nutqida voqelangan variant maqollarning ma’nosini ularning invariant turi bilan solishtirib tahlil qilishga harakat qildik.

II БОБ. YAPON TILIDA IMPERATIVLINING IMPLITSIT VA EKSPLITSIT IFODA USULLARI

§2.1. Imperativ tuzilmalarning pragmasemantik xususiyatlari

Ma’lumki, “pragmatika” atamasi haqidagi asosiy g‘oya XX asrning 30-yillari oxirida amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o‘rtaga tashlangan edi. Ushbu soha yana bir amerikalik olim Ch. Morris tomonidan semiotikaning bir bo‘limining nomi sifatida amaliyatga kiritgani ma’lum. “Pragmatika” atamasi etimologiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsk, yunoncha “pragma” yoki “pragmatos” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ish” yoki “harakat”ga ishora qiladi. Ushbu soha semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o‘rganuvchi sohasi;

boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirib, undan foydalanuvchi sub’yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘i.

Pragmatikaning asosiy vazifalari haqida bir qancha tilshunoslar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, J. N. Lich, V.V. Bogdanov, N. D. Arutyunova va boshqalarning haraqatlarini e’tirof etish mumkin.

Biroq, ularning barchasi pragmatikani tilni ichki tuzilishida emas, balki uni shaxs tomonidan qo‘llashda tasvirlashga intiladigan fan sifatida tushunishga asoslanadi.

Imperativ tuzilmalarining pragmasemantik xususiyatlari ham pragmatikaning tahlil obyektidir. Preskriptiv nutqiy aktlari ko‘rsatma yoki buyruq berish harakati bilan bog‘liq holda voqelanib, xohish-istiklak izhori modalligi doirasida turli ma’no ottenkalarini ifodalaydi. Ushbu ko‘rinishdagi modallik asosida so‘zlovchining subyekt va belgi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish istagi yotadi [Belyaeva 1988:15].

A.V. Bondarko xohish - istak modalligini imperativ va optativni jamlovchi umumiy funksional - semantik maydon hududida qarash lozimligini ta’kidlaydi [Bondarko 1990:80]. Ushbu ikki turdagি modal mazmun so‘zlovchining voqelikka nisbatan qanday munosabatda bo‘lishi bilan belgilanadi.

Imperativ adresantning adresatni harakatga qo‘zg‘atish istagi qa’tiyligi bilan izohlansa, optativlik esa ko‘proq xohish - istakning mo‘ljali noaniq bo‘lib qolishi bilan bog‘liq va turli noqat’iy ma’nodagi lisoniy birliklar vositasida ifodalanadi. Preskriptiv mazmundagi nutqiy tuzilmalar tahlilida kommunikativ faoliyatning quyidagi ko‘rsatkichlari inobatga olinishi ma’qullanadi: 1) kommunikativ faoliyatning maqsadi; 2) adresant rejasidagi niyat; 3) mo‘ljaldagi tinglovchi-retsipient; 4) nutqiy akt mazmunning voqelik bilan bog‘liqligi.

Ma’lumki, har qanday ko‘rinishdagi muloqot faoliyati u yoki bu guruhdagi ishtirokchilar qatnashishini talab qiladi. Preskriptiv nutqiy aktlari voqelanishi quyidagi kommunikativ rollar bajarilishini taqozo etadi: 1) birlamchi rollar: adresant - buyuruvchi, qabul qiluvchi - retsipient, uchinchi (kuzatuvchi) shaxs; 2) ikkilamchi rollar: undash manbasi, ijrochi, undalayotgan harakatni bajarish yoki

bajarmaslik qarorini qabul qilish uchun ma'sul shaxs. Bundan tashqari, muloqotdoshlarning mo'ljaldagi harakatga munosabati ham muhim omillardandir. Zero, mazkur harakat ular xohishiga mos kelishi (yoki kelmasligi) yoki tamoman befarq bo'lishi mumkin.

Ushbu funksional - semantik maydon markazida so'zlovchining muloqot aktida bajarayotgan roli turadi. Binobarin, preskriptiv nutqiy aktlarida so'zlovchi undash manbasidir. Maydonning keyingi taqsimoti muloqot ishtirokchilaridan qaysi biri harakatni ijro etishi hamda kommunikantlarning ushbu harakatga munosabati bilan bog'liq. Bu turdag'i nutqiy aktlar bajarilishida so'zlovchi "yetakchi" o'rinni egallasa va bu adresatga buyurilayotgan harakatni bajarish ma'suliyatini yuklasa-da, biroq kommunikativ rollarning o'zgarib turishi holatlari ham kuzatiladi [Kitazaki 2016].

Eslatilgan omillarning inobatga olinishi preskriptivlar sinfiga qarashli imperativ mazmunni voqelantiruvchi nutqiy aktlarning pragmasemantik tahlili uchun ahamiyatlidir. Zotan, mazkur nutqiy aktlarning alohida guruhlarida harakatga undashning modal va tavsiya qilish bilan bog'liq ma'no bo'laklari o'z aksini topadi.

Buyruq ma'nolari, dastlabki nazarda, aniq ko'zga tashlanayotgandek tuyuladi. Ammo ushbu ma'no ifodasi bilan bog'liq muammo doimiy ravishda mantiqshunos, ma'noshunos va pragmalingvistlar tortishuviga sabab bo'lib kelmoqda [Vrigt 1986; Yoqubov 2002: 36; Sperber 1991:591].

Imperativ mazmundagi majburlash (biror kishidan harakat bajarishni talab qilishi) va taqiqlash (biror harakatni bajarmaslikka chaqirish) ma'nolaridan farqli ravishda, ruxsat berish ma'nosи adresatni harakatni bajarishga to'lig'icha undashdan iborat emas. Ushbu turdag'i nutqiy aktning asl illokutiv maqsadi harakat bajarilishiga yo'l qo'ymayotgan to'siqni olib tashlashdan iboratdir [Searl 1986:189]. Agarda bunday to'siq sifatida, masalan, harakatga undovchi taqiqni qaraydigan bo'lsak, unda ruxsatning taqiq bilan bog'liqligini va uning bekor qilinishi ruxsatga imkon yaratishini e'tirof qilmoq kerak [Vejbitskaya 1986:263].

Imperativ qurilmalarga bag‘ishlangan tadqiqotlarning ba’zilarida ushbu qurilmalarga uch turdagи semantik belgilar xosligi qayd etiladi: harakat kauzatsiyasi, harakatga qiziqish, ketma - ketlik. Bunda kauzativ harakat manbasi so‘zlovchi bo‘lsa, ushbu harakat tinglovchi foydasiga bajariladi va so‘zlovchi o‘zini tinglovchidan ustun qo‘yadi [Krakovskiy, Volodin 1986:140-141; Xronopulo 2007:57].

Nutqiy aktlar nazariyasida imperativ ma’nosining pragmatik jihatlari yoritilib, ularning semiotik talqiniga e’tibor qaratiladi. Ushbu nazariya doirasida kommunikativ vaziyat modeli turli jihatli va qator vazifalar aks topadigan hodisa sifatida qaralib, bajariladigan pragmatik vazifa semantik - pragmatik ko‘rinishda tasvirlanadi [Paduchayeva 1985:29-34]. Bizningcha, bu tarzdagi yondashuv imperativ qurilmalarning qo‘llanish maqsadi borasida axborotga ega bo‘lishdan tashqari, ularning ma’lum nutqiy aktlar vazifalarida faollashuvi, ruxsat vaziyati qatnashchilarining mavqeい va istaklari, harakat bajarish imkoniyatlari kabi ijtimoiy - ruhiy holatlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishga imkon beradi.

Imperativ qurilmalarning taqiq yoki ruxsat mazmuniga ega bo‘lishi ikkita subyekt, ya’ni buyuruvchi va ijrochi shaxslar munosabatiga asoslanadi. Ulardan birinchisi ikkinchisiga ma’lum harakatni bajarish vazifasini topshiradi (taqiqlaydi yoki ruxsat beradi). Bizningcha, buyruq ma’nosи zohirlanishini aynan kommunikativ vaziyat tasvirida o‘rganish ma’qulroq, chunki so‘zlovchi va buyuruvchi munosabati xuddi tinglovchi va ijrochi munosabatidek har doim ham mos kelavermaydi [Biryulin 1990]. L. A. Biryulinning qaydicha, ushbu munosabatlarning buzilishi ko‘rsatma berish vazifasini bevosita muloqot ishtirokchilari emas, balki qandaydir boshqa shaxslar bajanganida yuzaga keladi (O‘sha asar, 239 b).

Bunday holda, permissiv va proxibitiv tuzilmalarning vazifasini umumiyo‘ ko‘rinishda quyidagicha tavsiflash mumkin: ushbu tuzilmalarda ikkita qatnashchi - subyektning o‘zaro munosabati o‘ziga xos ko‘rinish oladi.

Harakatga undash mazmunidagi permissiv nutqiy aktlar pragmatik mo‘ljali voqelanishida ikkita sub’ektning hatti - harakati o‘ziga xos holatda boshqariladi,

ya’ni subyektlardan biri (buyuruvchi) boshqasining foydasini ko‘zlab, unga ma’lum bir harakatni bajarishga (yoki bajarmaslikka) ixtiyor beradi. Tinglovchi ushbu ruxsatni buyuruvchidan olish huquqiga ega. Ushbu turdagи nutqiy aktlarining bunday talqinida ba’zi tushunchalarga ahamiyat qaratish lozim bo‘ladi:

- a) (shaxs) faoliyati;
- b) harakatni o‘zgartirish yoki saqlab qolish;
- v) ko‘rsatma berish;
- g) buyuruvchi va ijrochining istak-xohish modalligi;
- d) mumkinlik / mumkin emaslik / zarurat modalligi (ya’ni ijrochi haraktini bajarishi yoki bajara olmasligi).

Ushbu tushunchalar u yoki bu ma’nosida namoyon bo‘lishi mumkinligi sababli qo‘yiladigan vazifa proxibitiv va peremissiv aktlariga qaysi turdagи ma’nolar birikuvi xarakterli ekanligini va ularning qay tarzda boshqa ko‘rsatma mazmunidagi tuzilmalardan farqlarini aniqlashdan iboratdir.

Imperativ tuzilmalar turli maqsadda qo‘llanishi barchaga ma’lum. Ammo ularning turli illokutiv mazmunda (buyruq, iltimos, maslahat, ruxsat, taqiq, rozilik va boshqalar) faollashuvida invariant xususiyatlar mavjudligi seziladi. Bu, albatta, tavsiya qilish istagining umumiyligi bilan bog‘liq. Shunga asosan, nutqiy aktlar pragmasemantik xususiyatlarini imperativ tuzilmalarning asosiy semantik turlarini yoritish orqali aniqlash lozim. Chunki imperativlik umuman preskriptiv ma’nolar tizimining eng chuqur qatlamida “yashiringan” bo‘ladi. Bu xildagi tavsidfa buyuruvchi va ijrochi haqidagi ma’lumotlar imperativ tuzilmalarning semantik-pragmatik tasvirida qayd etiladi.

Inkor va tasdiq ko‘rinishidagi tavsiya “しろ!” (*bajar!*) - yoki “するな!” (*bajarma!*) undash vaziyatiga qadar ikki turdagи ma’lumotga asoslanadi: 1) tasdiqlovchi ma’lumot (ijrochi aytilgan harakatni bajaradi); 2) inkor ma’lumoti (ijrochi undalayotgan harakatni bajarmaydi). Shuningdek, ushbu vaziyatda tavsiya ham ikki mazmunda ifoda topadi: 1) tasdiq tavsiyasi (“Bajarayotganining davom et”); 2) taqiq tavsiyasi (“Bajarayotgan harakatingni to‘xtat”). Ko‘rsatilgan tavsiyalarni ularning manbalari bilan birlashtiradigan bo‘lsak, imperativ tuzilmalar

to‘rt guruuhga ajralishini kuzatish mumkin [Xronopulo 2007; 安達太郎 2002; 石川美紀子: 2002].

1. Inkor unsuriga ega bo‘lmagan tuzilmalar. Masalan: “吸ってもいい - *Chekaver!*” tuzilmasi agarda tinglovchi shu paytda chekib turgan bo‘lsa, “Chekishni davom etaver!” ruxsatini olgan bo‘ladi. Qiyoslang:

「さあ、上がんなさい。午後になるとお兄さんも見えなさるからね。それまで食事をして、ひと休みをしなさい。」

(高木敏子 「ガラスのうさぎ」 : 24 b) .

Ichkariga kiraver. Kunning ikkinchi yarmida akang ham kelib qoladi. Ungacha ovqatlanib, biroz dam ol.

2. Inkor unsuri qatnashayotgan tuzilma. Masalan: “吸うな - *Chekma!*” “shu paytgacha qilmagan ishni bajarma” mazmunini ifoda etadi (Tinglovchi chekmagan edi bundan buyon ham chekmaslik tavsiyasini olmoqda). Qiyoslang: 「お母さん的心臓病まだ悪いのか。こまったねえ。でも、お父さんも、もうじき帰国できるだろうから、それまで、敏子が頑張ってくれよ。お母さんのことぐれぐれも頼んだぞ！」と言つて兄はノートと消しゴムをくれた。

(高木敏子 「ガラスのうさぎ」 : 25 b) .

“Onamning yurak xastaligi hali ham yomonmi? Nima qilsak ekan. Ammo otam ham tez orada uyga qaytishlari mumkin. Toshiko, ungacha sen qo‘lingdan kelganicha harakat qilaver, oyimni (bundan buyon) ham senga topshirdim”- dedi akam va qo‘limga daftar bilan o‘chirg‘ichni tutkazdi”. Ushbu misolda Toshiko harakatdan to‘xtamagani va bundan buyon ham to‘xtamaslikka undalayotganini kuzatish mumkin. Bu holatda nutq permissivlik shaklidagi qurilmadan tarkib topgan bo‘lsa-da, nutq intensiyasi taqiqdan boshqa narsa emas.

3. Inkor unsuri mavjud bo‘lgan boshqa holatda imperativ tuzilma “bu ishni qilma!” ma’nosini anglatishi mumkin. Ammo bu holatda tinglovchi ushbu harakatni bajarib turgan bo‘lishi kerak. Masalan: “Chekma!” nutqiy akti bu vaziyatda “Chekishni to‘xtat” mazmunini ifodalaydi. Qiyoslang:

「こんなやつに関わるな。」

Bunday odamlarga qo'shilma!

(水星 茗「線の月の夢」：174 b）。

4. Inkor unsuri qatnashayotgan tuzilmalar ba'zan “buyurilgan harakatni boshla” mazmunini olishi mumkin. Biroq bunda tinglovchi tavsiyani eshitganiga qarab bu harakatga urinmayotgan bo'lishi lozim. Qiyoslang:

「エエ、何も言うな、黙っている。」 *Ee, hech nima dema. Jim tur.*

(樋口一葉「たけくらべ」：250 b).

Tavsiya qabilidagi tuzilmalarning ushbu pragmasemantik mazmuni kundalik turmush nutq kontekstida har xil ko'rinishlarda murakkablashuvi mumkin. Bunday holatlarni farqlash uchun nafaqat tavsiya manbalarini, balki buyuruvchi va bajaruvchi sub'ektlarning istak-xohishi bilan bog'liq modal ifodalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi (Biryulin 1987). Bunda, bir tomondan, tavsiya beruvchi shaxsning tinglovchini ma'lum harakatga undash paytida namoyon bo'ladigan xohishi va ikkinchi tomondan, tinglovchining ijroga moyillik istagi o'ziga xos rolni o'taydi. Shuningdek, ko'rsatilgan xohishlarning o'zaro ta'siri ham nutqiy aktlar ma'nosining “ma'qullash” yoki “ma'qullamaslik” qo'shimcha mazmunini kiritadi. Masalan:

「まさか。彼女のパスポートもスーツケースも身の回りの物も、一切ないんですよ。信じられないのなら、あなたも来てみるといい！」

(桐野夏生「顔に降りかかる雨」：22 b).

Bo'lishi mumkin emas. Uning pasporti ham chamadoni va shaxsiy buyumlari ham yo'q. Agar ishonmasang, sen ham kelib ko'rishing mumkin!.

「何事もなかったように家の中はシーンとしていた。父の遺体が、「敏子、だめじゃないか、しっかりしなくては」と叱っているようだった。」

(高木敏子「ガラスのうさぎ」：79 b）。

Uyning ichi hech narsa bo'lmagandek sokin edi. Otamning jasadi menga "Toshiko, o'zingni bunday tutma, yaxshi emas, qat'iyatli bo'lishing kerak" deb tanbeh berayotgandek edi go'yo.

Undash vaziyatida tavsiya beruvchi shaxsning istagi ikki xil bo‘lishi aniq, ya’ni u tavsiya qilinayotgan harakat bajarilishini “istaydi” yoki “hohlamaydi”. Bulardan birinchisida tavsiya tasdiq ko‘rinishini olsa, ikkinchisida inkor va taqiq ma’nosi voqelanadi.

Tavsiyani bajaruvchi shaxsning maqsadi va ruhiyati o‘ziga xos holatda namoyon bo‘ladi. Undash vaziyatidagi uning faoliyati uch xil ko‘rinishni olishi mumkin, ya’ni u tavsiyani bajarishni xohlashi, xohlamasligi yoki befarq bo‘lib qolishi kuzatiladi. Bunday xohish holatlari tinglovchi - adresatning voqealar rivojiga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Jumladan, agar adresat undalgan harakatni bajarishni istasa, uning faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda kechadi: a) u harakatni davom ettirishni xohlaydi; b) yoki u o‘zi bajarayotgan harakatga befarq; v) yoki u harakatni to‘xtashini istaydi. Xuddi shunday holatlar adresat buyurilgan harakatni bajarishni istamaganida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan:

- 「じゃ、あなたも来てください」 ...*unday bo‘lsa, sen ham kel.*
- 「いやだわ、関係ないもの」 *Xohlamayman, menga dahli yo‘q.*
- 「お願いしますよ。」 *O‘tinaman.*

(桐野夏生 「顔に降りかかる雨」 : 24 b).

Adresatning bu yo‘sindagi xohish - istagini o‘ziniki bilan qiyoslayotgan tavsiya beruvchi subyekt undash yo‘nalishi, jarayoniga o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Bunda buyruqni bajaruvchi xohishi “はい- ha” yoki “いいえ - yo‘q” yuklamalari qo‘llanishi vositasida baholanib boriladi. Masalan: “はい、しろ - *Ha, bajar*”、 “はい、待たなくていい - *Ha, kutish kerak emas*” yoki “いいえ、待たなくていい - *Yo‘q, kutish shart emas!*”, “いいえ、仕事を続けて - *Yo‘q, ishni davom ettir*” . Masalan:

- 「キーを貸してください。」
- 「ええ。」

「成瀬はBMWの外回りをチェックした。」

(桐野夏生 「顔に降りかかる雨」 : 29 b).

- “*Iltimos, kalitni bering*”.
- “*Xo‘p*”...

Naruse “BMW”ning tashqi tomonlarini sinchiklab tekshirdi.

Tavsiya beruvchi va uni bajaruvchining xohishlari mos kelganida harakat qo‘llab - quvvatlanadi, xohishlar qarama-qarshi yo‘nalishda bo‘lganida esa harakat ijrosi ma’qullanmaydi. Birinchi holatda adresatni faoliyatini boshlashga, davom ettirishga va shuningdek, to‘xtatishga undaydi. Masalan:

- 「それだけでいい。だから、事務所には出ててくれるかね。」
- Shu ishni bajarsangiz bas. Demak, idorada bo‘lib turasiz - a?*
- 「はい、」 Ha.
 - 「毎日だよ！」 Har kuni.
 - 「はい、あの、日曜日もですか。」
- Xo‘p, haligi, yakshanba kuni hammi?*
- 「今日だけ頼むよ。ほかの日曜はいい。」

Faqat bugun iltimos qilaman, boshqa yakshanba kuni kelmasangiz ham bo‘ladi.

(桐野夏生「顔に降りかかる雨」：43 b).

Tavsiya ruhidagi imperativlik voqelanishining pragmasemantik tavsifida undashning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlovchi shartlar mavjud. Jumladan, adresat undalgan harakatni bajarishga qobiligi subyektiv modallikning namunasi ekanligini unutmaslik kerak. Ushbu turdag'i modallik harakat bajaruvchi subyektning istagiga mos ravishda voqealar rivoji imkoniyati obyektiv shart - sharoitiga ishora qiladi.

Harakatga undovxhi nutqiy aktlari ma’nosini idrok etishda aynan shu modal ma’nolar o‘zaro munosabatini inobatga olish talab qilinadi. Bunda, masalan: adresatning tavsiya olish paytidagi faoliyati ikki yo‘nalishda bo‘lishi mumkinligi aniqlanadi, ya’ni ushbu faoliyat erkin yoki majburiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Faoliyat erkin, ixtiyoriy kechayotganida uni davom ettirish yoki o‘zgartirish uchun obyektiv sharoit, imkoniyat mavjud bo‘ladi. Faoliyat majburiy ekanligida esa, obyektiv sharoit mavjudligiga qaramasdan, undashga

bo‘ysinayotgan shaxs uni bajarishga majburlangan bo‘ladi. Demak, harakatni bajaruvchi shaxsning istagi va imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik faoliyatlarning ikki ko‘rinishda kechishiga sabab tug‘diradi. Adresatning imkoniyatlarini inobatga olayotgan tavsiya beruvchi buyurilayotgan harakatni bajarish yoki bajarilmasligi borasida xohishdan kelib chiqib, tavsiyani qa’tiylashtiradi yoki bekor qiladi. Masalan:

「信用してもいいのかな… 成瀬は困り果てたようにつぶやいた。」

(桐野夏生 「顔に降りかかる雨」 : 32 b).

“Ishonsa bo ‘larmikin...” - Naruse qiyngandek ming ‘irladi.

「もう今度こそ戦争は終わりだ。敏子ちゃんのお兄さんたちは、かならず生きて帰ってくる。だから、これからは心をしっかり強く持って生きなければだめだよ。」 (高木敏子 「ガラスのうさぎ」 : 91 b).

Shu safar urush tugaydi. Binko, sening akanglar albatta tirik holda qaytadilar. Shunday ekan, sen qalbingda kuchli shijoat bilan yashamasang bo‘lmaydi.

Nutqiy aktning samarasini belgilovchi shartlardan iborat bo‘lgan ko‘rsatilgan ma’no bo‘laklarining o‘zaro munosabatini tahlil qiladigan bo‘lsak, to‘rt ko‘rinishdagi imperativ vaziyatlarni farqlash mumkin bo‘ladi. Ushbu turlar doirasida imperativ tuzilmalarning turlicha semantik izohga egaligi namoyon bo‘ladi. Jumladan, adresat erkin faoliyati sharoitida harakatini davom ettirish yoki o‘zgartirishga majburlash ma’nosи voqelansa, majburiy faoliyat sharoitida ruxsat berish yoki taqiqlash semantikasi faollashadi. Ruxsat adresatning istagi ma’qullangan taqdirda beriladi.

Shunday qilib, imperativning permissiv vaziyati qanday ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi va ruxsat aktining muvaffaqiyatini belgilovchi shartlar quyidagilardan iborat ekanligi ma’lum bo‘ladi:

Tavsiyani bajaruvchi hududi:

“Bajaruvchi” ma’lum harakatni erkin bajarayotib, ushbu harakat rivojini saqlab qolish yoki o‘zgartirishni istaydi. Ammo taqiq mavjudligi yoki ijtimoiy-axloqiy me’yorlar ta’sirida bunga imkoniyat topmaydi va oqibatda majburiy

faoliyatga kirishadi. Ayni paytda, bunday majburiylikdan qoniqmasdan, tavsiya berayotgan shaxsdan mavjud to'siqni olib tashlashni so'raydi.

- 「ここで煙草を吸ってもいいですか。」

Bu erda tamaki cheksam maylimi?

- 「規則では吸ってはいけません。」

Qoidaga ko 'ra, chekish mumkin emas. (森山,1997:85).

- 「小林さん。そんなに怖がらなくともいいよあなたのすることはただ一つだ。耀子さんから連絡があったら、私にすぐ連絡すること。いいね。」

- はい、はい。 (桐野夏生「顔に降りかかる雨」:43 b).

- *Janob Kobayashi, bunchalik qo'rmasangiz ham bo'ladi. Siz faqat bitta ishni bajarasiz. Agar Janob Yokodan xabar kelsa, iltimos, darhol men bilan bog'laning, tushunarli - a?*

- *Xo'p, xo'p.*

Tavsiya beruvchi hududi:

Tavsiya beruvchi, adresat xohishini inobatga olib, uning istagiga mos ravishda uning harakatni bajarishiga ruxsat beradi. Buning natijasida adresat xohishiga qarshi turgan to'siq olib tashlanadi. Masalan:

- 「新聞なんか読ましちゃいけないか。」

(Shinbun nanka yoma shicha ikenaika)

- 「私もそう思うんだけども、読まないと承知しないんだから、仕様がない。」

(Watashi mo sō omoundakeredomo, yomanai to shōchi shinaindakara, shiyouganai)

(夏目漱石、「こころ」:147 b).

- *Ro'znomal kabilarni o'qish taqiqlanganmi?*

- *Men ham shunday deb o'ylayman, ammo o'qimasak tushunmaymiz, shuning uchun nailoj (o'qiymiz).*

Ruxsat mazmunidagi buyruqning ning amalga oshishi ma'lum sharoitlarning mavjudligi bilan bog'liq:

- 1) adresatda faoliyatni davom ettirishga bo'lgan xohish aniq ko'rinishda bo'lishi shart, boshqacha qilib aytganda, u harakatni bajarishni istashi yoki istamasligi kerak, befarqlikka yo'l qo'yilmaydi;
- 2) tashqi omillar bilan izohlanadigan imkoniyatsizlik harakatni bajarishga to'siq tug'diradi;
- 3) xohish va imkoniyat o'rtasidagi nomuqobililik;
- 4) adresat bajaradigan harakatning majburiyligi;
- 5) adresatning muloqot paytida tavsiya beruvchidan mavjud to'siqni bartaraf etishni so'rashi;
- 6) buyuruvchi va ijrochi muqobillashuvi va bir - birini qo'llab - quvvatlash;
- 7) buyuruvchining harakat bajarilishiga to'sqinlik qilayotgan holatda manfiy munosabati va uning olib tashlanishi bilan yaratiladigan imkoniyat.

Xuddi shu tarkibdagi shartlarning faollashuvi nutqiy aktga imperativlikdan ko'ra ko'proq permissivlik xususiyatini berish holatlarini kuzatish mumkin. Ulardan birortasining o'zgarishi yoki yo'qolishi nutqiy aktga o'zgacha mazmun berishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar, shuningdek, ushbu turdag'i nutqiy aktlarini guruhlarga ajratishga imkon beradi.

Faoliyatni davom etish yoki o'zgartirish va to'siqni olib tashlash bilan bog'liq adresatning imkoniyati va xohishi o'rtasida qarama - qarshilik hamda ba'zi bir boshqa holatlar harakatga undovchi nutqiy aktlarining muhim xususiyatlari qatoridan joy olganida, ular voqealarning rivoji qanday yo'nalish olishi bilan farqlanadilar. Bunday holatda buyruq yoki ruxsat ijobiy va salbiy xarakterga ega bo'lishi mumkinligi bois, to'rt turda permissiv mazmunga ega nutqiy aktlar ajratiladi:

- a) faoliyatni davom ettirishga ijozat:

Nutqiy tuzilma tarkibida inkor elementi yo'q. Masalan:

「泣け、泣け。」 Yig'la, yig'layver.

[仁田, 1995].

So‘zlovchi shaxs eslatilayotgan harakatni shu paytgacha erkin bajarayotgan edi va uni davom ettirishga xohish yoki izn bildirilmoqda. Tavsiya berayotgan shaxs adresatning xohishini qo‘llab-quvvatlaydi va unga ruxsat beradi. Yapon tilida bunday nutqiy akt tarkibida ijozat so‘rashning “～てもいいです” (...ni bajarishing mumkin) qurilmasi ishtirok etgan holatlar ham ko‘p uchraydi [Xronopulo, 2007].

b) xohishsiz faoliyatni to‘xtatishga ijozat:

Nutqiy tuzilma tarkibida inkor unsuri ishtirok etayotganida:

「そんなことをしなくてもいい。」

Bunaqangi harakatlarni bajarmasang ham bo‘ladi. [吉川, 1989].

Adresat muloqot paytgacha buyurilgan ishni majburan bajarayotgan edi va uni to‘xtatish istagini ma’lum qilmoqda. Buyuruvchi shaxs uning xohishini anglab yetadi hamda oldingi holatni o‘zgartirish va xohishsiz harakatga barham berishga ruxsat bermoqda.

v) harakatni davom ettirmaslikka ruxsat:

Nutqiy tuzilma tarkibida inkor elementi qatnashganda:

「食べなくともいいです。」 *Yemasang ham bo‘ladi.* [富田, 1991].

Adresat ruxsat olganiga qadar faoliyatni erkin bajarayotgan edi, uning xohishi ushbu faoliyatni to‘xtatish bo‘lsa-da, lekin buni qila olmasdi. Buyuruvchi shaxs uning xohishini qondirish izmida va harakatni to‘xtatishga ruxsat bermoqda.

g) faoliyatni boshlashga ruxsat:

Nutqiy tuzilmada inkor elementi mavjud emas:

「君は歌手を目指すべきだよ。才能があるんだから。」

Siz qo‘shiqchi bo‘lishni maqsad qilishingiz kerak. Chunki sizda iste ‘dod bor.

[庵, 2001].

Adresat shu paytgacha mo‘ljaldagi harakatni bajarayotgani yo‘q, shuning uchun uni boshlashga ruxsat kutmoqda. Tavsiya beruvchi shaxs mavjud to‘siqni olib tashlab, adresatga harakatni boshlashga izm bermoqda.

Ko‘rinadiki, (a) va (b) guruhlarida voqelanayotgan permissiv mazmun adresatning faoliyati majburiyligini bekor qilmoqda, (v) va (g) guruhidagisida esa majburiylikni saqlash xohishini yo‘qqa chiqarmoqda.

Eslatish joizki, yapon tilida imperativlikning permissiv mazmunidagi nutqiy aktlar faqat 「～させる、許す、許可する(*ruxsat bermoq*)」 turidagi performativlar vositasidagina ifodalanib qolmasdan, balki ushbu mazmun paydo bo‘lishining boshqa leksik - grammatik vositalari ham mavjud [Podlesskaya 1990]. Binobarin, quyidagi misollarda “ijozat bermoq” ma’nosini ifodalovchi bir qancha vositalarni kuzatish mumkin. Qiyoqlang:

山本さんは子供を映画館に行かせた。

山本さんは妹に映画館に行く許可を与えた。

あなたは映画館に行くことができます。

あなたは映画館に行けます。

私はあなたに映画館に行く許可を与えます。

あなたは映画館に行ってもかまいません。

あなたは映画館に行ってもいいです。

あなたは映画館に行ってください。

あなたは映画館に行きなさい。

(内田恵 1998:65).

Finlandiyalik tilshunos imperativlikning turli ko‘rinishda voqelanishida kauzatsiya (harakatga majburlash) va oddiy pragmatik vazifa bajarish holatlarini farqlash lozim deb hisoblaydi [Мустайоки, 2006 : 282]. Muhimi, turli shakldagi imperativ tuzilmalarining pragmasemantik xususiyatlarini majmuaviy tarzda tahlil qilishga erishishdir.

§2.2. Implitsit va eksplitsit imperativlikning dialogik nutqda namoyon bo‘lishi

Ushbu faslda muloqot matnida implitsit va eksplitsit imperativlikning faollashuvi va ularning xarakterli jihatlari haqida to‘xtalishni maqsad qilganmiz.

Dastavval, ushbu atamalar izohiga to‘xtaladigan bo‘lsak, eksplitsitlik lotincha “explicatio” (aniqlashtirish) so‘zi bilan bog‘liq holda, nutq intentsiyasini ramziy mantiq yordamida oydinlashtirish uchun xizmat qiladi.

Ma’lumki, nutqimizda ifoda topayotgan gap mazmuni, odatda, nominativ va kommunikativ qismlarga bo‘linib talqin qilinadi. Birinchi holatda gapning mazmuni zohiran voqelansa, ikkinchi holatda esa botiniy izhor etilish holatlari kuzatiladi. Odatda ushbu vaziyatda nutq intentsiyasidan ishora qilinayotgan harakat haqidagi tasavvur kommunikativ jarayon ta’sirida adresatning ong ostida shakillanganligi va shu asnoda u murojaatga nisbatan reaktsiyaga kirishishi holati kuzatiladi. Yodda tutmoq joizki, har qanday holatda ham muloqotning eksplitsit holatda zohirlanishiga ijozat berilavermaydi. Rus olimi Polivanov Yevgeniy Dmitriyevich ta’kidlaganidek, odatda muloqot matnida biz faqat “impilitsitlik” yoki “tagma’noli iboralar”dan keng foydalanamiz, lekin fan tilining matnlari doimo eksplitsit tarzada oydinlashtirilgan bo‘lishi kerak, ya’ni mazmunan to‘liq bo‘lmaslikka va noaniqliklarga yo‘l qo‘yilmasligi darkor [Polivanov 1991:225].

Gap mazmunining implitsit yoki eksplitsit tarzda ifoda etilishi til birliklarining semantik tuzilishi va nutqni tashkil etish o‘rtasidagi bog‘liqlikning muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Odatda axborot yoki muloqot maqsadining botiniy voqelanishi asosida muloqotdoshlararo munoosabatning sayqallanishi va kommunikantlararo hurmat - ehtiromning kuchayishi natijasida nutq samaradorligi mustahkamlanish holatlari ham kuzatiladi.

Pragmalingvistikada eksplitsitlik nutqiy akt sifatida perfomativ vositalar asosida aks topishi I. I. Chesnokov asarlarida qayd etilgan [Chesnokov 2016]. Eksplitsitlik va implitsitlikning matnda faollashuviga oid omillarning xarakterli jihatlari pragmalingvistika nuqtai nazaridan atroficha tahlil qilinishni talab etadi. Biroq, sir emaski, tilga oid kognitiv - kommunikativ yondashuv nuqtai nazaridan nutq umumiyatlarini o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda va bu o‘z navbatida implitsitlik va eksplitsitlik hodisalarining yetarli darajada yoritilmaganligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, eksplitsitlik - bu nutqda bevosita amalga

oshirishdan iborat bo‘lgan lisoniy belgilarning bevosita, aniq ifodalangan ma’nosи deyishimiz mumkin. Shu o‘rinda, axborot uzatish usullarining bir turi sifatida implitsitlik, ya’ni yashirin xabar uzatish usuli alohida qiziqish uyg‘otadi. Manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, implikatsiya lotincha “implication” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, “yashirin”, “ko‘zda tutilgan” degan ma’nolarda taqdim etiladi.

Ushbu atama amerikalik tilshunos olim Uorf Benjamin Li va rus olimasi Viktoriya Nikolayevna Yartseva kabilarning ilmiy asarlarida “yashirin tur” atamasi sifatida qayd etiladi [Ярцева, 1991]. Bir qator hollarda implitsitlik til me’yorlaridan chetga chiqish, so‘zlardan noodatiy foydalanish, shakl va mazmun o‘rtasidagi nomuvofiqlik ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin, deb ishoniladi. Bu birinchi navbatda nutq ijrochisining nutqdan ko‘zlagan maqsadi bilan uzviy bog‘liq holda voqelanadi [Bragina 1986].

Dialogik nutqda matn mazmunining bevosita yoki bilvosita ifodalananish usullari, ko‘p hollarda, harakatga undovchi nutqiy aktlar ishtirokida zikr etilgan matnlarda o‘ta ahamiyatli hisoblanadi. Ma’lumki, nutqimizda zohirlanayotgan buyruq mazmunidagi jumlalar xushmuomalalik va hurmat - ehtiromdan yiroqlashgan, qo‘pol mazmundagi nutqiy akt sifatida talqin qilinish holatlari ko‘p uchraydi. Biroq, bu turdagи iboralar muloqot vaziyatiga qarab, yumshoq yoki keskin, xushmuomala yoki qo‘pol holatda voqelanishi kuzatiladi. Shu jihatdan, ko‘pgina tillarda buyruqning xushmuomala yoki yumshoq ohangda aks ettiruvchi maxsus shakllari mavjud va bu muloqotdoshlar o‘rtasidagi munosabatning ijobiy natijaga erishishiga imkon yaratadi.

Xususan, yapon muloqot matnida harakatga undovchi iboralarni bevosita amalda qo‘llash suhbatdoshga nisbatan humatsizlikni ifodalashi bois, imperativ mazmunni yumshoqroq va nafis ohangda ijro etish maqsadida maxsus lisoniy birliklar va grammatik qurilmalardan o‘rinli foydalanish usuli ancha keng tarqalgan. Quyidagi misollarda yapon tilida buyruqning turli shaklda qo‘llanilishiga e’tibor qaratamiz:

1. - 「今日は駄目です」と云って先生は苦笑した。

- 「愉快になれませんか」と私は気の毒そうに聞いた。

(夏目漱石「こころ」: 31-32).

- “Bugun imkonim yo ‘q”, deya ustoz mahzun jilmaydi.

- “Kayfiyatizingizni ko ‘tara olmaysizmi?”, deb so ‘radim rahmim kelgandek.

2. 「明日までにレポートを出してください。」

Ertagacha hisobotni topshiring!

3. さあ、来い！Xo ‘sh, kelaqol! (プログレッシブ和英中辞典第3版, 2002).

O‘zbek tilida imperativ mazmunidagi nutq samardorligini ta’minlash uchun xizmat qiladigan turli unsirlar mavjud. Ko‘p holatlarda, har xil kirish iboralari, xususan, “iltimos”, “mumkin bo‘lsa”, “agar sizga qiyin bo‘lmasa” yoki ism va nomga urg‘u berish kabilar yordamida ifodalanishi mumkin. Ushbu holat yapon muloqot matnida, aksincha, kirish so‘zlarning ko‘p hollarda gap oxiridan o‘rin olishi kuzatiladi. Biroq, fe’lning imperativlik xususiyatiga ega bo‘lmagan shakllaridan foydalanish va jumlaning so‘roq gap tarzida voqelanishi orqali harakat ijrosiga undash holatlari har ikkala til uchun ham xususiyatlidir. Bu borada monografiyamizning keyingi bo‘limlarida batafsil to‘xtalamiz.

Botiniy voqelangan axborotning samaradorligi nutq intentsiyasini faraz qilish mushkulligi, ya’ni adresat ongida nutq mohiyatini anglash uchun xizmat qiladigan qo‘srimcha intellektual kuch sarflaganligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Demak, inson tilining eng sirli xususiyatlaridan biri uning botiniy voqelanishiga oid xususiyatlar deb hisoblash mumkin [Lomov 1977: 9].

Demak, bilvosita nutq harakatni ifodalashda matn mazmuni va maqsadi maxsus lisoniy vositalar bilan yetkazilmaydi, balki muayyan lingvistik birliklarning ma’nolari asosida idrok etiladi.

Shu o‘rinda yapon muloqot matnida nutq maqsadining yashirin yoki oshoro ifoda usullariga to‘xtaladigan bo‘lsak, yapon dialogik nutqida harakatga undovchi kommunikativ maqsad asosan eksplitsit yoki nutq muhitiga bog‘liq holda implitsit tarzda ham ifodalanishi yuqorida aytildi. Biroq eksplitsit tarzda ifodalanishda ma’lum bir cheklovlar mavjud, ya’ni har qanday maqsadni barcha

sharoitda to‘g‘ridan - to‘g‘ri bayon etishga muloqot axloqi yo‘l qo‘ymaydi. Xususan, ushbu qoidaga muloqotdoshni harakatga undovchi nutqiy aktlarning voqelanishida keng amal qilinadi, chunki unda muloqot maqsadi ko‘pincha zohiran ifoda etiladi. Bu turdagি nutqiy aktlarning birlamchi vazifasi faoliyatni ijro etmaslikka undashdir. Shu bois, ushbu maqsadga erishish ehtimoli so‘zlovchining mahoratiga bog‘liq bo‘lib, u bevosita hamda bilvosita voqelanishi holatlarini kuzatish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yapon tilida imperativ gaplar muloqot matnida nisbatan kam uchraydi. So‘zlovchi atrofdagilarni o‘z manafaati uchun ma’lum bir harakat ijrosini ta’minnlashga undashi yapon mentaliteti nuqtaiy nazaridan muloqotdoshga nisbatan hurmatsizlik yoki xudbinlik hisoblanadi. Shuningdek, kunchiqar yurt vakillari nazarida buyruq mazmunidagi unsurlardan tarkib topgan matn asosida kimnidir harakatga undash yoki unga mas’uliyat yuklash harakatini amalga oshirishdan ko‘ra ushbu maqsaddan voz kechish yoki so‘zlovchining o‘zi harakat ijrosini ta’minlashi afzal hisoblanadi. Ushbu holat yapon tilida harakatga undashning milliyligini aks ettiradi [Neverov 1977 : 32].

Yapon tiliga xos bo‘lgan buyruq gapning xususiyatlaridan biri shundaki, buyruq beruvchi shaxs uni bajaruvchi shaxsga nisbatan qanday munosabatda ekanligiga bog‘liq holda, buyruq hosil qiluvchi shakllardan mosini tanlagan holatda muloqotga kirishish talab etiladi. Masalan:

「ねえ、君、腕を見せてあげてくれよ、そうでなければ、僕がここへ嘘をつきたくに来たと思われるよ。」

(大江健三郎「われわれの狂気を生き延びる道を教えよ」:158 b).

Hoy, bilagingni ko‘rsat, aks holda meni bu yerga yolg‘on gapirgani kelgan deb o‘ylashadi.

Ushbu misolda so‘zlovchi tinglovchiga nisbatan qanday munosabatda ekanligini aniqlashda jumla tarkibidagi 「見せてあげてくれよ」, ya’ni “*ko‘rsat*” fe’li shaklining o‘zi kifoya qiladi. Bu shaklda imperativlik ohangidagi gaplar, odatda, kattaning kichikka qarata bayon etadigan nutqida keng

qo‘llaniladi. Shuningdek, aksincha, ularning o‘zaro o‘ta yaqin munosabatda ekanligini idrok etish mumkin. Bundan tashqari, ushbu misolni ikki xil ma’nodagi nutqiy akt sifatida talqin qilish mumkin. Birinchidan, o‘ta qo‘pol ohangda ijro etilgan harakatga undash intensiyasini birlamchi desak, ikkinchi tomondan, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatning o‘ta yaqinligi bois, bilagini ko‘rsatishga izn berilgani yoki uni yashirishini taqiqlaganini imperativlikning permissiv va proxibitiv akti sifatida gapning ikkilamchi intensiyasi deb idrok etish mumkin.

Yapon tilida taqiq mazmunidagi imperativlikning asosini 「禁止形」 (taqiq shakl) tashkil etadi. Ya’ni inkor shakldagi buyruq gaplar yoki taqiqni ifodalovchi proxibitiv nutqlar ham, yuqorida ta’kidlanganidek, so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro munosabati, mavqeining baland pastligi va yosh jihatidan katta yoki kichikligi kabi ijtimoiy jihatlar hisobga olingan holda dialogik nutqda o‘z ifodasini topadi.

Yapon tiliga xos bo‘lgan nutqning ushbu qoidalari yapon xalqining qadimgi yapon manbalarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Edo davrida yashab ijod etgan mashhur yapon haykunavisi (hayku - yaponcha she’riy usul) Kobayashi Issanining qalamiga mansub haykulardan birida shunday jumlanı uchratishimiz mumkin: 「やせ蛙負けるな一茶これにあり。」

Ozg‘in qurbaqa, engilma va g‘ayrat qil, (men) Issa shu yerda(man).

(小林一茶の俳句百選「春夏秋冬」).

Ushbu holatda Kobayashi Issa hayku yaratish qoidasiga amal qilgan holda, tabiat yoki fasllarga oid so‘zlardan foydalangan bo‘lib, bahor faslini esga soluvchi, ozg‘in va zarbalarga dosh bera olmayotgan qurbaqa obrazi orqali o‘z taqdirini aks ettiradi va shu orqali u o‘ziga nisbatan buyruq ohangdagi 「負けるな」, ya’ni “yengilma” deya kamtarlik va o‘ziga nisbatan ijtimoiy jihatdan quyi mavqedaga ekanligini ko‘rsatish ma’nosidagi fe’l shaklidan foydalanadi va buning vositasida o‘ziga dalda beradi.

Bundan ko‘rinadiki, “fe’l+ な (-na)” shaklida yasalgan harakatni bajarmaslikka undovchi muloqot jarayonida nafaqat inkor ma’nodagi buyruqni, balki tinglovchini ruxlantirish, dalda berish va yupatish maqsadida qo‘llash imkoniyatini ham berar ekan. Shuningdek, imperativ shakl asosida yasalgan buyruqning taqiq mazmunidagi nutq orqali bilvosita ijozat mazmunidagi nutqqa ham urg‘u berilmoqda, ya’ni 「負けるな」 fe’lining ikkilamchi tagma’nosidan “*g‘ayrat qilishda davom etishing mumkin, chunki men sen tarafdaman*” qobilidagi mazmun anglashinadi.

“Fe’l+ な(-na)” formulasi yapon tilida nutq ijrochisi tinglovchiga nisbatan ma’lum darajada mavqeい balandligi aniq bo‘lgan holdagina amalda qo‘llaniladi va bunday jarayonda tinglovchi nutqdan ko‘zlangan harakatni bajarishi shart bo‘lgan shaxs sifatida ishtirok etadi. Aksincha, nutq ijrochisining tinglovchiga nisbatan ijtimoiy maqomi pastroq bo‘lgan holatda “fe’l+ な(-na)” formulasi o‘z shaklini yo‘qotadi va u yapon tiligagina xos bo‘lgan 「尊敬語」, ya’ni yuqori maqomdagi hurmat shakli yoki uning imperativ mazmunni anglatuvchi quyidagi maxsus formulalariga o‘zgaradi:

- 1) ~て下さい (-te kudasai: bajaring iltimos) ;
- 2) ~ないでください (-naide kudasai: bajarmang iltimos) ;
- 3) ~なさってください (-nasatte kudasai: bajaring iltimos) ;
- 4) ~なさらいでください (-nasaranaide kudasai: bajarmang iltimos) .

Qayd etilgan iboralar yapon muloqot matnida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat asosida tanlanadi va amalgal tadbiqu etiladi. Masalan: 「危ないですから触らないでください。」

Xavfli bo‘lganligi sababli tegmang.

Ushbu matn tarkibidagi 「触らないでください」 iborasining ishtirokidan adrestaga nisbatan so‘zlovchining ehtiromini anglash mumkin. Chunki buyruqning 「~ないでください」 shakli so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi hurmatdan dalolat berish uchun xizmat qiluvchi lisoniy vazifasini bajaradi.

Ushbu jumlalar yapon tiliga xos bo‘lgan 「命令形」, ya’ni fe’lning imperativ shaklini hosil qilish qoidasi asosida yaratilishi jihatidan bir xillikka ega bo‘lsa - da, ulardan anglashiladigan ma’nolarning turfalogini idrok etish mumkin.

Yapon tiliga xos bo‘lgan buyruq maylidagi gaplarda kesim vazifasini bajaruvchi 「命令形」 shaklidagi fe’llarning ishtirokisiz nutq mazmunini anglash jarayoni tinglovchi uchun birmuncha murakkab kechadi.

Yapon tilshunoslarning fikricha, 「命令形」 anglatadigan ma’noni va uning vazifasini ikkita katta qismga bo‘lish mumkin. Qiyoslang:

- 1) 命令 (buyruq mayli);

「それ以上は言うな」 ジェイムスが遮った。

(赤川次郎, 「赤いこうもり傘」 : 44)

“*Bas, boshqa gapirma*” dedi, Jeyms uning gapini bo‘lib.

- 2) 願望 (xohish-istak mayli);

「まだ少し時間が早い。ゆっくり歩いていてくれ。」

(赤川次郎, 「赤いこうもり傘」 : 66).

Hali biroz erta. Sekinroq yuring, iltimos.

「命令」, ya’ni “buyruq” ma’nosini anglatuvchi bu so‘z so‘zlovchi o‘z talabiga mos holdagi faoliyatni tinglovchi tomonidan ijro etilishiga undashini anglatsa, 「願望」 esa faqatgina so‘zlovchining xohish - istagiga mos keluvchi harakat ijrosini ifodalaydi.

Shuningdek, yapon tilida dialogik nutq jarayonida so‘zlovchi va tinglovchining yuzma - yuz muloqotda bo‘lishini, ya’ni suhbat ikkala tarafning bevosita ishtirok etishi lozim ekanligini ifodalovchi 「共存」 (birgalikda mavjud bo‘lish) tushunchasi mavjud. Bunday holatda so‘zlovchining nutqida bayon etilgan talab yoki buyruq, taqiq yoki ruxsat ohangida ijro etilgan nutq ijrosini bajaruvchi shaxs sifatida ishtirok etadigan tinglovchidan konkretlik, suhbat jarayonida mavjud bo‘lish va so‘zlovchi bilan jonli muloqotda ishtirok etishi talab etiladi. Ammo, buning aksi bo‘lgan holatlarda, ya’ni tinglovchi so‘zlovchi tomonidan

ijro etilgan nutq jarayonida mavhum shaxs sifatida ishtirok etsa, bunday holat 「非共存」 (birgalikda mavjud bo‘lmaslik) deb nomlanadi. Bunda gap kesimi buyruq maylidagi fe’llardan iborat bo‘lsa-da, lekin u 「命令」 emas, balki 「願望」 ma’nosini ifodalovchi nutqiy akt hisoblanadi. Bunday jarayon, odatda, harakat ijrochisi ya’ni, tinglovchining ishtirokisiz sodir bo‘ladi [石川美紀子, 北村雅則 「伝達場面の構造からみた命令形の諸機能」 2007].

Nutqiy akt samaradorligini ta’minalash maqsadida muloqotning quyidagi ikki turidan foydalaniladi:

- 1) Verbal usul;
- 2) Noverbal usul.

Birinchi usulda maqsad aniq jumlalar orqali ifodalanadi va uni ijro etuvchi shaxs ruhiyatiga bog‘liq holda ma’lum bir ohangda tinglovchiga yetkaziladi. Ikkinci usulda esa, so‘zlovchi tinglovchiga o‘z fikrini nutqiy akt orqali emas, balki yuz ko‘rinish holati, ma’lum bir tana a’zosidan foydalangan holdagi imo-ishora va imlash usuli kabilar orqali bildiradi.

Yapon tilida imperativlikni bevosita ifodelaydigan buyruq gaplardan dialogik nutq jarayonida foydalanishda turlicha grammatik unsurlardan foydalanish mumkin, ammo ularni amalda qo‘llash imkonini chegaralangan. Demak, so‘zlovchi nutq samaradorligini ta’minalash maqsadida bilvosita nutqiy aktlarga murojaat qilmog‘i darkor, ammo ulardan o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday holatlarda buyruqning taqiq yoki iltimos ma’nolarini ifodalovchi grammatik qurilmalardan bir qanchasini sanab o‘tish mumkin. Masalan:

～てほしい、～てください、～てくれよ、～がおできですか、～べきだ、
～たほうがよくなないか、～んじゃない、～てくれる、～ていただいてよろ
しいでしょうか、～と助かる、～てかまわない、～するかしら。

Direktivlar guruhidaga nutqiy aktlar, xususan, buyruq, iltimos, maslahat, taqiq, ruxsat kabi harakatga undovchi nutqiy aktlar, odatda, implitsit holatda va muloqot muhitiga bog‘liq holda eksplitsit tarzda voqelanishi mumkin.

Masalan: 「人事で飛ばされても首になつてもしてはいけなかつた。」

Xodimlar qarshilik qilishsa ham, ishdan bo'shatishsa ham bu ishni bajarmaslik kerak edi.

Ushbu gapining mazmuni turli vaziyatdagi muloqot jarayonida va kontekstda qo'llanilishiga bog'liq holda quyidagi nutqiy aktlar sifatida talqin etilishi mumkin::

- 1) buyruq (bajarmasligigizni buyuraman);
- 2) taqiq (bajarmasligigizni taqiqlayman);
- 3) darak (bajarmasligingiz haqida xabar qilaman);
- 4) ijozat berish (bajarishingiz mumkin emasligi uchun faoliyatda davom etishingiz mumkin);
- 5) iltimos yoki talab (iltimos, bajarmang).

Birinchi va ikkinchi holatlarda keltirilgan nutqiy aktlardan anglashiladigan ma'no va ularning lisoniy tuzilishi muloqot muhitiga mos kelganligi bois, ularni 直接的發話行為 (*vositasiz yoki birlamchi akt*) deyish mumkin. Ammo uchinchi, to'rtinchi va beshinchi misollarda darak, permissiv va rekvestiv kabi nutqiy aktlar ifodalanganda esa bilvosita yoki ikkilamchi akt hosil bo'ladi.

J. Syorlning fikricha, aynan implitsit yoki bilvosita nutqiy aktlarda bir vaqtning o'zida gapning asl (birlamchi) ma'nosи va tagma'no (ikkilamchi ma'no)sini idrok etish mumkin [Searl 1962]. Ushbu fikr yuqorida qayd etilgan misollarda o'z isbotini topgan. Demak, birlamchi va tagma'no munosabatida pragmatik transpozitsiya holati kuzatiladi. Semantik ma'noning pragmatik mazmunga mos kelmasligini nafaqat imperativ ohangdagi nutqiy aktlar, balki boshqa turlarida ham kuzatishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilgan misollarni tahlil qilish zamirida nutqiy aktlarni tasnifiy guruhlarga ajratishda performativ fe'llarga emas, balki nutqiy aktning o'zagini tashkil etuvchi illokutiv kuchga asoslanish maqsadga muvofiq ekanligi haqidagi xulosaga kelingan [Austin 1962].

Demak, ijozat so'rashga ishora qiluvchi imperativ jumlalarni hosil qilishda asosiy rol o'ynovchi "*felning - և shakli + もらう型*" formulasi tuzilishi jixatidan

buyruq ohangni ifodalovchi “*felning* - て *shakli* + ください” qurilmasiga yaqin tuzilma hisoblanadi. Ular o‘rtasidagi tafovut shundaki, “*felning* - て *shakli* + ください” formulasi suhbatdoshga to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq berishni ifodalaydi va tinglovchi harakat ijrochisi sifatida namoyon bo‘lsa, “*felning* - て *shakli* + もらつてもよろしいですか／よろしいでしょうか” qurilmasida esa, tinglovchining roziligi asosida harakat ijrochisi so‘zlovchining o‘zi bo‘ladi va u tinglovchiga nisbatan hurmati yuqori ekanligi va uning ruxsati harakatni amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga egaligini bildiradi. Bulardan tashqari, dialogik nutq jarayonida ishtirok etuvchi imperativlikni hosil qiluvchi maxsus qurilmalarining bir qancha turlari ham mavjud. Jumladan, yaponiyalik tadqiqotchi Toshixiro Yamada “*felning* - て(-te) *shakli*” asosida tashkil topgan qurilmalarni dialogik nutq jarayonida ishtirok etish maqsadiga ko‘ra quyidagi guruhlarga taqsimlaydi:

1. Imperativ shakl asosida ifodalanuvchi permissiv nutq:

～てくれ、～てください、～てくださいませ、お～ください、～てちょうどいい、～て、～て+命令形;

2. Iltimosni ifodalovchi nutq asosida (inkor va tasdiq shaklda):

～てくれる?、～てくれます?、～てくださる?、～てくださいます?
～くれない?、～てくれません?、～てくださらない?、～くれないだろうか?、～てくださらないででしょうか?;

3. Fe’lning modal shakli asosida (inkor va tasdiq shaklda):

～てもらえる、～ていただける、～てもらえない、～ていただけない;

4. Permissiv shakl asosida : ～てもらつてもいいですか、～ていただいてよろしいですか、～ていただいてもいいででしょうか、～ていただけてもよろしいででしょうか;

5. Shart mayli shaklida: ～てもらえてありがたい、～てくれるとありがたいけど;

6. Xohish ohangdagi nutq shaklida: ～てほしい、～てもらいたい;

7. Buyruq istak mayli shaklida: ~てもらおうか;

[山田, 2004]

Ushbu imperativ ma'noni anglatuvchi gramatik shakllar turli-tumanligi va ularning nutqda ishtirokidan anglashiladigan ma'noning xilma-xilligi bois ulardan o'rini foydalanish tinglovchiga ancha qiyinchilik tug'dirishi tabiiy holdir. Biroq ularning muloqot jarayonida ifodalanishidan maqsad, tinglovchiga nisbatan hurmat va unda so'zlovchiga nisbatan ijobiy fikr uyg'otish va uning ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazmagan holda, buyruq pragmatik mazmunini mahorat bilan tinglovchiga yo'naltirishdir.

Yapon tilshunosi Yamadaning fikricha, quyida keltirilgan misollar singari harakatni ijrochisi uchinchi shaxs bo'lgan hollarda so'zlovchi nutqi buyruqdan ko'ra ijozat mazmunidagi nutqiy akt sifatida voqelanishi kuzatiladi [山田, 2004].

Masalan: 「あの人に連れて行ってもらってもいいですか。」

(浦谷宏, 2007:251b).

Ana u kishi meni olib borar ekanmi...

Dastlabki ko'rinishda ushbu jumla oddiy so'roq gap va unda hech qanday haraktga undash ma'nosи navjud emasdek ko'rinati. Ammo 「~てもらってもいいですか」 qurilmasi ishtirok etgan ushbu jumlani quyidagicha izohlash o'rnlidir:

U kishiga meni olib borishini iltimos qilsam, bunga rozilik bildilar ekanmi.

Yapon tilida eksplitsit nutqiy aktlar vositasida hurmat kategoriyasi tamoyillariga bo'ysunish asosida suhbatdosh ruhiyatiga "jarohat" yetkazmasdan muloqot samaradorligini ta'minlashga harakat qilish nutqo odobining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Nutq jarayonida so'zlovchi va tinglovchining maqsadi o'zaro fikr almashish yoki ma'lum bir axborotni ma'lum qilish hamda uni qabul qilishdan iborat bo'libgina qolmay, balki so'zlovchi tomonidan tinglovchi biron bir harakatni amalga oshirishga undalishi va aksincha, uni bajarmaslikka da'vat qilinishi kabilar ham kuzatilishi mumkin.

Yapon tili tizimida muloqot harakatning natijaviy maqsadini ko‘zlab bajarilishi uchun qo‘l keladigan grammatik qurilmalar ko‘plab uchraydi. Ayniqsa, imperativ mazmundagi nutqiy aktlar jarayonida ishtirok etuvchi qurilmalardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchidan biroz ehtiyyotkorlikni talab qiladi. Bunday holatlarda birgina noto‘g‘ri yoki noo‘rin foydalanilgan qurilma va u ishtirok etayotgan nutq suhbatdosh ruhiyatiga salbiy ta’sir o‘tkazishi va muloqot bardavomligining to‘xtashi kabi ijobiy bo‘lmagan oqibatlar bilan yakun topishi ehtimoldan holi emas.

Aynan imperativ ohangidagi nutqiy aktlar ishtirokida kechadigan muloqot matnlarida ushbu xalqning ruhiy va milliy-madaniy xususiyatlari hamda mentaliteti o‘z ifodasini topadi. Kun chiqar yurt vakillari nazarida imperativ gaplarning qay tarzda ifodalanishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida, birinchi o‘rinda, suxbatdoshlarning ijtimoiy mavqeい, yoshi, ular o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlar, muloqot kechayotgan zamon va makon kabilarga e’tibor qaratish o‘ta muhim hisoblanadi.

Aslida “*buyruq shakl*” degan tushuncha “*buyruq gap*”ning ma’ndoshidir. Lekin har ikkala tushuncha orqali tagma’noni anglatuvchi aktlar, xususan, imperativlikka yo‘naltirilgan nutqiy aktlarni yaratilish imkonini kengroq.

Ma’lumki, ijro etilgan gap tarkibida eganing mavjud bo‘lishi nutq kimga yo‘naltirilganligini idrok etishda o‘ta muhim hisoblanadi. Ammo buyruq ohangda ifodalaniб, ish-harakatni bajarmaslikka undovchi proxibitiv nutqiy aktlarda uni tinglagan yoki mutoala qilgan shaxs nutq ijrosini bajaruvchisiga aylanadi. Masalan: 「立ち入り禁止。」

Ushbu jumla yozma nutq namunasi bo‘lib, o‘zbek tilida “*kirish mumkin emas*” yoki “*kirish taqiqlanadi*” ma’nosini anglatadi va harakat ijro etilishi talab etilgan makon asosida (xavfli, ta’mirlash jarayoni ketayotgan hududlar kabi), harakat ijrosini ta’minlovchisi ushbu jumlani mutoala qilgan shaxs bo‘lishi mumkin.

「立ち入り禁止です。」 jumlesi so‘ngida ishtirok etayotgan “です” suffiksi uning og‘zaki nutqqa oid ekanligini anglash imkonini beradi va u “*kirish mumkin*

emas" yoki "*kirish taqiqlanadi*" ma'nosini anglatadi hamda harakat ijrosini ta'minlovchi ushbu jumlanı tinglagan shaxs bo'lishi mumkin.

Buyruq beruvchi va buyruq beriluvchining o'zaro munosabati quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. So'zlovchining nutqi tinglovchi tomonidan bajarilishi shart;
2. So'zlovchining nutqi tinglovchi tomonidan bajarilishi ixtiyoriy;
3. So'zlovchining nutqi tinglovchi tomonidan bajarilgani ma'qul.

Quyidagi misollarni tahlil qilib ko'ramiz:

1. So'zlovchining nutqi tinglovchi tomonidan bajarilishi shart bo'lgan holat:

- 「...遠くへ連れて行ってくれるといいな。」
 - 「大人みたいなことを言うな、今日はいいところへ案内する。」
- (川端康成、「二十年」1989:79 b).

- *Olis makonlarga olib borsang edi...*

- *Kattalardek gapirma, bugun ajoyib joylar bilan tanishtiraman.*

2. So'zlovchining nutqi tinglovchi tomonidan bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan holat:

「きみこちゃんのお母さんが言っている。昼御飯でも引き止めるが、啓吉は急ぐらしい。「困ったねえ。…これうちのざくろ、おあがり」そしてまたきみこを呼んだ。」
(川端康成「ざくろ」1989:418 b).

"Hech bo 'lma ganda tushlik qilar edik, lekin Keykichi shoshayotgan ekan"- dedi Kimikoning oyisi va qo'lidagi anorni unga tutdi: "Qiyin vaziyat bo'ldi-ku,...bu o'zimiznig bog'dan, ol...".

Birinchi misolda so'zlovchi tomonidan bayon etilgan fikrni amalga oshirishi shart bo'lgan shaxs sifatida tinglovchining mavjudligi muhim hisoblansa, ikkinchi misolda so'zlovchi va tinglovchi teng munosabatda ekanligi, ya'ni tinglovchi buyruqni bajaruvchisi emas, balki so'zlovchining nutqini harakatni amalga oshirish uchun berilgan ruxsat sifatida qabul qilishi mumkin.

3. So‘zlovchining nutqi tinglovchi tomonidan bajarilgani ma’qul deb qaraladigan holat bo‘lib, ushbu izohimizni quyidagi naql orqali tahlil qilib ko‘ramiz: 「子にすることを親にせよ！」（ミニことわざ辞典, 1993:157 b). *Farzandingga ma’qul ko ‘rganingni ota-onangga ham ravo ko ‘r.*

Ushbu jumladagi buyruq shaklda qo‘llanilgan “せよ” (bajarmoq (bu yerda - ravo ko‘rmoq)) fe'lida biz buyruqni emas, balki shunchaki maslahat, taklif yoki ruxsatni anglatuvchi ma’noni ko‘rishimiz mumkin.

Yapon madaniyatida muloqot ishtirokchilari bir-birining ijtimoiy yoki xizmat mavqeini anglagan holda buyruq shaklning mos kategoriyasidan foydalanib, adresatni harakatga undash imkoniyatidan foydalanadi. Mavqega bog‘liq holda, “yuqoridan quyiga” yo‘naltirilgan buyruq gaplarda talabning bajarilishi adresat uchun majburiy hisoblanib, uning talab etilgan harakatga nisbatan munosabati inobatga olinmaydi. Buyruqning inkor shakli, ya’ni faoliyat ijrosiga izn berilmaslik holati 「禁止」 bo‘lib, 「禁止刑」 talablari asosida voqelanadi. Buyruq gaplar, xoh u taqiq bo‘lsin, xoh ijozat, yapon mentaliteti va madaniyati ta’siri ostida, asosan implitsit tarzda namoyon etiladi. Buyruq gaplarda buyruq maylidagi fe’llar asosiy element hisoblanadi va so‘zlovchining nutq subyektiga bo‘lgan munosabati asosida tuslanadi va muloqot matniga bog‘liq holda imperativ gaplar taqiq va ijozat ma’nolarida voqelanishi mumkin [森山 2000b].

「バカいっちゃんいけませんよ。幼い女じやあるまいし、本人に抵抗する意思があれば、とことん逆らえたはずじやないですか。」

（吉村達也「富士山殺人事件」：239 b）.

Axmoqona gaplarni aytma. Yosh qiz emasku, o‘zida norozilik istagi bo‘lganida, aniq qarshilik qilgan bo‘lar edi.

Demak, gaplarning imperativ ohangda voqelanishi biror bir muloqot vaziyati va muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy o‘mi va maqomiga asoslangan holda amalga oshiriladi [Biryulin, Xrakovskiy 1992]. Ye. I. Belyaevning fikricha, imperativ gaplar direktiv illokutsiyani ifodalashning bevosita yopiq usuli hisoblanadi, bu esa ushbu shakllarning an’anaviy semantikasi bilan bog‘liqdir [Belyaeva, 1992:141].

Darhaqiqat, yapon tilidagi imperativ gaplar o‘ziga xos jihatlari bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Ushbu tilda subyektni harakatga undovchi yoki subyekt harakatini taqiqlovchi turli xil unsurlar mavjud, ammo ularning har biridan erkin va istalgancha foydalanish imkoniyati mavjud emas. Muloqot matni va suhbatdoshning ijtimoiy mavqeい asosida ulardan mosi tanlanishi asosan nutq ijrochisi mahorati bilan bog‘liq holda kechadi.

Aytish joizki, yapon tilida 「禁止形」 (taqiq shakli) proxibitiv ma’nodagi buyruqni beruvchi maxsus shakllardan to‘g‘ri foydalana olish va ulardan mos bo‘lgan shaklni aniqlab, nutqda o‘rinli qo‘llay olish hamda pragmatik jihatdan to‘g‘ri tahlil qila bilish asosida so‘zlovchi va suhbatdosh o‘rtasidagi o‘zaro muloqotning davomiyligi ta’milanadi. Bunday vaziyatda, taqiq ma’nolarini o‘zida mujassam etgan qurilmalardan unumli foydalana olish so‘zlovchi tinglovchiga o‘z fikrini qanday ohangda (qo‘pol, o‘ta qo‘pol va muloyim yoki o‘ta muloyimlik bilan) etkazishi hamda nutqdan ko‘zlangan maqsadga qanday yo‘l bilan (zo‘ravonlik, majburlash, xushmuomalik kabilar orqali) erishmoqchi ekanligi asosida belgilanadi.

Shu o‘rinda buyruqning taqiq mazmunini ifodalovchi har bir grammatik qurilmaning ma’no va mohiyatini to‘laligicha oydinlashtirish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Murakami Mitsuxisa (村上寿) va Nitta Yoshio (仁田義雄) kabi yapon tilshunoslari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bevosita taqiqni ifodalovchi “fe’l+～ではいけない” qurilmasi mohiyatiga ko‘ra quyidagi to‘rt guruhga ajraladi [仁田 1991, 高梨, 森山 2010,1997] :

1.Umumiylar ma’noda ma’lum faoliyatga ijozat berilmaslik;

「...とにかく、糸川みたいな最低男は許せん。」

(吉村達也「富士山殺人事件」：243 b).

...baribir Itokavadek eng yomon odamlarni kechirib bo‘lmaydi.

2. Faoliyatni bajarmaslikka undash;

「ちょっととちょっと、ここに入ってはいけませんよ。」

To ‘xta-to ‘xta, bu erga kirish mumkin emas.

Ushbu qoida Moriyamaning fikricha, “fe’lning lug‘atdagi shakli + な” qurilmasi singari, so‘zlovchining shaxsiy talabini bevosita voqelantiruvchi unsurdir [森山 ,1997].

「僕を捨ててはいけない。」 *Meni tashlab ketma.* (森山 1997:21 b).

3. Qonun-qoida yoki urf-odat doirasida taqiqlangan holatlar:

「ここで煙草を吸ってもいいですか。」 *Bu erda tamaki chekish mumkinmi?*

「規則では吸ってはいけません。」 *Qoida bo‘yicha chekish mumkin emas.*

(森山 1997:85 b).

Taqiqni ifodalovchi buyruq gaplarda pragmatik mazmun bevosita va bilvosita nutqiy aktlar orqali ijro etiladi. Bunday holatda biz yapon tilida taqiqni ifodalovchi qurilmalarni guruhlarga ajratib olishimiz lozim:

1. Bevosita yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqni ifodalovchi grammatik qurilmalar: “fe’lning lug‘atdagi shakli (る) + な”;

2. Bilvosita taqiqni ifodalovchi qurilmalar fe’lning quyidagi shakllarga o‘zgarishi orqali hosil bo‘ladi:

Fe’l → ~てはいけない

Fe’l → ~てはだめ

Fe’l → ~じやだめ (~じやってだめ)

Fe’l → ~ちゃだめ (ちゃってだめ)

Fe’l → . . . できません (. . . できない)

Fe’l → ご遠慮ください

Fe’l → . . . られない

Fe’l → ~てほしい

Birinchi tuzilmada ta’kidlangan “fe’lning lug‘atdagi shakli (る) + な” tuzilmasi bevosita taqiqni ifodalab, tinglovchiga nisbatan o‘ta qo‘pol muomala turi hisoblangani bois, tabiiy holki, suhbatdosh ruhiyatiga salbiy ta’sir o‘tkazadi va muloqot jarayoni nutqdan ko‘zlangan maqsadga erishilmaslik yoki dialog to‘xtatilishi bilan yakun topishi ham mumkin.

Navbatdagi guruhda bilvosita taqiqni ifodalovchi qurilmalar ma'lum bir harakatlarni tinglovchi tomonidan amalda bajarilishi “maqsadga muvofiq emas” degan tushunchani yuzaga keltiradi va taqiqni ifodalovchi muhim qurilmalardandir.

Fe'lning taqiq ohangni ifodalovchi shakllari amalda ikki xil maqsadda ijro etiladi:

1. Tinglovchini ma'lum bir harakatni amalga oshirishdan qaytarish;
Bunda so'zlovchining emas, balki ommaning xohish istagi inobatga olinadi.
Masalan: 「昇れない木は仰ぎ見るな。」 (ミニことわざ辞典, 297 b).

Chiqa olmaydigan daraxtga intilma.

1. Nutqdan ko'zlangan maqsad so'zlovchining xohish istagi asosida ijro etiladi. Masalan:

「本当に大事にして御上げなさいよ」と奥さんも言った。「毒が脳へ廻るようになると、もうそれっきりよ、あなた。笑いことじやないわ。」
(夏目漱石「こころ」：105 b).

“O'zingizni ehtiyot qiling”, dedi ayoli. “Og'u miyangizga etib borsa, tamom bo'lasiz. Kuladigan narsa emas” (shaxsiy talab va taqiq).

Birinchi misoldagi “見るな(intilmang)” fe'li bevosita faoliyat ijrosini taqiqlayotgan bo'lsa, ikkinchi misolda 「大事にして御上げなさいよ (ehtiyot qiling)」 hamda 「笑いことじやないわ(kuladigan narsa emas)」 nutqiy aktlari suhbatdoshga bilvosita faoliyat ijrosidan taqiqlayotgani, ya'ni “ehtiyot bo'ling, befarq bo'lman” va “kuladigan narsa emas (kulmang)” ma'nolarida idrok etish mumkin.

Yuqoridagi holatni “fe'lning lug'atdagi shakli (る) + な” qurilmalaridan biri deyishimiz mumkin. Ammo fe'lning quyidagi “～て+はいけない、～じゃダメ、～ちやダメ” tuzilmalari esa, “fe'lning lug'atdagi shakli (る) + な” qurilmasidan farqli holda, ham 「予防禁止」, ham 「制止的禁止」 ma'nolari mujassamlashgan nutqda keng qo'llaniladi.

Fe'lning 「～てはいけない」 yoki 「～じやいけない」 va 「～ちや
いけない」 qurilmalarining 「fe'lning lug'atdag'i shakli (る)+な」 qurilmasidan
farqli jihatidan biri shundaki, 「～てはいけない」, 「～じやいけない」 va
「～ちやいけない」 tuzilmalari, asosan, shaxsning individual xohish - istagi,
noroziligi yoki uning shaxsiy qonun-qoidasi asosida vujudga keladigan taqiqni
emas, balki jamiyatga tegishli holatlar, talab va istak hamda qonun qoidalarga oid
harakatlarni amalga oshirishni taqiqlash holatlarida keng qo'llaniladi. Aksincha,
fe'lning 「～てはダメ」, 「～じやダメ」 va 「～ちやダメ」 qurilmalari
nutqdagi ma'no va mohiyati hamda gapdagi ishtirokiga ko'ra fe'lning 「～ては
いけない」 qurilmasi bilan deyarli bir xillikka ega bo'lsa-da, so'zlovchi nutqidagi
ishtiroki asosida ham individuval, ham jamiyat talabining ijrosini ta'minlashga
undovchi qurilma sifatida dialogik nutqda voqelanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan 「～てはダメ」 yoki
「～じやダメ」 va 「～ちやダメ」 qurilmalari va "fe'lning lug'atdag'i shakli
(る)+な」 ma'no jihatidan bir xillikka ega bo'lsa-da, 「～てはダメ」 yoki
「～じやダメ」 va 「～ちやダメ」 qurilmalari predmet va tabiat hodisalariga
nisbatan nutqda voqelanish imkoniyati cheklanganligi bilan tafovutlanadi.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan proxibitiv ma'no anglatuvchi grammatik
unsurlar nutq jarayonida ishlatalishi mumkin bo'lman holatlar ham mavjud
bo'lib, birinchidan, tinglovchining biror harakatni bajara olish qobiliyatining
sustligi nazarda tutilgan ma'noni aks ettirsa, ikkinchidan, holat yoki sharoit taqozo
etgan taqiq nazarda tutilgan jarayonlarda qo'llaniladi. Suhbatdoshning ma'lum bir
ish harakatni bajarishiga bo'lgan qobiliyatining sustligi yoki uning o'sha ishni
bajarishga noloyiq ekanligini aks ettiruvchi proxibitiv ma'noni beruvchi
grammatik qurilmalar yapon tilida mavjud, ammo ulardan dialogik nutq jarayonida
foydalanan suhbatdosh ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazishi bois, nutq jarayonida
deyarli uchramaydi.

Biroq vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijro etiladigan proxibitiv nutqiy aktlarda, odatda, 「～てはいけません」 yoki 「～てはいけない」 qurilmalaridan foydalaniladi va tinglovchi tomonidan amal qilishi lozim bo‘lgan qonun - qoidalar, burch va vazifalar asosida ma’lum bir harakatni amalgaloshirmaslikka undash maqsadida ijro etiladigan nutqlarda voqelanadi. Ushbu holatlarda tinglovchi harakatni bajarish yoki bajarmaslik haqida qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lmaydi va so‘zlovchi buyrug‘ini amalgaloshirishi lozim bo‘ladi. Holat taqazo etadigan bunday proxibitiv nutqlar 「予防禁止」、 ya’ni vaziyatni oldini olish uchun qo‘llaniladigan taqiq va 「制止的禁止」 qoida hamda vazifalar asosida ijro etiladigan taqiq tarzida voqelanadi. Masalan: (博物館で) (muzeydagi holat)

予防禁止：「こちらで写真を撮ることが出来ません。」

Bu yerda suratga olish mumkin emas. (Vaziyatni oldini olish uchun qo‘llaniladigan taqiq).

制止的禁止：「こちらで写真は撮れません。」

Bu yerda suratga olish mumkin emas. (Qoida va vazifalar asosida ijro etiladigan taqiq).

Fe’lning 「～ない」 (inkor) shakli ishtirokida tuzilgan proxibitiv gaplar o‘ta kuchli va qo‘pol taqiqni ifodalaydi va ularda ko‘pincha 「制止的禁止」 suhbatdoshni suhbat jarayonining o‘zidayoq ish faoliyatni to‘xtatishga undovchi ma’no mujassam bo‘ladi va so‘lovchining shaxsiy xohish-istagi uchun qo‘llanilmaydi. Shuningdek, fe’lning inkor shakli ishtirokida ijro etilgan gaplarning oxiri 「～んじゃないの」 qurilmasi bilan tugashi holati ham mavjud bo‘lib, taqiqning nisbatan kuchliligini ko‘rsatadi. Ammo, taqiqning biroz hurmat va muloyimlik shakli bo‘lmish 「fe’l + ~ません」 qurilmasi asosan bolalarga, xasta va keksa kishilarga nisbatan qo‘llaniladigan sodda va sekin talaffuz qilinadigan jumlalarda ishtirok etishi odatiydir. Masalan:

「大きい声で話しません。」 Baland ovozda gapirmang (yoki gapirilmaydi).

Taqiq mazmunidagi buyruqni ifodalovchi 「するな」 tuzilmasi so‘zlovchi hissiyotlari va kayfiyatini ifodalashda ko‘l keladigan va nutq jarayonida ishlatilishi qulay bo‘lgan grammatik unsurlardan hisoblanadi. Ya’ni 「するな」 tuzilmasi orqali ma’lum bir faoliyatni amalgalash oshirmslikka talab darajasi kuchli ekanligi so‘zlovchining nutq ohangidan ma’lum bo‘ladi. Bunday paytlarda, asosan, so‘lovchining tinglovchi harakatiga nisbatan norozilik hissi aniq sezilib turadi. Masalan: 「私の前で喧嘩するな。」 *Mening oldimda janjal qilma.*

(吉村達也「富士山殺人事件」：204 b).

Odatda, 「するな」 fe’li gap tarkibida ishlatilishi bilan so‘zlovchining nutqidan ko‘zlagan maqsadi va uning suhbatdoshiga bo‘lgan munosabati etarlicha etkazilishi bois, 「するな」 shakli bir jumla tarkibida bir marotaba qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan farqli ravishda 「～てはいけない」 qurilmasi ham taqiqni ifodalasa-da, bir jumla tarkibida bir marotabadan ziyod takror qo‘llanilish imkoniga egadir. Bunday holatlarda 「～てはいけない」 qurilmasining oxirgi 「いけない」 qismi jumla so‘ngida, umumiylashtirishda bir bor qo‘llaniladi va u so‘zlovchining shaxsiy talabi yoki buyrug‘i emas, aksincha 「制止的禁止」 ma’nosida voqelanadi. Masalan:

「こう暑くては、家にいなくしてはいけない。」

Bunday issiq bo‘lsa, uyda qolmasam bo‘lmaydi.

(吉村達也「富士山殺人事件」：143 b).

Asl ma’nosи: Bunday issiq bo‘lsa, yaxshi emas, uyda qolmasam bo‘lmaydi.

Aslida 「いけません」 (mumkin emas) fe’li asosida tashkil etilgan ushbu tuzilmaning 「～できます」 (mumkin) fe’lini tasdiq shakliga o‘tkazish imkonи mavjud emasligi bois, bunday birikmani “turg‘un” grammatik qurilma deyish mumkin. Ammo 「～してはいけない」 qurilmasi ham mavjud bo‘lib, u 「～してはいけない」 qurilmasi bilan nutqda voqelanishi jihatidan bir xillikka egadir. 「～してはよくない」 (...ni bajarish yaxshi emas yoki mumkin emas) tuzilmasi

asosini tashkil qiluvchi 「よくない」 inkor ma'nosini anglatuvchi so'z tasdiq, ya'ni 「～してもいい」 (...ni bajarish yaxshi yoki mumkin) tarzidagi permissiv ma'noga o'zgarish imkonи mavjudligi bois, uni turg'un qurilmalar qatoriga krita olmaymiz. Lekin taqiqni ifodalovchi har ikkala qurilma o'tgan zamon shaklida tuslanishida bir xillikka egadir.

Shuningdek, har ikkala grammatik qurilmani hurmat shakldagi holati ham mavjud bo'lib, u qurilmaning oxirgi qismiga o'zgartirish kiritish bilan namoyon bo'ladi. Masalan:

行ってはいけません。 *Borish mumkin emas.*

行ってはよくないです。 *Borish yaxshi emas.*

Aslida suhbatdoshni harakatga undovchi buyruq gaplar negizida nutq ijrochisi turadi, chunki u buyruq beruvchi va uning ijrosining amalga oshishi yoki aksincha, amalga oshmay qolishiga sababchi ob'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Uning nutq ifodasi muloqot muhitiga bog'liq holda, ohang (xushmuomala, qo'pol, o'ta qo'pol kabi) va grammatik qurilmalar asosida yuzaga chiqadi. Bu holat nutq intensiyasining qanday yakun topishini belgilab beradi.

Imperativ mazmundagi jumlalarning muloqot matnida harakatga undash kommunikativ intensiyasi eksplitsit yoki implitsit tarzda ifodalanishi mumkin va bu holat buyruq mazmunidagi proxibitiv va permissiv nutqiy aktlar doirasida nisbatan ko'proq kuzatiladi. Muloqot matnidagi nutqiy tuzilmaning mazmuni eksplitsit yoki implitsit tarzda ifodalanishi sabablari nafaqat lisoniy, balki nolisoniy omillar bilan ham bog'liqdir.

Eksplitsitlikda illokutiv maqsad til tizimida to'g'ridan - to'g'ri, ya'ni hech qanday to'siqlarsiz, oshkora ifodalansa, implitsitlikda buning aksini ko'rish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum bir illokutiv akt boshqa bir ko'rinishdagi tuzilma, lokutiv harakat orqali dialogik nutqda voqelanadi va bunday nutqiy aktlarda nutq maqsadi yashirin ifodalangan bo'lib, illokutiv maqsad til tizimida to'g'ridan-to'g'ri aks ettirilmaydi.

Yapon tilida, o'zbek tilidan farqli holda, direktivlar sinfiga oid nutqiy aktlar faollashuvida, muloqot muhiti bilan bir qatorda, suhbatdoshning ijtimoiy maqomiga

va uning o‘ziga xos jihatlari kabilarga alohida urg‘u berish talab etiladi. Undash intensiyasi ijobiy yakun topishiga zamin yaratuvchi yana bir omil bu harakat ijrosining ta’minlanishi yoki ta’minlanmasligini belgilovchi sub’ektning ijtimoiy o‘rni va unga mos grammatik qurilmalarning o‘rinli qo‘llanilishidir.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan imperativlik buyruq gaplarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Yapon tilida bunday nutqiy aktlarda muloqot maqsadi aksariyat hollarda implitsit tarzda ifodalansa-da, muloqotdoshlarning ijtimoiy munosabatlariiga nisbatan ba’zan eksplitsit tarzda voqelanishini ham kuzatish mumkin .

Yapon tilida imperativ buyruq gaplarga e’tibor qartadigan bo‘lsak, ular boshqa gap turlariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Biroq buyruq gaplarni hosil qiluvchi grammatik omillar va ularning hurmat hamda kamtarlik ottenkalari, shuningdek, ularni muloqot matniga mos holda qo‘llay bilish imperativlikning murakkab, o‘ziga xos qirralaridan hisoblanadi.

Ko‘p hollarda imperativ gaplarda eganing mavjud bo‘lmasligini ham kuzatish mumkin, lekin bu holat aynan yapon tilidagi buyruq gap uchun asosiy ko‘rsatgich bo‘la olmaydi. Chunki ushbu madaniyat vakillari nutqida voqelanuvchi boshqa turdagi nutqiy aktlarda ham eganing ishtirok etmasligini tez-tez kuzatish mumkin va bunday hollarda gap egasini muloqot mazmunidan anglash imkonim mavjud bo‘ladi.

Dialogik nutqda imperativlikning inkor shaklda voqelanishiga keng miqyosda murojaat qilinadi va bunda illokutiv kuch gap propozitsiyasini inkor qilish emas, balki muloqot qaratilgan shaxsni harakat ijrosiga undashdan iborat bo‘ladi. Buyruqning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalishidan ko‘ra, inkor shaklda bayon qilinishi ma’lum darajada adresat kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va unga nisbatan ehtirom hissini sezdiradi.

Imperativlikning yapon tilida kechadigan muloqot matnida nisbatan kamroq qo‘llanilishi ushbu xalqning milliy-madaniy o‘ziga xosligi va asrlar davomida sayqallanib kelgan urf-odatlari bilan belgilangan. Yapon xalqi suhbatdoshni ma’lum bir harakatga undash orqali uning ko‘ngliga yoki ruhiy kechinmalariga salbiy ta’sir etkazishdan uzoqlashishga intiladi.

Ushbu bobda imperativlikning harakat ijrosiga ruxsat beruvchi yoki uni bajarmaslikka da'vat etuvchi proxibitiv va permissivlikning kundalik muloqot jarayonida asosan bilvosita voqelanishi va yapon xalq paremiyalarida esa taqiq va ijozat berish mazmunidagi birliklar botinan hamda zohiran voqelanishi aniq misollar orqali isbotlandi.

Yapon xalq maqollari tarkibida, asosan, ierogliflar yoki qo'shma so'zlardan tashkil topadigan 「慣用句」, ya'ni idiomalar orqali ifodalanuvchi holatlar ko'p uchraydi va ulardan anglashiladigan ma'no, asosan, imperativ, permissiv, proxibitiv hamda maslahat berish kabi mazmunda muloqot jarayonida namoyon bo'ladi.

Muloqot vaziyatiga ko'ra taqiq yoki ijozat mazmunidagi tuzilmalardan foydalanimizda, so'zlovchidan o'ta xushyorlik bilan suhbatdoshga muomala qilish talab etiladi va bunday nutqiy aktlarga nisbatan tinglovchi tomonidan ham rad javobini bermaslik choralari qidiriladi.

XULOSA

1. Paremiyalar nafaqat kundalik muloqot diskursida, balki nutqning barcha ko'rinishlarida, xususan, rasmiy va norasmiy muloqot jarayonlarida, ommaviy axborot vositalarining og'zaki va yozma nutqida, xattoki, sahna namoyishlarida ham nutq bezagi va estetikasi vazifasini o'tab kelmoqda.

2. Imperativ maqollar funksional, struktur va semantik xususiyatlariga ko'ra xarakterlidir. Ya'ni ushbu turdag'i maqollar tarkibidagi fe'llarning, odatda, buyruq shaklida ko'rinish berishi o'zgarmas qoida sifatida qabul qilinadi. Ushbu turdag'i maqollar samarali harakat yo'nalishini zohiran yoki botinan belgilab berish xususiyatiga ega bo'lgan aforistik birlik deyish mumkin va bu nutqda illokutiv kuchning ta'sir tezligi oshishiga imkon beradi.

3. Imperativ mazmundagi harakatga undovchi nutqiy aktlar nutq intensiyasini botinan voqelantiruvchi nutqiy akt turi sifatida explitsit nutqiy aktini eng muhim vosita sifatida e'tirof etiladi va ushbu turdag'i nutqiy aktlar direktivlar sinfiga oid bo'lib, o'ziga xos funksional, semantik va grammatik tuzilish hamda pragmatik strukturaga egadir.

4. Maqollar oddiy jumla tuzilishiga va ko‘pincha juda ko‘p ishlatiladigan leksikaga ega bo‘lishi mumkin. Biroq, ularning o‘ziga xos so‘z birikmalari maqolning sintaktik yoki tarkibiy o‘zgarishlaridan qat’i nazar, invariant va variantlarni aniqlashga imkon beradi va ushbu qonuniyatlar maqollarning sintaktik tuzilishiga ko‘ra rasmiy tasniflanishiga olib keladi. Xuddi shu maqolning variantlari orasidagi farqlarning aksariyati ularning grammatik elementlarining xilma-xilligida va asosiy ma’noli so‘zlarning leksik tanlovida kuzatilishi mumkin.

5. Imperativ maqollarning pragma - diskursiv tahlili so‘zlovchining emotsiyal holatlari, masalan, ma’lum bir holatga nisbatan reaktsiyasi asosida maqollarga murojaat qilayotganligiga tayanib maqollarni tahlil qilish imkonini ham beradi. Ushbu jarayon, paremiyalar bilan muomalada bo‘lish va ularning xususiyatlarini o‘rganishga yengillik tug‘dirib, ular ishtirokidagi nutq intentsiyasining o‘zgaruvchan va yangicha ma’noda voqelanishi kabi xususiyatlarni yoritishga turtki bo‘ladi.

6. Harakatga undovchi nutqiy aktlarga murojaat qilishda eksplitsitlik usuliga tayanish samarali kechadi. Bunda illokutiv maqsad til tizimida to‘g‘ridan - to‘g‘ri, ya’ni hech qanday to‘sqliarsiz, oshkora ifodalansa, implitsitlikda buning aksini ko‘rish mumkin. Diskurs jarayonida maqollar bu turdagи nutqiy aktlarning stereotipi vazifasii bajarishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ma’lum bir illokutiv akt boshqa bir ko‘rinishdagi tuzilma, lokutiv harakat orqali dialogik nutqda voqelanadi va bunday nutqiy aktlarda nutq maqsadi yashirin ifodalangan bo‘lib, illokutiv maqsad til tizimida to‘g‘ridan - to‘g‘ri aks ettirilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ilmiy – nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

1. Абдуллаева Н. Ўзбек ва инглиз халқ мақолларида макрографионимия// An international scientific and practical online conference on the topic tsul minternational conference on teaching foreign languages. Foreign languages department. – Tashkent, 2021. -Б.257 -259.
2. Ёкубов Ж. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланишининг семантик хусусиятлари. - Т.: Фан, 2005. – 223 б.
3. Жўраева Б. Мақолларнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2007. – 68 б.
4. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари. – Тошкент: Академнашр, 2019. – 219 б.
5. Сайдова М. Ш. Синфдан ташқари ўқиш дарсларида мақол ва ҳикматлардан фойдаланиш. – Наманган, 2021. -150 б.
6. Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. - Челябинск: ЧГУР, 2018. -315 с.
7. Сафаров Ш. С. Дискурсивно - прагматический природе директивных речевых актов // Текст:структура и анализ. - М.: 1989. - С. 34-41.
8. Сафаров Ш. С. Прагмалингвистика. - Т., 2008. -Б.71-106.

9. Сафаров Ш. С.Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. -88 б.
10. Соатов Б. А. Ўзбек халқ мақолларининг жанр ва шеърий хусусиятлари. – Тошкент, 1997. – 128 б.
11. Тўра Мирзаев, Асқар Мусоқулов, Баҳодир Саримсоқов. Ўзбек халқ мақоллари. -Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа аксиядорлик корапанияси Бош таҳририяти, 2005.

2) Xorijiy nashrlar (rus tilida)

12. Абакумова О.Б. Пословицы в языке, сознании и коммуникации. - СПб: Издательский дом «Алеф - Пресс», 2012. - 354 с.
13. Абакумова, О.Б. К вопросу о моделировании семантики пословичных высказываний // Прикладная лингвистика в науке и образовании: Материалы ИВ Международной научно-практической конференции. - СПб: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2008. - С. 7-11.
14. Алпатов В.М. Категория вежливости в современном японском языке. - М.: УРСС, 2011. - 145 с.
15. Алпатов В. М. Япония. Язык и общество. - М.: Наука, 1988. – 135с.
16. Аникин. В. П. Мудрость народов. // Пословицы и поговорки народов Востока. - М.: Издательство восточной литературы, 1961. -С.10-18.
17. Арутюнова Н.Д. Дискурс. В кн.: Лингвистическая энциклопедия.- М., 1990.-С. 130-137.
18. Бабаян. В. Н. Дискурсивное пространство терциарной речи. Психолингвистические особенности диалогической речи в присутствии молчавшего третьего лица: LAP LAMBERT Academic Publishing, Germany, 2011. - 85 р.
19. Бирюлин Л. А. Семантика отрицательных императивов НСВ в русском языке // Функционально - типологический аспект анализа императива. М.: Наука, 1990.- С.53-58.
20. Блох М. Я. Теоретическая грамматика английского языка. – М.: Высшая школа, 2003. – С. 130-145.
21. Богданов В. В. Классификация речевых актов // Лингвистические аспекты языкового общения. - Калинин, 1989. - С. 25-37.
22. Гловинская М.Я. Семантика глаголов речи с точки зрения теории речевых актов // Русский язык и его функционировании: Коммуникативно-прагматический аспект. - М.: Наука, 1993. - 213 с.
23. Добрушина Н. Р. К типологии оптатива // Исследования по теории грамматики. М., 2001.
24. Еремеев Я. Н., Кашкин В. Б. О мотивированности действия, совершающего вследствие директивных высказываний. 2003. - С. 46-48.

25. Еремеев Я. Н. Директивные высказывания с точки зрения диалогического подхода // Теоретическая и прикладная лингвистика. - Воронеж, 2000. - С. 100-126.
26. Жеверов С.В. Особенности речевой и неречевой коммуникации японцев // Национально - культурная специфика речевого поведения. - М.: Наука, 1977. - С. 320-338.
27. Иванова И. П., Бурлакова В. В., Паченцов Г.Г. Теоретическая грамматика английского языка. - М.: Высшая школа, 1981. - С. 271-277.
28. Карабан В. И. Аргументация просбы в комплексных директивах // Речевое общение и аргументация. - СПБ., 1993. - С. 39-45.
29. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград: Перемена, 2002. - 477 с.
30. Карасик В. И. Язык социального статуса. - М.: Ин-т языкоznания РАН, 1992. – 330 с.
31. Касевич В. Б. Труды по языкоznанию. - СПБ.: Изд-во СПБ ГУ, 2006. – 663 с.
32. Крикман А. А. Некоторые аспекты семантической неопределенности пословиц // Паремиологический сборник. - М., 1978.
33. Першикова В. А. Предложения - директивы в современном английском языке. - Горький: Изд-во ГПИИЯ, - 15 с.
34. Петрова О. В. Подготовка переводчиков. - М.: Р.Валент, 2018. - 252с.
35. Подлесская В. И. Глагольные категории во взаимодействии: русские пермиссивные конструкции со вспомогательным глаголом “дать” // Типологические обоснования в грамматике. - М.: Знак, 2004. - С. 413-428.
36. Поливанов Е.Д. Труды по восточному общему языкоznанию//Е.Д. Поливанов. - М., 1991. – 225 с.
37. Почепцов Г.Г. Теория коммуникации. М.: Рефл-бук, К.: Ваклер, 2001.
38. Путилов. Б. Н. Методология сравнительно-исторического изучения фольклора. - Л.: Наука, 1976. - 244 с.
39. Романов А. А. Перформативные глаголы и иллокутивная функция высказывания // Прагматический условия функционирования языка. - Кемерово, 1987. - С. 7-11.
40. Серль Д. Ж. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. - М.: Прогресс, 1986. - С. 170-194.
41. Солнцев В. М. Язык как системно-структурное образование. Ин-т востоковедения, Москва : Наука, 1978. - 340 с.
42. Соссюр. Ф. де Труды по языкоznанию. М.: Прогресс, 1977. - 169 с.

43. Сусов И.П. Лингвистическая прагматика. - Винница, 2006. - С. 138.
44. Тарланов З.К. Русские пословицы: синтаксис и поэтика. - Петрозаводск: Изд-во Петрозаводск. ун-та, 1999. - С. 108.
45. Тимберлейк А. Заметки о конференции: инвариантность, типология, диахрония и прагматика // Типология вида: Проблемы, поиски, решения. М., 1998. - 44 с.
46. Храковский В. С. Семантика и типология императива: Русский императив / В. С. Храковский, А. П. Володин. - Л., 1986. - С. 93-96.
47. Храковский В. С. Повелительность // Теория функциональной грамматики. Модальность. - Л.: Наука, 1990. - С. 185-237.
48. Чесноков И.И. Речевой акт «Клятва»: эксплицитные перформативные высказывания Текст научной статьи по специальности «Языкоизнание и литературоведение». М., 2016. - 44 с.

3) Xorijiy nashrlar (ingliz tilida)

49. Abdel Rahman, Ahmed, Germs of Wisdom: Sudanese Proverbs: A paper presented at the Sudanese Studies Association Annual conference, University of Pennsylvania, May 1998.
50. Abrahams, R. D. "Proverbs and Proverbial Expressions", in Richard M. Dorson, ed., Folklore and Folk life: An Introduction. Chicago: University of Chicago Press, 1972, P. 117- 119.
51. Alpatov, V. M. (2001). Imperative in modern Japanese. - P. 106 -126 .
52. Apresyan Yu.D. Integral description of the language and system lexicography. Languages of Russian culture. M.: School, 1995. - p.346.
53. Austin, J. How to do things with words. In J. O. Urmston (Ed.), - Cambridge; CUP, 1962. - 66 p.
54. Austin J. L. How To Do Things With Words. –Oxford: Oxford Univ. Press., 1962; 2 nd ed., 1973.- 168 p.
55. Bach K., Harnish R.M. Linguistic Communication and Speech Acts. - Cambridge: MIT Press, 1979. – 184 p.
56. Bach K. Speech Acts and Pragmatics // Blackwell Guide to Philosophy of Language, 2003. – 189 p .
57. Birjulin, L. A. & Xrakovskij, V. S. Imperative sentences: theoretical problems. - P. 3-50 .
58. Bogdanov V. V. Linguistic pragmatics and its applied aspects//Applied linguistics. – St. Petersburg, 1996. – P. 268–275.
59. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. - L.: Blackwell Publishing, 2008. – 529 p.
60. Cummings L. Pragmatics. A Multidisciplinary Perspective. - Edinburgh: Edinburgh Univ. Press, 2005. - 336 p.

61. Dominicy M., Franken N. Speech Acts and relevance theory. In: Vandeveken D. Essays in Speech Act Theory. - Amsterdam: John Benjamins Publ. House, 2002. - P. 263-283.
 62. Dwight, 1974 - Dwight Bolinger. Do Imperatives // Journal Of English Linguistics. Vol. 8. - Washington, 1974. - P. 1-6.
 63. Firth, Raymond. "Proverbs in Native Life, with Special Reference to Those of the Maori", Folk-Lore, New York: Harper & Row, 1926.
 64. Fraser B. The domains of pragmatics // Languages and communication. - London; New York, 1983. -P. 29-59.
 65. Genius English - Japanese Electronic Dictionary. 4 - edition , 2006.
 66. Grice H.P. Logic and conversation. In: Syntax and Semantics. -Vol.3: Speech acts. -New York: Academic Press, 1975. - P. 45-56.
 67. Haverkate H. Impositive Sentences in Spanish. - Amsterdam: North - Holland Publ. House, 1979. – 194 p.
 68. Hernadi Paul & Francis Steen. The Tropical Landscapes of Proverbia: Style. Vol. 33, 1999 - 18 p.
 69. Hoffman L. Permissive // Linguistischen Kolloquiums. - Tubingen, 1979, Bd. 2. - P. 219-229.
 70. Holliday M.A.K. "Language Structure and Language Function", in John Lyons ed. New Horizons in Linguistics. Harmondsworth: Penguin, 1970. -P. 140-165.
 71. Jacobson R. Linguists and Poetics // Style in Language. - Cambridge Mass.: The MIT Press, 1980. - P. 350-377.
 72. Kibrik, A. A. & Plungyan, V. A. Functionalism and discursive research. In Fundamental directions of modern American linguistics. – MSU, 1997. - 307 p.
 73. Kissine M. From Utterances to Speech acts. - Cambridge: CUP, 2013. – 202 p.
 74. Tsui A. English Conversation. - Oxford: Oxford University Press, 1994. – 338 p.
 75. Yamanashi Masaki, Speech-act constructions, illocutionary forces and conventionality. Amsterdam: John Benjamins, 2000. - P. 225-238.
 76. Takahashi Hidemitsu English imperatives and passives // Constructions in cognitive linguistics. Amsterdam, 2000. -P. 239-258.
- 4) Xorijiy nashrlar (yapon tilida)**
77. 阿部佳子. 疑問命令文について：関連性理論の立場から//人間文化研究科年報、№ 16. - 奈良女子大学. 2000 . - P. 41-52.

78. 安達太郎. 命令のモダリティ (新本語文法選書) . 東京くろしお出版- 2002, - P. 42-77 .
79. 安達太郎. 日本語記述文法研究会 (現代日本語文法: 第 8 モダリティ一)...: 東京くろしお出版- 2003. - P. 3-5.
80. 安達太郎. 命令・依頼のモダリティ、 くろしお出版. 2002, - P. 42-78.
81. 山本昭. 情報知識学会第6回研究報告会講演論文集 (1998. 5. 23) 「専門コミュニケーションにおける言語と非言語－ターミノロジーの視点から」 – P. 12.
82. 秋山怜. 英語命令文の内部構成。東京：開拓社、1991. - P. 13-15.
83. 現代日本語文法・モダリティ. 第 8 部、編者仁田義雄. – 東京くろしお出版、2003. – 303 p.

III. Badiiy adabiyotlar

84. Tog‘ay Murod, Ot kishnagan oqshom. – Toshkent: Ziyo Nashr, 2019. - 132 b.
85. O‘tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi Asr Avlod, 2019. – 340 b.
86. 赤川次郎. 「赤いこうもり傘」、角川文庫、1983. - 234 p.
87. 赤川次郎. 「死が二人を分かつまで」東京：講談社、1994. - 331 p.
88. 赤川次郎. 「ふたり」東京：新潮社, 1999. - 304 p.
89. 芥川龍之介. 集-東京：筑摩、1968.- 520 p.
90. 吉本ばなな. 「白川夜船」東京：角川書店、1992. - 183 p.
91. 吉村達也. 「富士山殺人事件」東京：集英社、1962. – 275 p.
92. 川崎大治. 「日本の笑い話」東京：童心社、1983. - 244 p.
93. 川端康成. 「掌の小説」東京：新潮, 19. - 559 p.
94. 桐野夏生. 「顔に降りかかる雨」東京：講談、1996. - 320 p.
95. 黒田敏夫. 「雑学事典」東京：照文社, 1988. - 304 p.
96. 夏目漱石. 「こころ」東京：新潮社、1916. - 378 p.
97. 大江健三郎. 「われらの狂気を生き延びる道を教えよ」、東京：新潮社、1975. - 469 p..

IV. Lug‘atlar

98. Арутюнова Н. Д. Речевой акт // Языкоzнание. Большой энциклопедический словарь. - М.: Русский язык, 1998. - С. 412-413.
99. Бердиёров X., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик лугати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 89 б.
100. 新村 出, 広辞苑 第六版 (普通版) 岩波書店 2008/01/11.

101. Karamatova K. M., Karamatov H. S. Proverbs, Maqollar, Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b.
102. O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: filologiya fanlari doktori, professor To‘ra Mirzayev, filologiya fanlari doktori, professor Asqar Musoqulov, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov. Mas’ul murarrir – filologiya fanlari nomzodi Shomirza Turdimov. - Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005. – 512 b.
103. Пермяков Г. Л. Пословицы и поговорки народов востока. – Москва: Наука, 1979. – 672 с.
104. Содикова М. Қисқача ўзбекча - русча мақол-маталларининг луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 84 б.
105. Шеров С. Х. Японча-ўзбекча-русча луғат. -Т.: “Фан ва технология”, 2007. – 250 б.
106. Electronic Dictionary Project (eds). Eijiroo.
107. Electronic Dictionary. Shogakukan PROGRESSIVE Japanese-English Dictionary. 3 - edition , 2002.
108. 松木茂 「ミニことわざ辞典」 東京：金園社、1993. – 409 p.
109. 折井英治 「暮らしのことわざ辞典」 第 3 版、東京：集英社、1962. – 575 p.
110. 小学館『大辞泉』編集部 編. 著者標目. 小学館 ショウガクカン典拠. 出版事項. 東京 : 小学館. 出版年月日等. 1995.12. 出版年 (W3CDTF) . 1995. 数量. 2912p.
111. 新レインボー 写真でわかる はじめてことわざ・四字熟語辞典 (オールカラー) Tankobon Hardcover – July 3, 2018, 学研辞典編集部 (編集)

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

112. Астапенко Е. В. Высказывания в ситуациях запрета. Автореф.дисс.. канд. филол.наук. - Тверь, 2004. - 18 с.
113. Астапенко Е. В. Высказывания в ситуациях запрета. Автореф.дисс.. канд. филол.наук. - Тверь, 2004. - 18 с.
114. Axrorov A. Nutq madaniyatini ifodalovchi o‘zbek xalq maqollarining lingvo-funksional va xulqiy qiymati. Filol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD)...diss. avtoref. – Guliston, 2021.
115. Бегмурадов И. Узбекско-казахские фольклорные связи: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 18 с

116. Беляева Е.И. Модальность и прагматические аспекты директивных речевых актов в современном английском языке. Автореф. дисс..... докт.филол. наук. - М.: 1988. - 29 с.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

117. Абакумова, О. Б. Пословицы в когнитивно-дискурсивном аспекте // Международный конгресс по когнитивной лингвистике: Сб.мат-лов. - Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р.Державина, 2008. - С. 153-155.
118. Allan K. Linguistic Meaning. Vol. 2. - L.: Routledge and Kegan Paul, [ISBN 0-7102-0699-2](#).1986. – 128 p.
119. Benveniste E. Problems in General Linguistics (Problèmes de linguistique générale, vol. 1, 1966), translated by Mary Elizabeth Meek. [Coral Gables, Florida: University of Miami. ISBN 0-87024-132-X](#).
120. Бирюлин Л. А. Побуждение к действию в актах речи // Теория функциональной грамматики. Темпоральность. Модальность. - Л.: Наука, 1990. - С. 238-243.
121. Charters-Black, Jonathan. “Proverbs in Communication”, Journal of Multilingual and Multicultural Development, 16, vol. 4, 1995.
122. Coulmas F. Direct and indirect speech: general problems and problems of Japanese // Journal of Pragmatics, 1985. -vol. 9.1. - P. 41-63.
123. Гриченко Л. В. Рациональность русских пословиц // Язык как система и деятельность-4. Материалы Международной научной конференции. 2013. - 26 с.
124. Денисова Е. А. Прохихитивные паремии в межкультурной коммуникации. Педагогические науки. Казанский вестник молодых ученых. 2018, - С 108 -111.

VII. Internet saytlari

125. <http://www.lex.uz>
126. <http://lex/uz/docs/3765586>.
127. <https://bilimlar.uz/maqollar>
128. <http://www.ziyo.uz>
129. <https://maqollar.uz>
130. <http://www.natlib.uz>
131. <https://www.homemate.co.jp>

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I BOB. IMPERATIV MAQOLLARNING NAZARIY ASOSLARI	
§1.1. Imperativ mazmundagi maqollarning umumiy xususiyatlari.....	5
§1.2. Imperativlikning nutqiy aktlar nazariyasidagi talqini.....	19
§1.3. Maqollarda imperativlikning pragma - diskursiv talqini.....	33
§1.4. Yapon va o‘zbek maqollarida invariant va variantlikning namoyon bo‘lishi.....	42
II BOB. YAPON TILIDA IMPERATIVLIKNING IMPLITSIT VA EKSPLITSIT IFODA USULLARI	
§2.1. Imperativ tuzilmalarining pragmasemantik xususiyatlari.....	52
§2.2. Implitsit va eksplitsit imperativlikning dialogik nutqda namoyon bo‘lishi...	68
XULOSA	91

